ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Adsorbsion quritish jarayonining fizik-kimyoviy mohiyati. *Ashurov Sh.M.* *Bozorov O.N* *Quyboqarov O.E.*	9
2	O‘simlik ekstraktlari bilan boyitilgan atir sovunlarning antioksidant va mikrobiologik barqarorligini tadqiq etish *S.N. Shodiyeva* *N.K. Majidova*	22
3	Metan konversiyasi jarayonida turli xil membranali reaktorlarning katalizatorga ta’sirini o‘rganish *Shabarova Umida* *Abdirashidov Durbek* *Abdurasulova Sug‘diyona*	33
4	Lia seolitining toza kimyoviy reagentlar yordamida sintezi va mikrostrukturaviy sem tahlili *Hamidov Raxmatullo* *Oydinov Muxlis*	41
5	Совершенствование рабочего органа карьерных электрических экскаваторов типа экг *Зохидов Одил Умирзокович* *Рахимов Бекзод Абдикомил угли* *Азимов Шохжахон Бобомурод угли* *Азаматов Ахадбек Садирдин угли*	48
6	Olgellarni sem hamda edx analiz tahlilari orqali sirt yuzasini va element tarkibini tahlil qilish *Ernazarova Nasiba Temirovna* *Xusanova Mamlakat Furqatovna* *Djalilov Abdulahat Turapovich.* *Shomuradov Ulug‘bek Meyli o‘g‘li*	56
7	Bentonit va mahalliy mineral xomashyolar asosida adsorbentlar olish imkoniyatlari *Ashurov Sh.M.* *Bozorov O.N.* *Quyboqarov O.E.*	64
8	Ikkilamchi pet chiqindilaridan yuqori sifatli tereftaldiamid sintez qilish *Saidnazarov Toir Raxmon o‘gli* *To‘rayev Xayit Xudaynazarovich* *Karimov Ma’sud Ubaydilla o‘g‘li* *Eshmurodov Xurshid Esanberdiyevich*	77
9	Shamol turbinalarini tahlil qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy dasturlar tahlili *B.Raxmonov* *B.Boynazarov* *M.Uzbekov* *M.Qosimova*	87
10	Bolalar va o‘smirlarda allergik kasalliklar: etiologiya, patogenez,diagnostika va davolashning zamonaviy tamoyillari *Axmadjonova Gulhayo Rafiqjon qizi*	98
11	Ikkilamchi polimer chiqindilar pet va eva asosida geteropolimer modifikatorlar sintezi va ularni qo‘llash imkoniyatlari *Xo‘jaqulov Kamoliddin Ramazanovich* *Ubaydullayeva Sevara Ahmad qizi*	103
12	Sintetik va ananaviy yoqilg`ilarni kompoudlash asosida ekologik va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan yoqilg‘ilar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalari *Ro`ziyev A.T* *Hayitov R.R* *Mavlonov Sh.B..*	112

ISSN 3030-3907

13	“O`zbekiston gtl” mahsulotlarnining fizik-kimyoviy xossalari va ularni kompoudirlash asosida ekologik toza yoqilg`ilar olish istiqbollari *Ro`ziyev Aliakbar To`raqulovich* *Hayitov Ruslan Rustamjonovich* *Mavlonov Shohrux Boboxon o`g`li*	123
14	Faza o‘zgaruvchan va qattiq materiallardan birgalikda foydalanilgan issiqlik energiyasini saqlash tizimlarining hisobi *Shodmonov Musulmon Farxodovich*	133
15	Magistral yo‘llarda harakatlanishda texnika xavfsizlik qoidalari va atrof muhitga ta’siri. *Shodmonov Sayidbek* *Habibullayev Halililo Oybek o‘g‘li*	141
16	O‘zbekiston xalqaro savdosida nazariy asoslar tahlil va zamonaviy tendensiyalar *Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich* *Sharifjonov Sarvarbek Mirzaakbar o‘g‘li*	149
17	Suv xo‘jaligi nasos stansiyalarida asinxron elektr yuritmalarning energiya sarfini kamaytirish *Axmedov Durbek Madaminjon o‘g‘li*	156
18	Ta’lim muassasalarida liderlik va boshqaruv: pedagogik jamoa hamda ma’muriyat o‘rtasidagi hamkorlik modelining nazariy-metodologik asoslari. *Kambarova Dilnoza Musakulovna*	162
19	Tabiiy konveksiya asosidagi bevosita quyosh quritgichlarning olma quritish jarayoniga ta`sirini baholash *Ma`murova Dildora Ma`ruf qizi*	167
20	Boshlang‘ich ta’limda muammoli vaziyatlarni yechishda ijodiy tafakkurni o‘rni *Toshtemirova Gulsanamoy Ilhomjon qizi*	175
21	Оценка биологического потенциала тритерпеноидных сапонинов astragalus методом in silico: pass-скрининг, дескрипторный анализ и sar-интерпретация *Хилола Ашурова* *Алишер Хаитбаев* *Rong Qi*	183
22	Korxona tarmoqlarida vlan segmentatsiyasi orqali xavfsizlikni oshirish usullari *Ro‘zimov Javlonbek Sabirjon o‘g‘li*	195
23	“Sika retarder” superplastifikatorini portlandsement xossalariga ta’sirini o‘rganish *A.K. Xoltayeva*	204
24	Шаҳар ҳудудларининг захлашига ер ости сувлари сатҳи кўтарилишининг гидродинамик жиҳатларини таъсири *Б.Д. Абдуллаев* *Ш.Т. Иргашев* *Б.Р. Насибов*	210
25	Analysis of heat transfer mechanisms in accelerating the food drying process. *Jabborov To‘lqin Kamolovich* *Kurbanov Nematilla Murodillayevich* *Jabborov Islombek To‘lqinjon o‘g‘li* *Siddiqov Mukhiddin Zayniddin o‘g‘li*	227
26	Linterlash mashinasi to‘zitg‘ich qurulmasini takomillashtirish hisobiga ishlash samaradorligini oshirish *Imomqulov Shuhratjon Boqijonovich* *Ne’matov Ilyosbek Ravshan o‘g‘li*	235
27	Чиқиндиларини кислотали қайта ишлаб фосфор-калийли ўғитлар олиш *Б.Мамадалиева* *Д.М.Тавакkалова* *М.М.Собиров*	242
28	Zamonaviy funksional material sifatida gidroksipropilmetilsellyuloza asosidagi gidrogellar sintezi va xossalarining tadqiqoti *Muxiddinov Baxodir Faxriddinovich*	250

ISSN 3030-3907

	Isroilov Oltinbek Ixtiyor o‘g‘li *Axtamov Dilshod To‘lqinovich* *Isroilova Gullola Anvar qizi*	
29	Ekologik toza mahsulotlar va organik qishloq xo‘jaligi. *Utamurodova Nigora Abdyraxmonovna*	258
30	Особенности эксплуатации щелочной колонны очистки пирогаза в промышленных производств этилена *Ф.А.Салохиддинов*	265
31	Кон машиналари ҳаво фильтрларини тозалаш самарадорлигини оширишнинг илмий-амалий таҳлили *Зохидов Одил Умирзокович* *Тошпулатов Мирзабек Дўстмурод ўғли*	273
32	Комплексное использование минеральных ресурсов как фактор устойчивого развития горнодобывающей отрасли *Косимов Мухиддин Одилович* *Раимжанов Бахадиржан Раимжанович* *Каримова Диёра Абдухамидовна* *Малюшенко Даниил Сергеевич*	280
33	Применение метода цементации для укрепления слабых грунтов *Акбарова Дильноза Баходир кизи*	293
34	Egiluvchi temirbeton to‘sinlarni kuchaytirishda bazalt kompozit materiallardan foydalanishning afzallik va kamchiliklari *Yusufxo‘jayev S.A.* *Samadova D.A.*	305
35	O‘tkir revmatik isitma bilan og‘rigan bolalarda immun tizimi, suyak tizimi holati *Muxamadiyeva L.A.* *Kuldashev S.F.*	312
36	Dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirishda axborot texnologiyalarining o‘rni *Abdullaeva Sanobar Berdievna* *Jabbarova Parizoda Ilhomjon qizi*	319
37	Oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitishning iqtisodiy hisob-kitob modeli *Voxidov Dilshod Alikulovich*	325
38	Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda badiiy adabiyotning o‘rni *Miraliyeva Dilafruz Tohirovna* *Sharipova Shohida Shoymardonovna*	330
39	Потери энергии в солнечных панелях и методы их снижения *Маджидова Махлиё Азам кизи*	335
40	Avtomobillar ishlangan gazlari tarkibidagi zararli moddalarni kamaytirish bo‘yicha umumiy chora-tadbirlar *Karimov Maxmud Raxmatovich* *Norqobilov Elmurod Erkin o‘g‘li*	347
41	Modernization of the carriage assembly of the nf-630 milling machine to increase the machining envelope in the nf-1200 model *Artikov Narmurad Nortajiyevich* *Oripov Dostonjon* *G‘aybulloyev Nusrat Sunatullo o‘g‘li* *Turdinov To‘lqin Abriyevich*	354
42	Structural improvement of the carriage assembly in the modernization of the nf-630 milling machine into the nf-1200 model *Artikov Narmurad Nortajiyevich* *G‘aybulloyev Nusrat Sunatullo o‘g‘li* *Oripov Dostonjon Rustamjon o‘g‘li* *Shukurov Odil Erkinovich*	369

ISSN 3030-3907

43	Scutellaria comosa o‘simlik turi terpenoidlari va flavonoidlarini kompleks holatda o‘rganish *Jo‘rayeva Nozimaxon Oybek qizi* *Karimov Abdurashid Musoxonovich*	378
44	Shotut mevasidan antosianin pigmentini ajratib olish va xossalarini o‘rganish *Rayimov Zuhriddin Xayriddin o‘g‘li* *Egamberdiyeva Umida Faxriddin qizi*	385
45	Mathematical modeling of heat and mass transfer in food drying processes *Akramov S.* *Safarov J.* *Sh.A. Sultanova*	394
46	Bifilyar chulg‘am kuchlanishining rostlash xarakteristikasini chiziqli xarakteristikaga o‘zgartirish *Mamadjanov Baxodir Djuraxanovich*	400
47	Actual problems of teaching programming languages in modern conditions *Otahanov Nurillo Abdumalikovich*	410
48	Fizika fanining shakllanishi va rivojlanishini metodologik tahlil qilish *Husanov Zafarjon Jo`raqulovich*	428
49	Scientific research for heating systems: useful work analysis and development methodology *Sanjar Jurakulov*	441
50	Java dasturlash tilida elektron darslik yaratish texnologiyasi *Aslonov Qodir Ziyodullayevich*	450

ISSN 3030-3907

ADSORBSION QURITISH JARAYONINING FIZIK-KIMYOVIY MOHIYATI.

Ashurov Sh.M.
Toshkent davlat texnika universiteti,
Bozorov O.N.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Quyboqarov O.E.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ishdada adsorbsion quritish jarayonining fizik-kimyoviy mohiyati, gaz yoki suyuq muhit tarkibidagi namlikni qattiq adsorbent yuzasida ushlab qolish mexanizmlari hamda jarayonga ta’sir etuvchi asosiy omillar yoritiladi. Adsorbsion quritish jarayoni modda almashinuvi, sirt hodisalari, kapillyar kondensatsiya, adsorbentning g‘ovak tuzilishi va faol markazlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, namlik molekulalarining adsorbent yuzasiga fizik yoki kimyoviy kuchlar orqali birikishi natijasida amalga oshadi. Jarayonda adsorbentning solishtirma yuzasi, g‘ovaklar hajmi, g‘ovak radiusi, sirt energiyasi, harorat, bosim, gaz sarfi va namlikning boshlang‘ich miqdori muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: adsorbsiya, adsorbsion quritish, namlik, adsorbent, tabiiy gaz, g‘ovak tuzilish, solishtirma sirt, massa almashinuvi, regeneratsiya, fizik-kimyoviy jarayon.

Аннотация. В данной работе освещается физико-химическая сущность процесса адсорбционной сушки, механизмы удержания влаги в газовой или жидкой среде на поверхности твердого адсорбента, а также основные факторы, влияющие на процесс. Процесс адсорбционной сушки напрямую связан с обменом веществ, поверхностными явлениями, капиллярной конденсацией, пористой структурой и активными центрами адсорбента и происходит в результате присоединения молекул влаги к поверхности адсорбента физическими или химическими силами. В процессе важное значение имеют удельная поверхность адсорбента, объем пор, радиус пор, поверхностная энергия, температура, давление, расход газа и начальное количество влаги.

Ключевые слова: адсорбция, адсорбционная сушка, влажность, адсорбент, природный газ, пористая структура, удельная поверхность, массообмен, регенерация, физико-химический процесс.

Abstract. This work highlights the physicochemical essence of the adsorption drying process, the mechanisms of moisture retention in a gas or liquid medium on the surface of a solid adsorbent, and the main factors influencing the process. The process of adsorption drying is directly related to the metabolism, surface

ISSN 3030-3907

phenomena, capillary condensation, porous structure, and active centers of the adsorbent and occurs as a result of the attachment of moisture molecules to the adsorbent surface by physical or chemical forces. In the process, the specific surface area of the adsorbent, pore volume, pore radius, surface energy, temperature, pressure, gas flow rate, and initial moisture content are of great importance.

Keywords: adsorption, adsorption drying, moisture, adsorbent, natural gas, porous structure, specific surface area, mass exchange, regeneration, physicochemical process.

KIRISH.

Gazlarni chuqur quritish neft-gaz sanoati, gazni qayta ishlash korxonalari, neft-kimyo, kriogen ajratish, vodorod energetikasi va katalitik jarayonlarda muhim texnologik bosqich hisoblanadi. Tabiiy gaz tarkibidagi suv bug‘i quvur liniyalarida gidratlar hosil bo‘lishiga, armatura va issiqlik almashinish apparatlarida korroziyaga, kompressorlarning ish rejimida nosozliklarga hamda past haroratli ajratish qurilmalarida muzlanish xavfiga sabab bo‘ladi. Shu bois namlikni me’yoriy chegaradan past darajaga tushirish gazni tayyorlash tizimining ishonchliligi va iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Sanoat amaliyotida gazlarni quritish uchun glikol bilan absorbsion quritish, sovitish-kondensatsiya, membranali ajratish va adsorbsion quritish usullaridan foydalaniladi. Ushbu usullar ichida adsorbsion quritish juda past shudring nuqtasiga erishish, qoldiq namlikni iz miqdorgacha kamaytirish va gazni keyingi kriogen yoki katalitik bosqichlarga tayyorlash imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Desikant adsorbentlar, jumladan molekulyar elaklar, silikagel va aktivlangan alyuminiy oksidi tabiiy gazni quritishda keng qo‘llaniladigan materiallar qatoriga kiradi [1, 7].

Adsorbsion quritishning fizik-kimyoviy mohiyati shundan iboratki, suv bug‘i molekulalari gaz fazadan qattiq jism yuzasiga ko‘chadi, g‘ovaklar bo‘ylab diffuziyalanadi va adsorbentning energetik jihatdan faol markazlarida ushlanadi. Bu jarayon bir vaqtning o‘zida sirt hodisalari, molekulalararo ta’sirlar, g‘ovaklar geometriyasi, issiqlik ajralishi, massa uzatish va desorbsiya-regeneratsiya qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Mavzuning dolzarbligi yuqori samarali, mexanik mustahkam, ko‘p siklli ishlashga chidamli va regeneratsiya energiyasi past adsorbentlar yaratish zarurati bilan bog‘liq. Ayniqsa, mahalliy bentonit, kaolin, diatomit, alyumosilikat va sanoat chiqindilari asosida kompozit adsorbentlar olish neft-gaz tarmog‘i uchun import o‘rnini bosuvchi texnologik yechim sifatida muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

ISSN 3030-3907


Adsorbsiya gaz yoki suyuq fazadagi modda molekulalarining qattiq jism yuzasida konsentrlanishidir. Quritish jarayonida adsorbat vazifasini suv bug‘i yoki namlik molekulalari bajaradi, adsorbent esa rivojlangan sirt yuzasi va g‘ovak tizimiga ega qattiq material bo‘ladi. Adsorbentning samaradorligi faqat umumiy yuzaga emas, balki shu yuzadagi faol markazlar tabiati, g‘ovaklar o‘lchami, namlikka nisbatan selektivlik va regeneratsiyalanish qobiliyatiga ham bog‘liq.

IUPAC tavsiflariga ko‘ra fizik adsorbsiya molekulalararo, asosan van-der-Vaals kuchlari va vodorod bog‘lari orqali kechadi; kimyoviy adsorbsiya esa adsorbat bilan adsorbent o‘rtasida kuchliroq, valent yoki koordinatsion xarakterdagi bog‘lanish paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi [2]. Adsorbsion quritishda odatda fizik adsorbsiya ustun bo‘ladi, chunki suv molekulalari regeneratsiya vaqtida qizdirilgan gaz yordamida qayta chiqarib yuborilishi kerak. Biroq gidroksil guruhlarga boy alyumosilikat, alyumina va seolitlarda suv molekulalarining kuchli gidrofil markazlarda nisbatan mustahkam ushlanishi kuzatiladi.

Quritish jarayoni bir necha bosqichdan iborat: namlikning gaz oqimidan granula tashqi yuzasiga yetib kelishi, tashqi diffuziya plyonkasi orqali o‘tishi, g‘ovak ichki kanallarida diffuziyalanishi, faol markazlarga adsorbsiyalanishi va muvozanatga yaqinlashishi. Amaliy sharoitda ushbu bosqichlardan eng sekin kechadigani umumiy jarayon tezligini cheklaydi. Masalan, kichik g‘ovaklar adsorbsion sig‘imni oshirishi mumkin, ammo granulalar ichidagi diffuziya qarshiligini kuchaytiradi.

Adsorbsion quritish ekzotermik jarayon hisoblanadi. Suv molekulalari adsorbent yuzasiga birikkanda adsorbsiya issiqligi ajraladi. Qatlam ichidagi harorat ortishi adsorbsiya muvozanatini desorbsiya tomonga siljitishi mumkin. Shuning uchun sanoat adsorberlarida oqimning bir tekis taqsimlanishi, qatlamning termik barqarorligi va regeneratsiyadan keyingi sovitish bosqichi muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Adsorbsion quritish jarayonida namlik molekulalarining harakat bosqichlari va asosiy fizik-kimyoviy hodisalar.

MATERIALLAR VA METODIK YONDASHUV

Adsorbentning g‘ovak tuzilishi quritish jarayonining asosiy fizik omillaridan biridir. Xalqaro tasnifga ko‘ra g‘ovaklar mikrog‘ovak, mezog‘ovak va makrog‘ovaklarga bo‘linadi. Mikrog‘ovaklar suv molekulalarining yuqori energiyali yutilishini ta’minlasa, mezog‘ovaklar molekulalarning granula ichida tarqalishini yengillashtiradi, makrog‘ovaklar esa gaz oqimi va diffuziya kanallari vazifasini bajaradi [3].

Suv molekulasi yuqori dipol momentga ega bo‘lgani sababli gidrofil sirtlarda kuchli yutiladi. Silika va alyumosilikat materiallarda Si–OH, Al–OH, Si–O–Al kabi sirt guruhlari suv molekulalari bilan vodorod bog‘lari hosil qiladi. Seolitlarda esa ion almashinish kationlari, tor va bir xil mikrog‘ovaklar suv molekulalarining selektiv adsorbsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli 3A va 4A molekulyar elaklar tabiiy gazni chuqur quritishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Adsorbent tanlashda faqat namlikni yutish sig‘imi emas, balki quyidagi ko‘rsatkichlar ham hisobga olinadi: granulalarning ezilish mustahkamligi, changlanishga moyilligi, regeneratsiya harorati, suvga selektivlik, uglevodorodlarga nisbatan inertlik, kislota-gaz komponentlariga chidamlilik, ko‘p siklli ishlashda strukturaviy barqarorlik va iqtisodiy qiymat.

1-jadval.


IUPAC tasnifi bo‘yicha adsorbent g‘ovaklari va ularning quritishdagi vazifasi

G‘ovak turi	O‘lcham diapazoni	Fizik-kimyoviy roli	Quritishdagi amaliy ahamiyati

ISSN 3030-3907

Mikrog‘ovak	< 2 nm	Kuchli adsorbsion maydon, g‘ovak to‘lishi	Chuqur quritish, past shudring nuqtasi
Mezog‘ovak	2–50 nm	Ko‘p qatlamli adsorbsiya, kapillyar kondensatsiya	Sig‘im va diffuziya tezligini muvozanatlashtiradi
Makrog‘ovak	> 50 nm	Transport kanallari va tashqi diffuziyani yengillashtirish	Bosim yo‘qotishni kamaytiradi, oqim o‘tishini yaxshilaydi

G‘ovak o‘lchamlari IUPAC tavsiyalariga muvofiq keltirilgan; real adsorbentlarda g‘ovaklar taqsimoti ko‘p modali bo‘lishi mumkin.



2-rasm. Mahalliy mineral xomashyo asosidagi kompozit adsorbentning shartli mikrostrukturasi.

ADSORBSION MUVOZANAT VA IZOTERMALAR


Adsorbsion quritishda muvozanat suv bug‘ining gaz fazadagi parsial bosimi yoki nisbiy namligi bilan adsorbentda yutilgan namlik miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali ifodalanadi. Bunday bog‘liqlik adsorbsiya izotermasi deb yuritiladi. Izoterma ma’lum haroratda adsorbentning qancha namlikni ushlab qolishini, qaysi bosim yoki nisbiy namlik oralig‘ida sig‘im tez ortishini hamda to‘yinishga yaqinlashish xususiyatini ko‘rsatadi.

Langmuir modeli sirtni energetik jihatdan bir jinsli va adsorbsiyani bir qatlamli deb qabul qiladi. Ushbu model qattiq sirtning chekli sonli faol markazlari mavjud bo‘lgan holatlarda qulay: $q = q_{max} \cdot bP/(1+bP)$. Bu yerda q — adsorbsiyalangan namlik miqdori, qmax — maksimal sig‘im, b — muvozanat konstantasi, P — suv bug‘ining parsial bosimi.

ISSN 3030-3907

Freundlich modeli esa energetik jihatdan notekis sirtlarda adsorbsiyani ifodalash uchun ishlatiladi: q = KF·P^(1/n). Bu model kompozit adsorbentlar, tabiiy mineral sorbentlar va turli faol markazlarga ega materiallarda amaliy tavsiflash uchun foydali.

BET modeli ko‘p qatlamli adsorbsiyani tavsiflashda ishlatiladi. Silikagel va mezog‘ovak materiallarda nisbiy namlik ortishi bilan ko‘p qatlamli adsorbsiya hamda kapillyar kondensatsiya kuchayadi. Seolitlarda esa mikrog‘ovaklarning kuchli adsorbsion maydoni sababli past nisbiy namliklarda ham suv molekulalari tez yutilishi mumkin.



3-rasm. Turli adsorbentlarda suv bug‘i adsorbsiyasi izotermalarining shartli ko‘rinish

2-jadval.

Adsorbsion quritishda qo‘llaniladigan asosiy adsorbentlarning qiyosiy tavsifi

Adsorbent	**Strukturaviy xususiyati**	**Afzalligi**	**Cheklanishi**	**Tipik qo‘llanish sohasi**
Silikagel	Mezog‘ovak gidrofil SiO2	Pastroq haroratda regeneratsiyalanadi, namlik sig‘imi yaxshi	Juda chuqur quritishda seolitdan pastroq	Havo va gazlarni o‘rtacha chuqur quritish
Aktivlangan Al2O3	G‘ovak alyumina, termik barqaror	Mexanik mustahkam, sanoatda qulay	Ba’zi holatda qoldiq namlik yuqoriroq qoladi	Tabiiy gaz, havo, texnologik gazlar
3A/4A seolit	Bir xil mikrog‘ovak va kation markazlar	Juda past shudring nuqtasiga erishadi	Regeneratsiya energiyasi yuqori, ifloslanishga sezgir	LNG, NGL, kriogen jarayonlar,

ISSN 3030-3907

				chuqur quritish
Kompozit adsorbent	Mineral + oksid/uglerodli fazalar	Mahalliy xomashyo, narx va xossalarni moslashtirish imkoniyati	Tarkib va granulyatsiyani optimallashtirish zarur	Mahalliy gaz tayyorlash qurilmalari, pilot sinovlar

Keltirilgan tavsiflar adabiyotlar va sanoat amaliyotida uchraydigan umumiy holatlarga asoslangan; aniq ko‘rsatkichlar adsorbent markasi, granulasi va ish rejimiga bog‘liq

NATIJALAR VA MUHOKAMA


Sobit qatlamli adsorberda gaz adsorbent granulalari orasidan o‘tadi va suv bug‘i qatlamning kirish qismidan boshlab yutiladi. Vaqt o‘tishi bilan adsorbentning kirish qismidagi qatlam to‘yinadi, faol adsorbsiya zonasi esa gaz harakati yo‘nalishida siljiydi. Ushbu zona massa uzatish zonasi deb ataladi. Massa uzatish zonasi qanchalik tor va bir tekis bo‘lsa, adsorbent qatlamidan foydalanish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Breakthrough — chiqish gazida namlik konsentratsiyasi ruxsat etilgan chegaradan oshib ketadigan holatdir. Amaliy quritishda breakthrough vaqti adsorberning ishchi davrini belgilaydi. Agar t_b juda qisqa bo‘lsa, adsorbent sig‘imi yetarli emas yoki diffuziya-massa almashinuvi cheklangan bo‘ladi. Agar breakthrough egri chizig‘i keskin ko‘tarilsa, massa uzatish zonasi tor, kinetika tez va qatlam samarali ishlayotganini ko‘rsatadi [8, 9].

Adsorbentning amaliy namlik yutish sig‘imi quyidagi umumiy massaviy balans bilan baholanishi mumkin: q_ish = (Q/m)∫0^tb(C0−C)dt. Bu yerda Q — gaz sarfi, m — adsorbent massasi, C0 — kirishdagi namlik konsentratsiyasi, C — chiqishdagi namlik konsentratsiyasi, tb — breakthrough vaqti. Mazkur ifoda tajriba ma’lumotlarini qayta ishlash va turli adsorbentlarni qiyoslashda qulaydir.

Massa uzatish jarayoniga gaz tezligi, qatlam balandligi, granulalar diametri, g‘ovak tuzilishi, harorat va bosim ta’sir qiladi. Gaz tezligi ortganda kontakt vaqti qisqaradi, lekin tashqi massa almashinuvi koeffitsienti ortishi mumkin. Qatlam balandligi oshganda breakthrough vaqti uzayadi, ammo bosim yo‘qotish ham ortadi. Shu sababli optimal ish rejimi gidrodinamika, massa uzatish va energiya sarfi o‘rtasidagi muvozanat asosida belgilanadi.

ISSN 3030-3907



4-rasm. Sobit qatlamli adsorberda yorib o‘tish egri chizig‘i va massa uzatish zonasi.

3-jadval.

Adsorbsion quritish samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy texnologik omillar

Omil	Ta’sir mexanizmi	Samaradorlikka ta’siri	Optimallashtirish yo‘li
Harorat	Fizik adsorbsiya ekzotermik bo‘lgani uchun T oshsa q kamayadi	Yuqori haroratda ishchi sig‘im pasayadi	Kirish gazini sovitish, regeneratsiyadan keyin qatlamni sovitish
Bosim	Suv bug‘i parsial bosimi va muvozanat holatini o‘zgartiradi	Yuqa sharoitlarda gidrat xavfi va adsorbsiya rejimi o‘zgaradi	Ishchi bosimga mos adsorbent tanlash
Gaz sarfi	Kontakt vaqti va tashqi massa almashinuvi sharoitini belgilaydi	Juda katta sarf breakthrough vaqtini qisqartiradi	Optimal superficial tezlikni tanlash

ISSN 3030-3907


Granula diametri	Diffuziya yo‘li va bosim yo‘qotishni belgilaydi	Mayda granula tez adsorbsiya qiladi, ammo ΔP oshadi	Granulometrik tarkibni standartlash
Qatlam balandligi	Adsorbent zaxirasi va massa uzatish zonasini joylashtiradi	Baland qatlam t_b ni uzaytiradi	H/D nisbatini texnologik hisob bilan tanlash
Regeneratsiya darajasi	Qoldiq namlik keyingi sikl sig‘imini belgilaydi	To‘liq bo‘lmagan regeneratsiya sig‘imni kamaytiradi	TSA harorati, gaz sarfi va vaqtini boshqarish

Sanoat qurilmalarida adsorbsion quritish ko‘pincha ikki yoki uch adsorberli siklik sxemada olib boriladi. Bir adsorber nam gazni quritayotgan vaqtda ikkinchisi regeneratsiya qilinadi, uchinchisi esa sovitish yoki zaxira rejimida bo‘lishi mumkin. Bunday almashinuvchi rejim uzluksiz ishlab chiqarish uchun zarur.

Nam gaz kirish separatori va filtr-separatordan o‘tgach adsorberning yuqori yoki pastki qismidan kiritiladi. Gaz adsorbent qatlamidan o‘tishda suv bug‘idan tozalanadi. Quruq gaz chiqish liniyasida shudring nuqtasi yoki qoldiq namlik nazorat qilinadi. Namlik belgilangan chegaraga yaqinlashganda adsorber ishchi rejimdan chiqariladi va regeneratsiyaga yuboriladi.

Regeneratsiya uchun quruq gazning bir qismi isitiladi va to‘yingan adsorbent qatlamidan qarama-qarshi yo‘nalishda o‘tkaziladi. Qizdirilgan gaz adsorbsiyalangan suv molekulalarini desorbsiya qiladi. Keyin qatlam sovitiladi va yana adsorbsiya bosqichiga qaytariladi. Ushbu siklning to‘g‘ri tashkil etilishi quritish sifatini, adsorbent xizmat muddatini va energiya sarfini belgilaydi.

ISSN 3030-3907



5-rasm. Ikki adsorberli adsorbsion quritish qurilmasining prinsipial texnologik sxemasi.


ISSIQLIK EFFEKTI VA REGENERATSIYA JARAYONI.

Adsorbsion quritishda suv molekulalari adsorbent sirtiga birikishi natijasida issiqlik ajraladi. Bu issiqlik adsorbent qatlamida harorat frontini hosil qiladi. Agar issiqlik o‘z vaqtida chiqarilmasa yoki qatlamda harorat keskin ortsa, adsorbsion sig‘im kamayadi. Ayniqsa, yuqori suv bug‘i konsentratsiyasida va katta qatlamli adsorberlarda issiqlik effekti jarayonni cheklovchi omilga aylanishi mumkin.

Regeneratsiya desorbsiya jarayonini jadallashtirish uchun adsorbentga issiqlik berishga asoslanadi. Harorat ko‘tarilganda suv molekulalarining adsorbent bilan o‘zaro ta’siri zaiflashadi, ularning bug‘ fazaga o‘tishi osonlashadi. Shu bilan birga haddan tashqari yuqori harorat adsorbentning strukturaviy degradatsiyasi, bog‘lovchi moddaning yemirilishi va granulalarning changlanishiga olib kelishi mumkin.

TSA siklida odatda to‘rtta bosqich farqlanadi: adsorbsiya, qizdirish, desorbsiya va sovitish. Qizdirish va desorbsiya bosqichlari energiya sarfining asosiy qismini tashkil etadi. Sovitish bosqichi esa keyingi adsorbsiya davrida yuqori sig‘imni ta’minlash uchun zarur. Agar adsorbent yetarlicha sovitilmasa, ishchi qatlam boshlang‘ich harorati yuqori bo‘ladi va breakthrough tezlashadi.

ISSN 3030-3907



6-rasm. TSA regeneratsiya siklining harorat profili va asosiy bosqichlari.

4-jadval.

Regeneratsiya bosqichlarining fizik-kimyoviy mazmuni

Bosqich	**Asosiy jarayon**	**Nazorat qilinadigan ko‘rsatkich**	**Kutiladigan natija**
Qizdirish	Adsorbent qatlamiga issiqlik berish	Regeneratsiya gazi harorati, vaqt	Suv-adsorbent bog‘lanishi zaiflashadi
Desorbsiya	Suv molekulalarining sirt va g‘ovaklardan chiqishi	Chiqish gazidagi H2O miqdori	Adsorbent qoldiq namligi kamayadi
Sovitish	Qatlamni ishchi haroratga tushirish	Chiqish harorati, sovitish gazi sarfi	Keyingi sikl uchun yuqori sig‘im tiklanadi
Qayta ulash	Adsorberni ishchi liniyaga qaytarish	Shudring nuqtasi, bosim, oqim	Uzluksiz quritish rejimi ta’minlanadi

XULOSA.

Adsorbsion quritish gaz yoki suyuq muhit tarkibidagi suv bug‘i molekulalarini qattiq adsorbent sirtida va g‘ovaklarida ushlab qolishga asoslangan murakkab fizik-kimyoviy jarayondir.

2. Jarayonning asosiy mohiyati tashqi diffuziya, g‘ovak ichki diffuziyasi, faol markazlarda adsorbsiya, adsorbsion muvozanat va regeneratsiya bosqichlarining uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

3. Adsorbentning solishtirma sirt yuzasi, g‘ovaklar taqsimoti, gidrofilligi, mexanik mustahkamligi va regeneratsiyalanish qobiliyati quritish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir.

ISSN 3030-3907

4. Sobit qatlamli adsorberlarda breakthrough vaqti va massa uzatish zonasi adsorbentning amaliy ishchi sig‘imini baholashda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

5. Seolit molekulyar elaklar chuqur quritishda, silikagel va aktivlangan alyuminiy oksidi esa turli sanoat sharoitlarida qo‘llashda muhim ahamiyatga ega. Mahalliy mineral xomashyo asosidagi kompozit adsorbentlar esa iqtisodiy va texnologik jihatdan istiqbolli yo‘nalishdir.

6. Adsorbsion quritish jarayonini chuqur o‘rganish tabiiy gaz sifatini oshirish, gidrat va korroziya xavfini kamaytirish, qurilma energiya samaradorligini yaxshilash va import o‘rnini bosuvchi adsorbentlar yaratish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pall Corporation. Adsorbent Dehydration — Natural Gas. Technical information page. URL: https://www.pall.com/en/oil-gas/solutions/adsorbent-dehydration.html

2. IUPAC. Manual of symbols and terminology for physicochemical quantities and units: definitions of physisorption and chemisorption. URL: https://old.iupac.org/reports/2001/colloid_2001/manual_of_s_and_t/node16.html

3. Thommes M., Kaneko K., Neimark A.V., Olivier J.P., Rodriguez-Reinoso F., Rouquerol J., Sing K.S.W. Physisorption of gases, with special reference to the evaluation of surface area and pore size distribution. Pure and Applied Chemistry. 2015. Vol. 87. P. 1051–1069.

4. Pierotti R.A., Rouquerol J., Sing K.S.W. Reporting physisorption data for gas/solid systems with special reference to the determination of surface area and porosity. Pure and Applied Chemistry. 1985. Vol. 57. P. 603–619.

5. Ruthven D.M. Principles of Adsorption and Adsorption Processes. New York: Wiley, 1984. 464 p.

6. Yang R.T. Adsorbents: Fundamentals and Applications. Hoboken: Wiley-Interscience, 2003. 410 p.

7. Yang R.T. Gas Separation by Adsorption Processes. Boston: Butterworths, 1987. 352 p.

8. Farag H.A.A., Ezzat M.M., Amer H., Nashed A.W. Natural gas dehydration by desiccant materials. Alexandria Engineering Journal. 2011. Vol. 50. No. 4. P. 431–439.

9. Patel H. Fixed-bed column adsorption study: a comprehensive review. Applied Water Science. 2019. Vol. 9. Article 45.

10. Dynamic Sorption. Breakthrough curves and breakthrough measurement. URL: https://www.dynamicsorption.com/dynamic-sorption-method/breakthrough-measurement/

ISSN 3030-3907

11. EMIS-VITO. Adsorption based dehydration: technology factsheet. URL: https://emis.vito.be/nl/tools/mapitccu/technologies/adsorption-based-dehydration
12. Kohl A.L., Nielsen R.B. Gas Purification. 5th ed. Houston: Gulf Publishing Company, 1997. 1395 p.
13. GPSA Engineering Data Book. Gas Processors Suppliers Association. Latest industrial editions.
14. Breck D.W. Zeolite Molecular Sieves: Structure, Chemistry, and Use. New York: Wiley, 1974. 771 p.
15. Rouquerol F., Rouquerol J., Sing K.S.W., Llewellyn P., Maurin G. Adsorption by Powders and Porous Solids: Principles, Methodology and Applications. 2nd ed. Oxford: Academic Press, 2014.
16. Gregg S.J., Sing K.S.W. Adsorption, Surface Area and Porosity. 2nd ed. London: Academic Press, 1982. 303 p.
17. Crittenden B., Thomas W.J. Adsorption Technology and Design. Oxford: Butterworth-Heinemann, 1998. 288 p.
18. Foo K.Y., Hameed B.H. Insights into the modeling of adsorption isotherm systems. Chemical Engineering Journal. 2010. Vol. 156. P. 2–10.
19. Seader J.D., Henley E.J., Roper D.K. Separation Process Principles. 4th ed. Hoboken: Wiley, 2016.
20. Perry R.H., Green D.W. Perry's Chemical Engineers' Handbook. 8th ed. New York: McGraw-Hill, 2008.

ISSN 3030-3907

UDK: 665.58:661.187.2:615.322

O‘SIMLIK EKSTRAKTLARI BILAN BOYITILGAN ATIR SOVUNLARNING ANTIOKSIDANT VA MIKROBIOLOGIK BARQARORLIGINI TADQIQ ETISH

S.N. Shodiyeva
Buxoro davlat texnika universiteti.
N.K. Majidova
Buxoro davlat texnika universiteti.
E-maill: s9978139@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘simlik ekstraktlari bilan boyitilgan atir sovunlarning antioksidant salohiyati, mikrobiologik barqarorligi va sifat ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, fenolik birikmalar, flavonoidlar, organik kislotalar va ayrim efir moylari sovun tarkibida ikki tomonlama funksiyani bajarishi mumkin: ular erkin radikallarni neytrallashga yordam beradi va ma’lum darajada mikroorganizmlar o‘sishini cheklaydi. Biroq tabiiy xomashyoning murakkab tarkibi, partiyalararo o‘zgaruvchanligi, allergenlar, og‘ir metallar, pestitsid qoldiqlari va mikrobiologik kontaminatsiya xavfi sababli bunday mahsulotlar standartlashtirilgan xavfsizlik nazoratisiz bozorga chiqarilmasligi kerak. Maqolada DPPH/ABTS/FRAP, umumiy fenolik modda (TPC), pH, ko‘piklanish, umumiy yog‘ kislotalari miqdori, erkin ishqor, namlik, umumiy mikroblar soni, patogen mikroorganizmlar yo‘qligi va ISO 11930 challenge-test mezonlari asosida kompleks baholash modeli taklif etildi.

Kalit so‘zlar: atir sovun, o‘simlik ekstrakti, antioksidant faollik, DPPH, umumiy fenollar, mikrobiologik barqarorlik, ISO 11930, ISO 17516, tabiiy kosmetika.

Аннотация. В статье выполнен современный обзор научных подходов к оценке антиоксидантной активности, микробиологической стабильности и физико-химического качества туалетного мыла, обогащённого растительными экстрактами. Анализ литературы показывает, что фенольные соединения, флавоноиды, органические кислоты и отдельные эфиромасличные компоненты могут выполнять двойную функцию: снижать радикальную нагрузку и частично ограничивать рост микроорганизмов. Однако природное происхождение ингредиента не является доказательством его безопасности. Для таких продуктов необходимы стандартизация сырья, контроль аллергенов, тяжёлых металлов, пестицидов, микробной контаминации и подтверждение срока годности. Предложена комплексная модель исследования, включающая TPC, DPPH/ABTS/FRAP, pH, TFM, свободную щёлочь, влажность, общее

микробное число, отсутствие специфических патогенов и challenge-test по ISO 11930.

Ключевые слова: туалетное мыло, растительный экстракт, антиоксидантная активность, DPPH, общие фенолы, микробиологическая стабильность, ISO 11930, ISO 17516, натуральная косметика.

Abstract. The article analyzes modern scientific approaches to assessing the antioxidant potential, microbiological stability, and quality indicators of perfumed soaps enriched with plant extracts. A review of the literature shows that phenolic compounds, flavonoids, organic acids and certain essential oils can perform a double function in soap: they help neutralize free radicals and to some extent limit the growth of microorganisms. However, due to the complex composition of natural raw materials, inter-batch variability, allergens, heavy metals, pesticide residues, and the risk of microbiological contamination, such products should not be released to the market without standardized safety controls. The paper proposed a comprehensive assessment model based on DPPH/ABTS / FRAP, total phenolic substance (TPC), pH, foaming, total fatty acid content, free alkali, moisture, total microbial count, absence of pathogenic microorganisms, and ISO 11930 challenge-test criteria.

Keywords: perfumed soap, plant extract, antioxidant activity, DPPH, total phenols, microbiological stability, ISO 11930, ISO 17516, natural cosmetics.

1. KIRISH.

Atir sovun kosmetik-gigiyenik mahsulot sifatida teri yuzasini tozalash, hidni yaxshilash, mikrofloraning ortiqcha ko‘payishini cheklash va iste’molchiga qulay sensor xususiyatlar berishga xizmat qiladi. An’anaviy sovunlar yuqori pH, sirt-faol xususiyat va yog‘ kislotalari tuzlari hisobiga tozalash samaradorligini ta’minlaydi. So‘nggi yillarda esa sovun retsepturalariga o‘simlik ekstraktlari, tabiiy rang beruvchilar, polifenollarga boy komponentlar, efir moylari va biopolimerlar qo‘shish tendensiyasi kuchaydi. Bunday yondashuv mahsulotni “clean-label”, ekologik va funksional kosmetika talablari bilan uyg‘unlashtiradi.

O‘simlik ekstraktlarining kosmetikada qo‘llanishi faqat marketing emas, balki fitokimyoviy asosga ega. Polifenollar, flavonoidlar, karotinoidlar, askorbin kislota, tokoferollar, terpenoidlar va taninlar oksidlanish jarayonlarini sekinlashtirishi, teri yuzasida erkin radikal bosimini kamaytirishi va ayrim mikroorganizmlar o‘sishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4,6]. Shu bilan birga, sovun matritsasi murakkab: yuqori ishqoriy muhit, surfaktantlar, hid beruvchi moddalarning uchuvchanligi va saqlashdagi namlik almashinuvi ekstraktning real faoliyatiga ta’sir qiladi.

Mikrobiologik barqarorlik masalasi ayniqsa muhimdir. Qattiq sovunlar odatda suv faolligi pastligi va ishqoriy muhit sabab past mikrobiologik xavfli

ISSN 3030-3907

mahsulotlar qatoriga kiradi. Biroq o‘simlik kukuni yoki suvli ekstraktlar qo‘shilishi organik modda miqdorini oshiradi, namlikni ushlab turishi mumkin va ishlab chiqarish jarayonida kontaminatsiya ehtimolini kuchaytiradi. Shu sababli tayyor sovun nafaqat organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar, balki umumiy mikroblar soni, patogenlar yo‘qligi va challenge-test natijalari bo‘yicha ham baholanishi zarur [5,8,9].

Maqolaning maqsadi — o‘simlik ekstraktlari bilan boyitilgan atir sovunlarning antioksidant va mikrobiologik barqarorligini baholash uchun ilmiy asoslangan IMRAD modeli, tahliliy mezonlar va tajriba-sinov dizaynini ishlab chiqishdir.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI.

Zamonaviy kosmetika adabiyotlarida o‘simlik ekstraktlari tabiiy antioksidant, terini parvarishlovchi va barqarorlashtiruvchi ingredient sifatida ko‘rib chiqiladi. 2024-yilgi sharhlarda kosmetik mahsulotlar uchun polifenollar, flavonoidlar, vitaminlar, stilbenlar va metilksantinlar antioksidant manba sifatida alohida qayd etiladi [4]. Bu moddalarning asosiy ta’siri vodorod atomini berish, radikallarni bog‘lash, metal ionlarini xelatlash va oksidlanish zanjirini uzish bilan izohlanadi.

Herbal soap bo‘yicha amaliy tadqiqotlarda ekstraktning fenolik tarkibi va DPPH bo‘yicha faolligi asosiy indikator sifatida qo‘llanmoqda. Zaiton va hamkorlari Averrhoa bilimbi bargi va Flos lonicerae ekstraktlari qo‘shilgan sovunlarda TPC, DPPH IC50, pH, og‘ir metallar va antibakterial sinovlarni baholagan. Ularning ma’lumotiga ko‘ra, Averrhoa bilimbi barg ekstraktida TPC 24,49 mg GAE/g, Flos lonicerae ekstraktida 4,96 mg GAE/g bo‘lgan; DPPH IC50 esa mos ravishda 0,0588 va 0,0315 g/mL atrofida qayd etilgan [1]. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, fenolik tarkib yuqori bo‘lishi har doim ham eng past IC50 bilan mutlaq mos kelmasligi mumkin, chunki antioksidant faollikka molekulyar tuzilma, erituvchi, ekstraksiya sharoiti va matritsa ta’siri ham qo‘shiladi.

Savdo sovunlari bo‘yicha 2025-yilda chop etilgan Heliyon maqolasi bar va suyuq sovunlarning pH, namlik, ko‘pik balandligi, TFM, erkin ishqor, inhibisiya zonasi va antioksidant faolligini kompleks baholagan. Tadqiqotda pH 7,01–10,17, ko‘pik balandligi 6,83–25,16 cm, TFM 62,47–91,39% oralig‘ida bo‘lgani ko‘rsatilgan [2]. Ushbu diapazonlar atir sovun yaratishda pH va erkin ishqorni me’yorlash, ko‘piklanish hamda yog‘ kislotalari profilini saqlash muhimligini tasdiqlaydi.

Nowruzi va Alibabaei tomonidan olib borilgan tadqiqotda chitosan bilan mikroenkapsulyatsiyalangan fikobiliprotein — phycoerythrin — qattiq sovun va lab bo‘yog‘i retsepturasiga kiritilgan. Mualliflar PE bilan boyitilgan mahsulotlarda antioksidant faollik yuqoriligi, mikroblar soni pastligi, rang

ISSN 3030-3907


barqarorligi va teri sezgirligi bo‘yicha ijobiy natijalar qayd etilganini ko‘rsatgan [3]. Bu ish biologik faol moddaning bevosita qo‘shilishidan tashqari, mikroenkapsulyatsiya va biopolimer tashuvchi tizimlar ham barqarorlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Tabiiy kosmetik ingredientlar xavfsizligi bo‘yicha 2024-yilgi review maqola “tabiiy” kelib chiqish ingredientning avtomatik xavfsizligini anglatmasligini ta’kidlaydi. Mualliflar mikrobiologik kontaminantlar (E. coli, P. aeruginosa, S. aureus, Candida albicans), og‘ir metallar, pestitsidlar, allergenlar va teri sensibilizatsiyasi xavfini baholash zarurligini ko‘rsatadi [5]. Shu sababli o‘simlik ekstraktli sovunlar uchun ham xomashyo pasporti, ekstrakt standartlash, saqlash sharoiti va yakuniy mahsulot xavfsizligi hujjatlashtirilishi lozim.

Flavonoidlar antibakterial mexanizmlariga bag‘ishlangan 2025-yilgi reviewda membrana va hujayra devorini shikastlash, nuklein kislotalar va oqsil sintezini susaytirish, energiya almashinuviga ta’sir, efflyuks nasoslarini bloklash hamda biofilm hosil bo‘lishini cheklash asosiy yo‘nalishlar sifatida umumlashtiriladi [6]. Sovun sharoitida bunday mexanizmlar surfaktant ta’siri bilan qo‘shilib, umumiy antimikrob ta’sirni kuchaytirishi mumkin.




1-rasm. Ekstraktli atir sovun yaratish va baholashning umumiy algoritmi.



2-rasm. Averrhoa bilimbi va Flos lonicerae ekstraktlarida TPC qiymatlari [1].

ISSN 3030-3907



3-rasm. DPPH IC50 qiymatlari; past IC50 kuchliroq radikal tutish salohiyatini bildiradi [1].

3. MATERIALLAR VA METODLAR.

Ushbu maqola ilmiy-tahliliy review va tajriba dizayni ko‘rinishida tayyorlandi. Maqolada 2022–2025-yillarda chop etilgan ochiq manbali ilmiy maqolalar, xalqaro ISO standartlari va kosmetik mahsulotlar xavfsizligiga oid reglamentlar tahlil qilindi. Baholash obyekti sifatida atir sovunning qattiq shakli va unga kiritiladigan o‘simlik ekstraktlari nazarda tutiladi.

Mahalliy xomashyo sifatida uzum danagi va po‘sti, anor po‘sti, yalpiz, rayhon, moychechak, kalendula, lavanda, qizilmiya ildizi, choy chiqindisi va efir moyli o‘simliklardan olinadigan ekstraktlar istiqbolli hisoblanadi. Ekstraksiya uchun suv, 40–70% etanol, glitserin-suv aralashmasi yoki CO2-ekstraksiya kabi usullar tanlanishi mumkin. Sovun uchun ekstrakt tanlashda erituvchining xavfsizligi, hidga ta’siri, rang barqarorligi, pHga chidamlilik va qayta kristallanish xavfi hisobga olinadi.

Tajriba dizaynida nazorat namunasi (F0) va ekstraktning 0,5; 1,0; 2,0; 3,0 va 5,0% miqdorida qo‘shilgan variantlari (F1–F5) olinadi. Har bir variantda pH, namlik, erkin ishqor, umumiy yog‘ kislotalari miqdori (TFM), ko‘piklanish, qattiqlik, yuvilish sarfi, rang koordinatalari, hid barqarorligi va sensor qabul qilinish baholanadi.

Antioksidant faollik DPPH, ABTS va FRAP usullari bilan tekshiriladi. DPPH testining afzalligi tez, nisbatan arzon va o‘simlik ekstraktlari uchun keng qo‘llanilishidadir [7]. Biroq bitta test yetarli emas: rangli va xushbo‘y ekstraktlar spektrofotometrik fon berishi mumkin. Shu sababli natijalar kamida ikkita usul bilan tekshirilishi, Trolox yoki askorbin kislota ekvivalenti bo‘yicha standartlashtirilishi lozim.

ISSN 3030-3907

Mikrobiologik barqarorlik umumiy aerob mikroblar soni, achitqi va mog‘orlar soni, E. coli, S. aureus, P. aeruginosa va C. albicans yo‘qligi bo‘yicha tekshiriladi. ISO 17516 kosmetika mahsulotlarining mikrobiologik sifatini baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, ayrim past xavfli mahsulotlar uchun rutin sinovlar yengillashtirilishi mumkin [9]. Agar mahsulot suvli ekstrakt, yuqori namlik yoki ko‘p organik qo‘shimchaga ega bo‘lsa, ISO 11930 bo‘yicha konservatsiya samaradorligi/challenge-test tavsiya etiladi [8].

1-jadval.

Ekstraktli atir sovun uchun tavsiya etilgan tajriba formulalari

Variant	Ekstrakt, %	Tavsif	Tadqiqot maqsadi
F0	0	An’anaviy atir sovun asosi	Nazorat
F1	0,5	Ekstraktning minimal funksional dozasi	Rang/hidga kam ta’sir
F2	1,0	Tavsiya etiladigan boshlang‘ich doza	TPC va DPPH o‘sishi kutiladi
F3	2,0	O‘rta funksional doza	Antioksidant va antimikrob ta’sir kuchayadi
F4	3,0	Yuqori doza	Sensor ta’m/hid va rang cheklovlari tekshiriladi
F5	5,0	Chegara doza	pH, qattiqlik, rang va irritatsiya xavfi baholanadi


2-jadval.

Baholash ko‘rsatkichlari va ularning ilmiy ahamiyati

Ko‘rsatkich	Usul	Ahamiyati
TPC	Folin–Ciocalteu, mg GAE/g	Fenolik moddalarning umumiy miqdori
DPPH/ABTS/FRAP	IC50 yoki Trolox ekvivalenti	Radikal tutish va qaytaruvchanlik salohiyati
pH	1% sovun eritmasida pH-metr	Teri bilan moslik va erkin ishqor xavfi
TFM	Titrlash/gravimetrik usul	Yog‘ kislotalari tuzlari va sovun sifati
Mikrobial limitlar	ISO 17516 mezonlari	Tayyor mahsulot xavfsizligi

ISSN 3030-3907

Challenge-test	ISO 11930 bo‘yicha 28 kun	Konservatsiya samaradorligi va shelf-life asoslash



4-rasm. ISO 11930 prinsiplariga mos challenge-test nazorat nuqtalari: 0, 2, 7, 14 va 28-kunlarda mikroblar soni qayd etiladi [5,8].

4. NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Adabiyotlar tahlili o‘simlik ekstraktli sovunlar samaradorligini uchta blokda baholash zarurligini ko‘rsatadi: fitokimyoviy potensial, sovun matritsasidagi texnologik barqarorlik va mikrobiologik xavfsizlik. Fenolik birikmalar miqdori yuqori bo‘lgan ekstraktlar odatda kuchli antioksidant salohiyatga ega bo‘ladi, lekin sovun pHsi, ishqoriy muhit va ishlab chiqarish harorati ayrim polifenollarni parchalanishga olib kelishi mumkin. Shu sababli ekstrakt pH 8–10 oralig‘ida, 40–60 °C ishlov sharoitida va saqlash davrida sinovdan o‘tkazilishi lozim.

Sovunga qo‘shilgan ekstraktning optimal dozasi faqat DPPH qiymati bilan emas, balki umumiy sifat balansiga qarab belgilanadi. Masalan, 0,5–1,0% dozada rang va hid yengil bo‘lishi mumkin, lekin antioksidant indikatorlar sezilarli oshmasligi ehtimoli bor. 2,0–3,0% oralig‘ida funksional ta’sir kuchayadi, ammo ko‘piklanish, qattiqlik va sensor qabul qilinish pasayishi mumkin. 5,0% va undan yuqori dozalarda ekstrakt zarralari sovunning mexanik mustahkamligini kamaytirishi, namlikni ushlab qolishi va saqlashda dog‘lanish keltirib chiqarishi mumkin.


Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda izopren kauchuk va stiren asosida oleogel sintez qilinib, uning tuzilishi va element tarkibi kompleks ravishda o‘rganildi. Oleogel radikal polimerlanish jarayoni orqali benzoil peroksid ishtirokida hosil qilinib, geksametilendiamin yordamida choklangan. Sintez jarayonida harorat va vaqt omillari qat’iy nazorat qilindi, natijada bir jinsli polimer tizimi olindi. Olingan namunalar skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) yordamida tahlil qilinib, zich va tartibsiz uch o‘lchamli tarmoq struktura shakllangani aniqlandi. Energiya-dispersiv rentgen spektroskopiya (EDX) natijalari asosida namunada asosan uglerod, azot va kislorod elementlari mavjudligi tasdiqlandi. Uglerodning yuqori ulushi materialning organik-polimer tabiatini ko‘rsatadi, azot esa choklanish jarayonida faol qatnashganini bildiradi. Kislorodning kam miqdori oksidlanish darajasi pastligini anglatadi. Ushbu natijalar oleogelning tuzilishi va xossalarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Oleogel, izopren kauchuk, stiren, radikal polimerlanish, choklanish, benzoil peroksid, geksametilendiamin, SEM, EDX, morfologiya, polimer tarmoq, element tarkibi, organik material, mikrostrukturaviy tahlil.

Аннотация. В данном исследовании синтезирован олеогель на основе изопренового каучука и стирола, а также комплексно изучены его структура и элементный состав. Олеогель был получен методом радикальной полимеризации в присутствии пероксида бензоила и сшит с использованием гексаметилендиамина. В ходе синтеза строго контролировались факторы температуры и времени, в результате чего была получена однородная полимерная система. Полученные образцы были проанализированы методом сканирующей электронной микроскопии (СЭМ), в результате чего было установлено формирование плотной и неупорядоченной трёхмерной сетчатой структуры. На основе результатов энергодисперсионной рентгеновской спектроскопии (ЭДС) было подтверждено, что в образце присутствуют в основном углерод, азот и кислород. Высокая доля углерода

ISSN 3030-3907

указывает на органико-полимерную природу материала, а наличие азота свидетельствует о его активном участии в процессе сшивки. Низкое содержание кислорода означает невысокую степень окисления. Полученные результаты имеют важное значение для понимания структуры и свойств олеогеля.

Ключевые слова: олеогель, изопреновый каучук, стирол, радикальная полимеризация, сшивка, пероксид бензоила, гексаметилендиамин, СЭМ, ЭДХ, морфология, полимерная сетка, элементный состав, органический материал, микроструктурный анализ.

Abstract. This study details the synthesis of an oleogel based on isoprene rubber and styrene, along with a comprehensive investigation of its structure and elemental composition. The oleogel was prepared via radical polymerization in the presence of benzoyl peroxide and cross-linked with hexamethylenediamine. Temperature and time factors were strictly controlled during synthesis, yielding a homogeneous polymer system. The resulting samples were analyzed by scanning electron microscopy (SEM), which revealed the formation of a dense, disordered, three-dimensional network structure. Based on the results of energy-dispersive X-ray spectroscopy (EDS), it was confirmed that the sample consists primarily of carbon, nitrogen, and oxygen. The high proportion of carbon indicates the material's organic polymer nature, while the presence of nitrogen confirms its active participation in the cross-linking process. The low oxygen content signifies a low degree of oxidation. The results obtained are important for understanding the structure and properties of the oleogel.

Keywords: oleogel, isoprene rubber, styrene, radical polymerization, cross-linking, benzoyl peroxide, hexamethylenediamine, SEM, EDX, morphology, polymer network, elemental composition, organic material, microstructural analysis.

KIRISH.

Hozirgi kunda sanoat korxonalarida hosil bo‘layotgan chiqindi suvlarning tarkibida neft mahsulotlari, yog‘-moy komponentlari hamda boshqa gidrofob ifloslantiruvchi moddalar miqdorining ortib borishi ekologik muammolarning keskinlashuviga olib kelmoqda. Bunday ifloslantiruvchilar suv muhitida uzoq saqlanib, biologik parchalanishga chidamliligi bilan ajralib turadi hamda suv resurslarining sifatini yomonlashtiradi. Shu sababli, chiqindi suvlarni samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul usullar bilan tozalash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy tozalash usullari, jumladan, mexanik, kimyoviy va biologik metodlar har doim ham yuqori samaradorlikni ta’minlay olmaydi, ayniqsa, emulsiyalangan yog‘lar va neft mahsulotlarini ajratishda ularning imkoniyatlari

ISSN 3030-3907

cheklangan. Shu nuqtai nazardan, yangi turdagi funksional materiallar, xususan, oleogellarni qo‘llash istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Oleogellar — bu suyuq yog‘larni gelatorlar yordamida uch o‘lchamli fazoviy tarmoqqa immobilizatsiya qilish orqali hosil qilingan tizimlar bo‘lib, ular yuqori sorbsion qobiliyat, selektivlik hamda strukturaviy barqarorlik kabi muhim xossalarga ega. Ushbu materiallarning gidrofob tabiatga egaligi ularni suv tarkibidagi yog‘ va neft mahsulotlarini samarali ajratib olishda qo‘llash imkonini beradi. Bundan tashqari, oleogellar qayta tiklanishi, ekologik xavfsizligi va nisbatan arzon xom ashyolardan olinishi bilan ajralib turadi.

So‘nggi yillarda oleogellarning strukturaviy xususiyatlari, sorbsion sig‘imi hamda turli sharoitlarda ishlash samaradorligini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, ularning chiqindi suvlarni tozalash jarayonidagi kinetikasi, mikrostrukturasi va tashqi omillarga bog‘liqligi yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa, oleogellarning sorbsiya mexanizmi va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi sanoat chiqindi suvlarini tozalashda oleogellar asosidagi yangi, samarali va ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Oleogellarning strukturaviy va sorbsion xususiyatlarini o‘rganish, ularning chiqindi suv tarkibidagi yog‘-moy va neft mahsulotlarini ajratib olishdagi samaradorligini baholash hamda optimal qo‘llash sharoitlarini aniqlashga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda neft-kimyo zavodlarida bir necha million tonna neft loyi to‘plangan. Neftni qayta ishlash chiqindilari oqava suvlarni tozalash, suvni qayta ishlash tizimida, burg‘ulash, neftni tayyorlash va rezervuarlarni tozalash paytida hosil bo‘ladi. Atrof-muhitning yomonlashuvining iqtisodiyotga ta’siri tufayli suvni yaxshiroq tozalash texnologiyalariga talab har yili ortib bormoqda va kengayib bormoqda. Oqova suvlarni atrof-muhit uchun tozalash tirik organizm uchun paydo bo‘layotgan muammodir. Ushbu maqolada eng mashhur oqava suvlarni tozalash usullari muhokama qilinadi va birlashish jarayoniga, ya’ni membrana birlashishlariga e’tibor qaratiladi [1]. Har doim neftning to‘kilishi atrof-muhit, tabiat va jamiyat uchun jiddiy va dahshatli oqibatlarga olib keladi, bunday oqibatlarni bartaraf etish uchun ko‘p vaqt va ijtimoiy-iqtisodiy resurslar sarflanadi. Darhaqiqat, sorbentlar to‘kilgan neftni qayta ishlash jarayonlarida juda muhim rol o‘ynashi aniqlandi. So‘nggi paytlarda neftni qayta ishlash qobiliyatini oshirish uchun ko‘plab ilg‘or sorbentlar va sorbentlarga asoslangan neft yig‘ish qurilmalari/texnologiyalari ishlab chiqildi [2]. To‘kilgan neft tufayli atrof-muhitning ifloslanish xavfi neft qidiruv ishlarining kengayishi, dengiz faoliyatining rivojlanishi va sanoat o‘sishi bilan birga tez sur’atlar bilan ortib

ISSN 3030-3907

bormoqda. Neft to‘kilishini tiklash usullari orasida g‘ovakli materiallar to‘kilgan neftni tez sur’atda yutish qobiliyatiga, yuqori adsorbsiya qobiliyatiga, yaxshi selektivlikka va yuqori qayta foydalanishga ega potensial yutuvchi moddalar sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu sharh maqolasida neft bilan ifloslangan suvni tozalash strategiyasi uchun ikki turdagi polimer asosidagi g‘ovakli yutuvchi moddalar kiritildi, ular yuzasi va tuzilishini o‘zgartirdi [3].

Ushbu tadqiqot suv havzalarini neft va neft mahsulotlari ifloslanishidan tozalash uchun butadien-stirol kauchuk va malein-an-gidrid asosidagi oleogellarning sintezi haqida ma’lumot beradi. Olingan oleogellarning fizik-kimyoviy xossalari ham o‘rganildi. Sintez jarayonida qo‘llaniladigan boshlang‘ich materiallar nisbatining oleogelning parchalanish xususiyatlariga ta’siri o‘rganildi. Aniqlanishicha, BSK asosidagi oleogel tarkibiga 0,5% dan ortiq jelleştiruvchi vosita qo‘shilishi yog‘ning so‘rilishini pasayishiga olib keladi. Olingan oleogellarning xossalari IQ (infraqizil) spektroskopiya yordamida tekshirildi [4].

O‘z-o‘zidan shishib ketadigan oleogel moyni polimer tarmoqlariga singdiradi. Bu gellar tarkibiga alkilstirol va divinilbenzol (Dow Chemical) o‘zaro bog‘langan metakrilat tipidagi polimerlarning kopolimeri kiradi. Keyinchalik, turli xil moylarga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan o‘zaro bog‘langan uzun zanjirli poliakrilatlardan tayyorlangan oleogellar ishlab chiqildi. Ushbu oleogellarning noyob funksiyalari tufayli oddiy moyni qayta ishlashdan tashqari boshqa sohalarda ham qo‘llanilishi ishlab chiqilmoqda [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Biz sintez qilgan oleogel olish uchun bizga kerak, yuqori haroratga chidamli 250 ml hajmli tubi yassi kolba, haroratni nazorat qilish uchun 200℃ termometr, temperaturani stabilni ushlab turish maqsadida moy hamom va pech hamda qaytarma sovitgich orqali reaksiya olib boriladi, Izopren kauchuk (SKI) 10% li eritmasi tayyorlandi. Dastlab kauchuklarni stirolda eritma holatiga o‘tkazildi. Arlashma 4-5 sutka xona haroratida shisha tayoqcha bilan aralashtirib eritildi. Hosil bo‘lgan eritmani 250 ml tubi yasi kolbaga solinadi va eritma solingan kolbaga qaytarma sovitgich o‘rnatilgandan so‘ng pechda turgan moy hammomiga tushiriladi, so‘ng haroratni 80-90℃ temperaturada 40 daqiqa ushlab turiladi so‘ngra unga choklovchi modda sifatida geksametilendiamin 0,5 gram qo‘shiladi inisiatir sifatida benzoil peroksid. 0,2 gramda qo‘shildi. Reaksiya jarayoni 80-90 oralig‘ida 8 soat davomida olib borildi, biz uni User Manual pechida 70℃ da 24 soat davomida quritib olindi.


NATIJALAR VA MUHOKAMA QISMI.

Sintez qilib olingan Oleogel namunasi skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) va energiya dispersive roentgen spektroskopiyasi (EDX) yordamida

ISSN 3030-3907

kompleks o‘rganildi. Tadqiqot natijalari asosida materialning morfologik tuzilishi hamda element tarkibi aniqlandi.


1-rasmda namunadagi mikrostrukturaviy holat, sirt morfologiyasi va fazaviy bir jinslilik darajasi aks etgan bo‘lib, strukturaviy elementlarning sirt yuzasi bo‘ylab tarqalishi va yuzaning umumiy topografiyasi kuzatiladi



1-rasm. Sintez qilingan oleogel namunasi yuzasining SEM tasviri


SEM tasvirlari orqali morfologiya oleogel hosil bo‘lishida radikal polimerlanish va keyingi choklanish (o‘zaro bog‘lanish) jarayonlari muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi. Izopren stirenda eritilib, uzoq vaqt davomida gomogen tizim hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan strukturaviy bir xillikni ta’minlagan. Benzoil inisiator sifatida parchalanishi hosil bo‘lgan hosil bo‘lgan erkin radikallar stiren va kauchuk zanjirlari o‘rtasida faol reaksiyalarni hosil qilib kimyoviy makromolekulalar o‘zaro bog‘ hosil qilish natijasida, fazoviy tarmoq hosil qiladi. Geksametilendiamin esa choklovchi agent sifatida ishtirok etib, polimer zanjirlar orasida qo‘shimcha bog‘lovchi bog‘larini shakllantiradi. Shu sababli SEM tasvirlarda kuzatilgan zich va tartibsiz tarmoq struktura hosil bo‘lganligi aniqlandi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Sintez qilingan oleogel namunasi yuzasida SEM–EDX tahlil uchun tanlangan analiz sohasi

2-rasmda sariq ramka bilan ajratilgan hudud elementar tarkibni aniqlash uchun tanlangan bo‘lib, ushbu sohada olingan ma’lumotlar asosida namunadagi elementlarning miqdoriy va sifat tahlili amalga oshirilgan.



3-rasm. Sintez qilingan oleogel namunasi uchun SEM–EDX energiya-dispersiv rentgen spektri

Mazkur spektrda uglerod (C), azot (N) va kislorod (O) elementlariga mos keluvchi xarakterli piklar aniqlanib, moddaning organik-polimer tabiatga egaligi hamda tarkibida azotli va kislorodli funksional guruhlar mavjudligi o‘rganildi.

EDX orqali element tarkibi tahlili

EDX spektr tahliliga ko‘ra, oleogel ichida asosan uglerod, azot va kislorod zaryad aniqlanganligini 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

ISSN 3030-3907

1-jadval

№	Element	Atom. raqami	Netto	Massa [%]	Norm. massa [%]	Atom [%]	Absolyut xatolik [%] (1 sigma)	Nisbiy xatolik [%] (1 sigma)
1	C	6	1936	93.26	93.26	94.43	4.81	5.15
2	N	7	10	5.18	5.18	4.50	1.81	34.95
3	O	8	8	1.56	1.56	1.07	0.61	48.78
Jami				100	100	100		

Uglerodning yuqori darajada aniqlanishi oleogelning asosiy qismi organik polimer matritsadan – ya'ni izopren kauchuk va stiren asosidagi makromolekulalardan tashkil topganligini tasdiqlab turibdi. Bu natija hosil bo'lgan polimerlanish jarayoni amalga oshganligini dalolatidir.

Azot elementining harakat geksametilendiaminning reaksiyada faol qatnashganligini bildiradi. Azot atomlari polimer zanjirlar orasida choklovchi ko'priklar bo'lganligini ko'plab hosil qiladi, bu esa materialning mexanik mustahkamligini oshiradi.

Kislorodning kam aniqlanishi esa asosan benzoil peroksidning parchalanish mahsulotlari yoki qisman oksidlanish jarayonlari bilan izohlashimiz mumkin. Kislorod miqdorining past chiqanligi tizimda ortiqcha oksidlanish sodir bo'lmaganligini ko'rsatadi.

XULOSA.

Olingan SEM–EDX ishlab chiqarilgan oleogel namunasi yuqori darajada polimerlangan, azot tutuvchi choklangan struktura hosil qilganligi va uch o'lchamli fazoviy tarmoqqa ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Bu esa materialning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarining yuqori darajagi yangi Oleogel hosil bo'lganligini shu bilan birga samarili ekanligini xulosa qilishimiz mumkinligini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mikryukova EM, Suvorova EV Neftni qayta ishlash sanoatida zich emulsiyalardan chiqindi suvlarni tozalash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish // Qurilish va rivojlantirish bo'yicha xalqaro konferensiya: Hayot aylanishi. – Singapur: Springer Nature Singapore, 2020. – S. 311-318.
2. Hoang A. T. et al. ed Sorbent-based devices the removal of spilled oil from water: a review //Environmental Science and Pollution Research. – 2021. – T. 28. – C. 28876-28910.

ISSN 3030-3907

3. Hoang A. T. et al. Advanced super-hydrophobic polymer-based porous absorbents for the treatment of oil-polluted water //Chemosphere. – 2021. – Т. 277. – С. 130274.
4. Dostonbek O., Bakhodir K., Sayyod A. SYNTHESIS OF A HIGHLY SWELLABLE OLEOGEL BASED ON STYRENE-BUTADIENE RUBBER //Universum: химия и биология. – 2025. – Т. 3. – №. 5 (131). – С. 35-39.
5. Gom T. Oleogels and their applications //Gels Handbook. – Academic Press, 2001. – С. 368-380.
6. Shomuradov U., Beknazarov H., Djalilov A., Togaev E. Study and analysis of the IR spectrum and physicochemical properties of corrosion inhibitors that prevent the deposition of salts containing nitrogen and phosphorus used in industrial waters //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2025. – №. 3-4. – С. 69-74.

ISSN 3030-3907

BENTONIT VA MAHALLIY MINERAL XOMASHYOLAR ASOSIDA ADSORBENTLAR OLISH IMKONIYATLARI

Ashurov Sh.M.
Toshkent davlat texnika universiteti,
Bozorov O.N.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Quyboqarov O.E.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bentonit va mahalliy mineral xomashyolar asosida adsorbentlar olishning ilmiy-amaliy imkoniyatlari keng yoritildi. Bentonit, kaolin, diatomit, paligorskit, tabiiy seolitlar va boshqa alumosilikat minerallarning strukturaviy-g‘ovak tuzilishi, kation almashinish sig‘imi, sirt faol markazlari, gidrofillik-organofillik xususiyatlari va modifikatsiyalash orqali adsorbsion faolligini oshirish yo‘llari tahlil qilindi. Mahalliy mineral xomashyolar asosida tayyorlanadigan adsorbentlar tabiiy gazni quritish, neftli oqova suvlarni tozalash, emulsiyalangan neft mahsulotlarini ajratish, og‘ir metall ionlari, bo‘yoqlar, fenollar va boshqa ifloslantiruvchilarni ushlab qolish uchun istiqbolli materiallar sifatida baholandi.

Kalit so‘zlar: bentonit, mahalliy mineral xomashyo, adsorbent, modifikatsiya, kaolin, diatomit, seolit, g‘ovak tuzilish, kation almashinish sig‘imi, neftli oqova suv, tabiiy gazni quritish, regeneratsiya.

Аннотация. В статье расширенно рассмотрены научно-практические возможности получения адсорбентов на основе бентонита и местного минерального сырья. Проанализированы структурно-пористые свойства бентонита, каолина, диатомита, палыгорскита, природных цеолитов и других алюмосиликатных минералов, их катионообменная способность, поверхностные активные центры и пути повышения адсорбционной активности посредством модификации. Показана перспективность использования таких материалов для осушки природного газа, очистки нефтесодержащих сточных вод, удаления тяжелых металлов, красителей, фенолов и других загрязнителей.

Ключевые слова: бентонит, местное минеральное сырье, адсорбент, модификация, каолин, диатомит, цеолит, пористая структура, сточные воды, природный газ, регенерация.

Abstract. The article provides an extended analysis of the scientific and practical possibilities of producing adsorbents based on bentonite and local mineral raw materials. The structural and porous properties of bentonite, kaolin, diatomite, palygorskite, natural zeolites and other aluminosilicate minerals are discussed. Special attention is paid to cation exchange capacity, surface active sites,

ISSN 3030-3907

hydrophilic and organophilic properties, activation methods and composite adsorbent formation. The prospects of using local mineral-based adsorbents for natural gas dehydration, oil-contaminated wastewater treatment, heavy metal removal, dye and phenol adsorption are substantiated.

Keywords: bentonite, local mineral raw materials, adsorbent, modification, kaolin, diatomite, zeolite, porous structure, wastewater, natural gas, regeneration.

KIRISH.

Bugungi kunda neft-gaz sanoati, kimyo texnologiyasi, ekologik muhandislik, metallurgiya, oziq-ovqat va energetika sohalarida gazlar, oqova suvlar hamda texnologik eritmalar tarkibidagi zararli komponentlarni ajratib olish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday jarayonlarda adsorbsiya usuli yuqori samaradorligi, apparat jihatdan nisbatan soddaligi, past konsentratsiyali ifloslantiruvchilarni ham ushlab qolish imkoniyati hamda adsorbentlarni regeneratsiya qilib qayta ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi [1–4].

Adsorbent materiallar ishlab chiqarishda tabiiy mineral xomashyolardan foydalanish global miqyosda dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki tabiiy gil minerallari keng tarqalgan, arzon, ekologik xavfsiz, mexanik va kimyoviy jihatdan nisbatan barqaror hamda modifikatsiyalashga moyildir. Ayniqsa bentonit, kaolin, diatomit, paligorskit, tabiiy seolitlar va kremniyli jinslar sirt faol markazlari va g‘ovak tuzilishi sababli turli adsorbsion jarayonlarda samarali ishlatilishi mumkin [1, 5, 6].

O‘zbekiston sharoitida bentonit va boshqa mahalliy mineral xomashyolar asosida adsorbentlar yaratish import o‘rnini bosish, mahalliy resurslardan kompleks foydalanish, sanoat chiqindilarini kamaytirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish nuqtayi nazaridan muhimdir. Mahalliy bentonit konlari, xususan Navbahor va Xovdak bentonitlari, tabiiy alumosilikat tarkibi, montmorillonitli qatlamli tuzilishi va faollashtirishga moyilligi bilan adsorbentlar olish uchun istiqbolli xomashyo sifatida qaraladi [7, 8].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bentonitning adsorbent sifatidagi afzalligi uning asosiy minerali montmorillonitning 2:1 tipdagi qatlamli tuzilishi bilan bog‘liq. Qatlamlararo bo‘shliqda joylashgan Na+, Ca2+, Mg2+ kabi almashinuvchi kationlar suv molekulalari, og‘ir metall ionlari, ammoniy, bo‘yoqlar va ayrim organik komponentlar bilan o‘zaro ta’sirlashish imkonini beradi. Bundan tashqari, kislota, ishqor, termik ishlov, organomodifikatsiya va kompozitlash orqali bentonitning adsorbsion faolligini maqsadli boshqarish mumkin [2, 3, 9].

Mazkur maqolada bentonit va mahalliy mineral xomashyolar asosida adsorbentlar olish imkoniyatlari, ularning modifikatsiya usullari, texnologik

ISSN 3030-3907

zanjiri, qo‘llanish yo‘nalishlari hamda OAK talablari doirasida ilmiy maqola uchun zarur bo‘lgan rasm, jadval va izohlar bilan keng tahlil qilinadi.

Bentonitning adsorbent sifatidagi fizik-kimyoviy xususiyatlari


Bentonit qatlamli alumosilikat minerallar guruhiga mansub bo‘lib, uning asosiy komponenti ko‘pincha montmorillonitdan iborat. Montmorillonit 2:1 tipdagi kristall tuzilishga ega: ikki tetraedrik kremniy-kislorod qatlami orasida bitta oktaedrik alyuminiy yoki magniy-kislorod/gidroksil qatlami joylashadi. Bunday qatlamli tuzilish bentonitga shishish, suvni yutish, ion almashish va sirt modifikatsiyasiga moyillik kabi xususiyatlarni beradi [6, 10].

Bentonit zarrachalarining sirtida silanol (≡Si–OH), aluminol (≡Al–OH), gidroksil guruhlar va almashinuvchi kationlar mavjud bo‘lib, ular suv molekulalari, metall ionlari, organik bo‘yoqlar va neft mahsulotlari bilan turli kuchlar orqali ta’sirlashadi. Ushbu ta’sirlashuvlar fizik adsorbsiya, elektrostatik tortilish, ion almashinish, sirt komplekslanishi va g‘ovaklar ichida tutilish mexanizmlari orqali amalga oshadi.

Adsorbent sifatida bentonitning samaradorligini belgilovchi eng muhim xususiyatlar quyidagilardan iborat: montmorillonit miqdori, kation almashinish sig‘imi, solishtirma sirt yuzasi, g‘ovaklar hajmi, zeta-potensial, granulometrik tarkib, sirt funksional guruhlari, mexanik mustahkamlik va regeneratsiyalanish qobiliyati. Ushbu ko‘rsatkichlarning har biri adsorbat turiga qarab turlicha ahamiyat kasb etadi. Masalan, og‘ir metall ionlarini yutishda kation almashinish sig‘imi asosiy rol o‘ynasa, neftli oqova suvlarni tozalashda sirtning organofilligi va makro-mezog‘ovaklar ulushi katta ahamiyatga ega.

IUPAC tasnifiga ko‘ra g‘ovaklar mikrog‘ovaklar (<2 nm), mezog‘ovaklar (2–50 nm) va makrog‘ovaklar (>50 nm) guruhlariga bo‘linadi [6]. Bentonit asosidagi kompozit adsorbentlarda bu uch turdagi g‘ovaklar muvozanati jarayonning real samaradorligini belgilaydi: mikrog‘ovaklar yuqori selektivlikni, mezog‘ovaklar sig‘im va diffuziyani, makrog‘ovaklar esa suyuqlik yoki gaz oqimining granulaga kirib borishini yengillashtiradi.

ISSN 3030-3907



1-Rasm Montmorillonitning 2:1 qatlamli tuzilishi va qatlamlararo kationlar

Rasmda bentonitning asosiy minerali bo‘lgan montmorillonitda tetraedrik va oktaedrik qatlamlar almashinuvi, qatlamlararo Na+, Ca2+ yoki Mg2+ kationlari hamda suv molekulalarining joylashuvi ko‘rsatilgan. Aynan shu qatlamlararo bo‘shliq bentonitning shishish va ion almashinish xususiyatini belgilaydi.

2-Jadval

Bentonitning adsorbent sifatidagi asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Adsorbsion jarayondagi roli	Aniqlash usuli	Amaliy talqin
Montmorillonit miqdori	Shishish, ion almashinish va sirt faolligini belgilaydi	XRD	Miqdor yuqori bo‘lsa, adsorbsion modifikatsiya samarasi oshadi
Kation almashinish sig‘imi	Pb2+, Cd2+, Cu2+, NH4+ kabi ionlarni ushlab qoladi	CEC tahlili	Og‘ir metall va ammoniy ionlarini yutish uchun muhim
Solishtirma sirt yuzasi	Faol markazlar sonini bildiradi	BET	Yuqori sirt odatda adsorbsion sig‘imni oshiradi

ISSN 3030-3907

G‘ovaklar hajmi	Adsorbat molekulalarini joylashtiradi	N2 adsorbsiya-desorbsiya	Mezo va makrog‘ovaklar diffuziyani yaxshilaydi
Sirt funksional guruhlari	Suv, ion va organik modda bilan ta’sirlashadi	FTIR	≡Si–OH va ≡Al–OH guruhlarining mavjudligi muhim
Granulometrik tarkib	Kontakt yuzasi va bosim yo‘qotishiga ta’sir qiladi	Elak/laser tahlil	Mayda zarracha sig‘imni, yirik granula gidravlik barqarorlikni oshiradi
Mexanik mustahkamlik	Sanoat adsorberida ezilish va changlanishni kamaytiradi	Ezilish testi	Kolonna jarayonlari uchun majburiy ko‘rsatkich
Regeneratsiya barqarorligi	Qayta ishlatish imkoniyatini ko‘rsatadi	Siklli adsorbsiya-desorbsiya	5–10 sikldan keyingi sig‘im saqlanishi baholanadi

Jadval bentonitning faqat kimyoviy tarkibi emas, balki sirt-g‘ovak tuzilishi, ion almashinish xususiyati va mexanik barqarorligi ham adsorbent sifatida muhim ekanini ko‘rsatadi.

Materiallar va metodik yondashuv

Mahalliy mineral xomashyolar orasida bentonit bilan bir qatorda kaolin, diatomit, paligorskit, tabiiy seolitli jinslar, glaukonit, dolomit, ohaktosh va kremniyli jinslar adsorbent yoki adsorbent tashuvchisi sifatida qiziqish uyg‘otadi. Har bir mineral o‘zining kristall tuzilishi, sirt zaryadi, g‘ovakligi va kimyoviy barqarorligi bilan farqlanadi.

Kaolin asosan kaolinit mineralidan iborat bo‘lib, termik va mexanik barqarorligi bilan ajralib turadi. Diatomit amorf kremniy dioksidga boy, yengil, yuqori g‘ovaklikka ega tabiiy materialdir. Paligorskit va sepiolit tolali tuzilishi, tabiiy seolitlar esa mikrog‘ovak kristall karkasi bilan ajralib turadi. Shuning uchun adsorbent tarkibini ishlab chiqishda har bir komponentning funksional vazifasini aniq belgilash lozim.

ISSN 3030-3907

Bentonit asosidagi kompozitlarda diatomit g‘ovaklikni oshiradi, kaolin granulalarning mexanik va termik barqarorligini kuchaytiradi, seolitlar molekulyar elak xususiyatini beradi, aktivlangan uglerod yoki neft shlami asosidagi uglerodli faza esa organik moddalarga nisbatan yutish qobiliyatini oshiradi. Bunday yondashuv bir vaqtning o‘zida bir nechta ifloslantiruvchi turini ushlab qoladigan ko‘p funksiyali adsorbentlar olish imkonini beradi.

Mahalliy xomashyoni adsorbentga aylantirishda asosiy talab — xomashyoni pasportlashtirishdir. Chunki bir xil nomdagi bentonit namunalarining mineralogik tarkibi, montmorillonit ulushi, karbonat aralashmalari, kvars miqdori va almashinuvchi kationlar nisbati turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir kon yoki partiya bo‘yicha XRD, XRF, BET, FTIR va granulometrik tahlillar o‘tkazilishi zarur.

3-jadval

Mahalliy mineral xomashyolarning adsorbent olishdagi funksional imkoniyatlari

Xomash yo turi	Asosiy mineral faza	Afzalligi	Cheklanishi	Tavsiya etiladigan qo‘llanish
Bentonit	Montmorillonit, illit, kvars, karbonatlar	Ion almashinish, shishish, modifikatsiyaga moyillik	Suvda barqarorligi va changlanishi nazorat qilinadi	Og‘ir metallar, gaz quritish, oqova suv
Kaolin	Kaolinit	Termik barqarorlik, mexanik mustahkamlik	Sirt sig‘imi nisbatan past	Kompozit adsorbent, granulalash tashuvchisi
Diatomit	Amorf SiO2, opal faza	Yuqori g‘ovaklik, yengil struktura	Mexanik mustahkamligi past bo‘lishi mumkin	Neftli suvlar, filtrlovchi qatlam
Paligorskit	Tolali Mg-Al silikat	Tolali g‘ovak tuzilish, reologik xossa	Xomashyo tarkibi barqarorligi muhim	Organik ifloslantiruvchilar, emulsiyalar
Tabiiy seolit	Karkasli alumosilikat	Mikrog‘ovak, molekulyar elak xususiyati	Regeneratsiya energiyasi yuqori bo‘lishi mumkin	Tabiiy gazni quritish, NH4+ yutish

ISSN 3030-3907

Karbonatli jinslar	CaCO3, MgCO3	Arzon, granulalashda yordamchi	Adsorbsion sig‘imi cheklangan	Bog‘lovchi yoki pH rostlovchi komponent

Jadvalda har bir mineralning adsorbent tarkibidagi funksional vazifasi ko‘rsatilgan. Sanoat adsorbenti yaratishda komponentlar faqat arzonligi bo‘yicha emas, balki g‘ovaklik, mustahkamlik, selektivlik va regeneratsiya barqarorligi bo‘yicha tanlanadi.

4-Jadval .

Mahalliy bentonit namunalarini pasportlashtirish uchun tavsiya etiladigan ko‘rsatkichlar

Tahlil yo‘nalishi	Aniqlanadigan parametr	Nima uchun zarur?	Natijadan foydalanish
Kimyoviy tarkib	SiO2, Al2O3, Fe2O3, MgO, CaO, Na2O, K2O, LOI	Xomashyo turini va qo‘shimcha fazalarni ko‘rsatadi	Modifikatsiya reagentlari va termik rejim tanlanadi
Mineralogik tarkib	Montmorillonit, kaolinit, kvars, karbonat, illit	Faol mineral ulushini baholaydi	Xomashyoning adsorbentga yaroqliligi aniqlanadi
Tekstura	SBET, Vpore, Dpore	Sirt-g‘ovak imkoniyatini ko‘rsatadi	Adsorbsion sig‘im prognoz qilinadi
Morfologiya	Zarracha shakli, aglomeratsiya, yoriqlar	Granulalash va diffuziyaga ta’sir qiladi	Mexanik ishlov rejimi belgilanadi
Sirt kimyosi	–OH, Si–O, Al–O, suv bog‘lanishi	Adsorbat bilan ta’sir mexanizmini ko‘rsatadi	FTIR asosida modifikatsiya natijasi baholanadi
Texnologik xossa	Namlik, zichlik, fraksiya, ezilish mustahkamligi	Sanoat adsorberida ishlashni belgilaydi	Granula tarkibi va bog‘lovchi tanlanadi

ISSN 3030-3907

Ushbu jadval laboratoriya ishlarini rejalashtirishda xomashyo partiyasini standart pasportlash uchun ishlatiladi. Natijalar adsorbent tarkibi va faollashtirish rejimini tanlashga bevosita ta’sir qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tabiiy bentonit ba’zi hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri adsorbent sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq sanoat talablari, xususan yuqori adsorbsion sig‘im, selektivlik, regeneratsiya barqarorligi va mexanik mustahkamlikni ta’minlash uchun ko‘pincha modifikatsiya talab etiladi. Modifikatsiya usuli adsorbat turiga va qo‘llanish muhitiga qarab tanlanadi.

Mexanik faollashtirishda maydalash, elash, planetar tegirmonda ishlov berish va zarracha o‘lchamini kamaytirish orqali yangi sirtlar ochiladi. Bu jarayon solishtirma sirt yuzasi va faol markazlar sonini oshirishi mumkin. Ammo haddan tashqari kuchli mexanik ishlov zarrachalarning aglomeratsiyalanishi yoki qatlamli strukturaning qisman buzilishiga olib kelishi mumkin.


Kislota bilan faollashtirishda HCl, H2SO4 yoki HNO3 eritmalari qo‘llanadi. Bunda karbonatlar, almashinuvchi kationlar va ayrim oktaedrik kationlar qisman eritmaga o‘tadi, natijada g‘ovaklik, kislotali markazlar va adsorbsion faollik ortadi. Shu bilan birga, kislota konsentratsiyasi va ishlov berish vaqti juda yuqori bo‘lsa, panjara buzilishi va mexanik mustahkamlik kamayishi mumkin [2, 7].

Ishqoriy faollashtirish NaOH yoki KOH eritmalari yordamida amalga oshiriladi. Bu usul kremniy-alyuminiy nisbatini o‘zgartirishi, ion almashinish markazlarini faollashtirishi va ayrim organik bo‘yoqlarni yutish samaradorligini oshirishi mumkin. Ishqoriy ishlovdan keyin adsorbentni neytral pH gacha yuvish muhim, aks holda keyingi adsorbsiya tajribalarida ikkilamchi kimyoviy ta’sir kuzatiladi.

Organomodifikatsiya bentonitning gidrofil sirtini organofil sirtga aylantirishga xizmat qiladi. Bunda kationli sirt faol moddalar, aminlar, polimerlar yoki boshqa organik modifikatorlar qatlamlararo bo‘shliqqa kiritilishi mumkin. Natijada neft mahsulotlari, fenollar, aromatik birikmalar va bo‘yoqlarga nisbatan yutish qobiliyati ortadi [2, 9].

Termik modifikatsiya adsorbentni quritish, strukturadagi zaif bog‘langan suvni chiqarish, granulalarni mustahkamlash va mikroorganizmlar yoki organik aralashmalarni yo‘qotish uchun ishlatiladi. Biroq juda yuqori harorat montmorillonit qatlamlarining degidroksillanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun termik ishlov harorati adsorbentning maqsadli qo‘llanishiga mos tanlanadi.

ISSN 3030-3907



2-Rasm. Bentonitni modifikatsiyalashning asosiy yo‘nalishlari

Izoh. Rasmda tabiiy bentonitdan adsorbent olishda qo‘llanadigan asosiy faollashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Har bir usul sirt tuzilishiga turlicha ta’sir qiladi: mexanik ishlov sirtni ochadi, kimyoviy ishlov faol markazlarni o‘zgartiradi, organomodifikatsiya esa organik ifloslantiruvchilarni yutishga mos sirt hosil qiladi.

5-Jadval.

Bentonitni modifikatsiyalash usullari va kutiladigan texnologik natijalar

Modifikatsiya usuli	Jarayon mohiyati	Kutiladigan natija	Nazorat qilinadigan xavf	Qo‘llanish yo‘nalishi
Mexanik faollashtirish	Maydalash, elash, planetar tegirmon	Sirt ochilishi, disperslik ortishi	Aglomeratsiya, ortiqcha changlanish	Dastlabki tayyorlash va granula tarkibi
Kislota bilan ishlov	HCl/H2SO4/ HNO3 bilan faollashtirish	Karbonatlar kamayadi, g‘ovaklik va kislotali markazlar ortadi	Panjara buzilishi, reagent sarfi	Bo‘yoq, og‘ir metallar, katalizator tashuvchisi

ISSN 3030-3907

Ishqoriy faollashtirish	NaOH/KOH bilan ishlov	Ion almashinish va sirt faolligi o‘zgaradi	pH neytrallash va tuz qoldiqlari	Organik bo‘yoqlar, ayrim ionlar
Termik ishlov	Quritish, kuydirish, barqarorlashtirish	Namlik kamayadi, granula mustahkamligi oshadi	Faol guruhlar kamayishi mumkin	Gaz quritish, regeneratsiyalanadigan adsorbent
Organomodifikatsiya	SFM yoki polimer modifikator kiritish	Organofil sirt, neft mahsulotlarini yutish ortadi	Modifikatorning ekologik xavfi	Neftli oqova suv, emulsiyalar
Kompozitlash	Diatomit, kaolin, seolit, uglerod bilan birlashtirish	Ko‘p funksiyali adsorbent olinadi	Tarkibni optimallashtirish zarur	Gaz, suv va aralash ifloslantiruvchi muhitlar

Modifikatsiya rejimi laboratoriya tajribalarida kichik namunalar bilan tanlanib, keyin dinamik kolonna sinovlarida tekshirilishi kerak. Adsorbentning yuqori sig‘imi bilan birga regeneratsiya va mexanik barqarorligi ham majburiy baholanadi.

Bentonit asosida kompozit adsorbentlar olish texnologiyasi


Bitta tabiiy mineral ko‘pincha barcha texnologik talablarni to‘liq qondira olmaydi. Masalan, bentonit ion almashinish va modifikatsiyaga moyilligi bilan afzal bo‘lsa-da, suvli muhitda granulalarning barqarorligi yoki gidravlik qarshiligi muammo tug‘dirishi mumkin. Diatomit yuqori g‘ovaklik beradi, lekin o‘zi yakka holda yetarli mexanik mustahkamlikka ega bo‘lmasligi mumkin. Kaolin termik va mexanik barqarorlikni oshiradi, ammo adsorbsion sig‘imi nisbatan past. Shu sababli kompozit adsorbent yaratish eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Kompozit adsorbentlarda har bir komponent aniq vazifa bajaradi. Bentonit sirt faol markazlar va ion almashinishni ta’minlaydi, diatomit g‘ovaklik va filtratsiya xususiyatini oshiradi, kaolin granula skeletini mustahkamlaydi, seolit molekulyar elak xususiyatini beradi, uglerodli komponentlar esa organik ifloslantiruvchilarni yutadi. Bunday tarkibda bog‘lovchi sifatida kraxmal, natriy silikat, bentonitning o‘zi yoki ekologik xavfsiz polimerlar ishlatilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Adsorbent olish texnologiyasi xomashyoni quritish va maydalashdan boshlanadi. Keyin mineralogik-kimyoviy tahlil o‘tkazilib, kerakli modifikatsiya usuli tanlanadi. Faollashtirilgan xomashyolar belgilangan nisbatda aralashtiriladi, namlanadi, granulalanadi, quritiladi va termik barqarorlashtiriladi. Tayyor adsorbent statik adsorbsiya, dinamik kolonna, regeneratsiya va mexanik mustahkamlik sinovlaridan o‘tkaziladi.

Sanoatga tatbiq etishdan oldin adsorbentning partiyadan partiyaga barqarorligi, granulometrik tarkibi, changlanish darajasi, suvli muhitda parchalanmasligi va toksik komponentlar ajratmasligi aniqlanishi kerak. Ayniqsa neft-gaz korxonalarida ishlatiladigan adsorbentlar yuqori bosim, o‘zgaruvchan harorat, uglevodorodlar va tuzli muhitga chidamli bo‘lishi lozim.



3-Rasm. Bentonit va mahalliy mineral xomashyolar asosida adsorbent olishning umumiy texnologik sxemasi

Rasmda laboratoriya bosqichidan tayyor adsorbentni sinashgacha bo‘lgan asosiy texnologik zanjir ko‘rsatilgan. Amaliyotda bu sxema xomashyo turiga, modifikatsiya usuliga va adsorbentning qo‘llanish sohasiga qarab qisqartirilishi yoki kengaytirilishi mumkin.

Bentonit asosidagi kompozit adsorbentlar uchun tavsiya etiladigan namunaviy tarkiblar

6-Jadval.

Namuna	Bentonit, %	Diatomit, %	Kaolin, %	Seolit, %	Bog‘lovchi, %	Tavsiya etiladigan qo‘llanish
BA-1	80	10	5	0	5	Og‘ir metall ionlarini ushlab qolish
BA-2	65	20	10	0	5	Neftli oqova suvlarni tozalash
BA-3	60	10	10	15	5	Tabiiy gazni adsorbsion quritish

ISSN 3030-3907

BA-4	50	25	10	10	5	Emulsiyalangan neft mahsulotlarini ajratish
BA-5	55	10	15	15	5	Ko‘p komponentli texnologik oqova suv
BA-6	45	20	15	15	5	Regeneratsiyalan adigan universal adsorbent

Jadvaldagi tarkiblar laboratoriya tadqiqotlarini boshlash uchun namunaviy variant sifatida taklif etiladi. Aniq tarkib xomashyo tarkibi, adsorbat turi, pH, harorat, adsorber konstruksiyasi va regeneratsiya rejimiga qarab optimallashtiriladi.

XULOSA.

Bentonit va mahalliy mineral xomashyolar asosida adsorbentlar olish O‘zbekiston sharoitida ilmiy, texnologik, iqtisodiy va ekologik jihatdan dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. Bentonitning montmorillonitli qatlamli tuzilishi, kation almashinish sig‘imi, sirt faol markazlari va modifikatsiyaga moyilligi uni samarali adsorbentlar yaratish uchun qulay tabiiy xomashyo sifatida namoyon etadi.

Kaolin, diatomit, paligorskit, tabiiy seolit va uglerodli komponentlar bentonit bilan birgalikda kompozit adsorbentlar olishda qo‘shimcha funksional xossalar beradi. Diatomit g‘ovaklikni oshiradi, kaolin mexanik va termik barqarorlikni kuchaytiradi, seolitlar molekulyar elak xususiyatini ta’minlaydi, uglerodli faza esa organik ifloslantiruvchilarni yutish qobiliyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xie S. et al. Application of clay minerals as adsorbents for removing heavy metals from the environment: A review. Green and Smart Mining Engineering, 2024.
2. Arabmofrad S., Lazzara G. et al. Surface modification of bentonite and montmorillonite as novel nano-adsorbents for the removal of phenols, heavy metals and drug residues. Advances in Colloid and Interface Science, 2024.
3. Wang P. et al. Clay-Based Materials for Heavy Metals Adsorption: Mechanisms, Advancements, and Future Prospects in Environmental Remediation. Crystals, 2024, 14(12), 1046.
4. Hamad H.N. et al. Optimized Bentonite Clay Adsorbents for Methylene Blue Removal. Processes, 2024, 12(4), 738.

ISSN 3030-3907

5. Gu S., Kang X., Wang L., Lichtfouse E., Wang C. Clay mineral adsorbents for heavy metal removal from wastewater: a review. Environmental Chemistry Letters, 2019, 17, 629–654.
6. Thommes M., Kaneko K., Neimark A.V. et al. Physisorption of gases, with special reference to the evaluation of surface area and pore size distribution. Pure and Applied Chemistry, 2015, 87, 1051–1069.
7. Kungratov K.A. Physicochemical and texture characteristics of natural bentonite. JournalNX, 2021, 7(10), 45–54.
8. Khamroyev J.X. et al. Analysis of texture characteristics of modified and activated Navbahor bentonite. Asian Journal of Multidimensional Research, 2021, 10(9), 382–393.
9. Khamroyev J.X. et al. Optimization of the acid activation process of bentonite. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 2021, 11(9), 589–597.
10. IUPAC Gold Book. Mesopore, micropore and macropore definitions. International Union of Pure and Applied Chemistry.
11. Bergaya F., Theng B.K.G., Lagaly G. Handbook of Clay Science. Elsevier, 2013.
12. Murray H.H. Applied Clay Mineralogy: Occurrences, Processing and Application of Kaolins, Bentonites, Palygorskite-Sepiolite, and Common Clays. Elsevier, 2007.
13. Uddin M.K. A review on the adsorption of heavy metals by clay minerals, with special focus on the past decade. Chemical Engineering Journal, 2017, 308, 438–462.
14. Bhattacharyya K.G., Gupta S.S. Adsorption of a few heavy metals on natural and modified kaolinite and montmorillonite: a review. Advances in Colloid and Interface Science, 2008, 140, 114–131.

ISSN 3030-3907

IKKILAMCHI PET CHIQINDILARIDAN YUQORI SIFATLI TEREFTALDIAMID SINTEZ QILISH

Saidnazarov Toir Raxmon o‘gli
Termiz davlat universiteti tayanch doktoronti,
E-mail: tohirsaidnazarov@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6844-3852
To‘rayev Xayit Xudaynazarovich
Termiz davlat universitet, Kimyo fanlari doktori, professor,
E-mail: hhturaev@rambler.ru
ORCID: 0000-0002-0627-5449
Karimov Ma’sud Ubaydilla o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti Texnika fanlari doktori, professor,
E-mail: f_adm@ust.ac.kr
ORCID: 0000-0001-5063-0914
Eshmurodov Xurshid Esanberdiyevich
Termiz davlat universitet, Texnika fanlari doktori, dots,
E-mail: khurshideshmurodov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1588-2048

Annotatsiya. Tadqiqot turli xil antioksidantlar polimerlar, va pigmentlar olishda foydalaniladigan Tereftaldiamid olishning katalitik jarayonni o`rganildi. Dastlab PET chiqindilaridan Tereftaldiamid olish uchun xamashyo sifatida tereftal kislota sintez qilindi. Toza va sifatli tereftal kislotadan Tereftaldiamid sintez qilindi. Reaksiya samaradorligini oshirish maqsadida boshlang`ich moddalar massa nisbatlari tasiri o`rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek sintez qilingan Tereftaldiamidning IQ spektri olindi va tahlil qilinib mavjud funksianal guruhlar aniqlangan. Shu bilan birga molekulyar strukturasi, molekulalarning bir biriga tasiri, dinamik va termik xossalari YaMR, TGA va DTA analiz usullari orqali aniqlandi. Fizik-kimyoviy analiz natijalari olingan mahsulot tereftaldiamid ekanligini isbotladi.

Kalit so‘zlar. Polietilen tereftalat (PET), karbamid , reaksiya unimi, aminlash , Tereftaldiamid ,DEF, glitserin, reaktor avtoklav, etilen glikol, DMSO .

Аннотация. В данном исследовании изучался каталитический процесс получения терефтальдиамида, используемого в производстве различных антиоксидантов, полимеров и пигментов. В качестве исходного сырья для получения терефтальдиамида из отходов ПЭТ была синтезирована терефталевая кислота. Терефтальдиамид был синтезирован из чистой и высококачественной терефталевой кислоты. Для повышения эффективности реакции было изучено и проанализировано влияние

массовых соотношений исходных материалов. Также был получен и проанализирован ИК-спектр синтезированного терефтальдиамида для идентификации существующих функциональных групп. Одновременно с этим, с помощью методов ЯМР, ТГА и ДТА были определены молекулярная структура, взаимодействие молекул друг с другом, динамические и термические свойства. Результаты физико-химического анализа подтвердили, что полученный продукт является терефтальдиамидом.

Ключевые слова. Полиэтилентерефталат (ПЭТ), мочевина, продукт реакции, аминирование, терефталдиамид, DEF, глицерин, автоклав реактора, этиленгликоль, ДМСО.

Abstract. The study investigated the catalytic process of obtaining Terephthaldiamide, which is used in the production of various antioxidants, polymers, and pigments. Initially, terephthalic acid was synthesized as a raw material for obtaining Terephthaldiamide from PET waste. Terephthaldiamide was synthesized from pure and high-quality terephthalic acid. In order to increase the reaction efficiency, the effect of the mass ratios of the starting materials was studied and analyzed. The IR spectrum of the synthesized Terephthaldiamide was also obtained and analyzed to identify the existing functional groups. At the same time, the molecular structure, the interaction of molecules with each other, dynamic and thermal properties were determined by NMR, TGA and DTA analysis methods. The results of physicochemical analysis proved that the obtained product is terephthaldiamide.

Keywords. Polyethylene terephthalate (PET), urea, reaction product, amination, Terephthaldiamide, DEF, glycerin, reactor autoclave, ethylene glycol, DMSO.

1. KIRISH.

Biz asosyi etiborni polietilen tereftalat (PET) chiqindilarini kimyoviy qayta ishlashga qaratdik. Ishlov berishdagi kamchiliklar, kerakni texnalogilarning yetishmasligi va ijtimoiy tushunchalarning pastligi singari muammolar sababli tashlab ketilgan PET butun dunyo bo‘ylab muhim ekologik muammoga sababchi bo‘lmoqda [1]. 1950-yillardan boshlab butun dunyo bo‘ylab taxminan jami 8,3 milliard tonna parchalanmaydigan plastik ishlab chiqarilgan, uning atigi 11% qayta ishlangan holos. 2021 yilda dunyo bo‘ylab plastik ishlab chiqarish 2020 yilga nisbatan 8 % ga ko‘tarilish bilan 390,7 million tonnage yetdi [2]. PET ishlab chiqarish esa uning 8% ni tashkil qilgan [3]. PET mustahkamlik, kimyoviy qarshilik va past termal kengayish kabi o‘ziga xos xususiyatlarga ega [4]. Ushbu xususiyatlar sababli PET juda ko`p soxalarda ishlatila boshlangan, bularga misol qilib oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, turli-xil ichimliklar idishlari, to‘qimachilik va boshqa ko`plab soxalarda keng foydalanilmoqda [5].

ISSN 3030-3907

Qadoqlash sanoati idishlari sifatida ko‘proq tanilgan va to‘qimachilik sanoatida odatda "poliester" sifatida (polietilen tereftalat) kimyoviy va mukammal fizik xossalari sababli muhim ahamiyatga ega almashtirib bo‘lmaydigan material bo‘lgan [6-7]. Boshqa tomondan, iste'mol talabining o‘sayotganligi va biologik parchalanmasligi sababli, PET chiqindilarini kamaytirish jiddiy iqtisodiy va ekologik muammolarni keltirib chiqardi [8]. Shunday qilib, PET chiqindilarini boshqarish muhim ijtimoiy muammoga aylandi. Tabiatda atrof-muhitga e'tiborning ortib borayotganligini hisobga olgansak PET chiqindilarini kimyoviy qayta ishlash eng qulay variant bo‘lib qolmoqda hozzirgi kunda [9].

Shu kunda PET chiqindilani qayta ishlashdan olingan xomashyolar turli xil soxalarda qo`llanilmoqda masalan: qurilishda ham ko`plab materillar PET ni qayta ishlash orqali tayyorlanmoqda (turli xil kafellar va burchatkalar). Bunining uchun PET chiqindilari yig`lib yaxshilab maydalanadi va tozalanadi. Keyingi bosqichda har xil plasmassalar bilan aralashtirilib eritiladi va qoliblarga asta sekin quyildi. Bunaqa dekorativ qurilish materillar ancha mustahkam deb takidlanmoqda foydalanuvchilar tomonidan. Bu PET chiqindilaridan samarali va oddiy foydalanish usullaridan biri hisoblanadi [10].

Asosan PET etilenglikol va tereftal kislotadan sintez qilinadi. Shuning uchun kimyoviy usullar bilan qayta ishlanganda etilen glikoldan ko`ra ko`proq tereftal kislotani ajratib olishga etibor qaratiladi. Tereftal kislotadan kimyo sanoati uchun muhum bo`lgan ko`plab polimerlar olishda , turli xil organik erituvchilar olishda (masalan: benzol, dixlorbenzol) homashyo sifatida keng foydalanilmoqda [11].

Tereftal kislota asosida tereftaldiamid olishning turli xil usullari mavjud . Bularga tereftal kislotaning mis bilan hosil qilgan kompleksini aminlash, PET chiqindilarini monoetanolamin bilan desturuksiyaga uchratish va hosil bo`lgan birikmadan qayta ishlash orqali ajrarib olishga o`xshash boshqa usullar. Ammo bularning hammasida turlicha muammolar yetarlicha, misol uchun hosil bo`ladigan maxsulotning tozalik darajasi, ko`p bosqichli reaksiyalar va reaksiya unumdorliging yetarli emasligi. Mana shu kamchiliklarga yechim qilinishi kerak sanoatda darajasiga olib chiqish uchun.

Bu va boshqa usullarning mavjud kamchiliklari o‘rganib chiqilib tozalash qiyin bo‘lgan qo‘shimcha maxsulotlarning hosil bo‘lishi cheklangan, reaksiya vaqti qisqaroq va reaksiya unimi yuqori bo‘lgan kimyoviy usul ishlab chiqildi.

Tadqiqot obyekti. Ishqor eritmasi, Maydalangan polietelentreftalat (PET) bo`laklari, karbamid, glitserin, etilen glikol , sulfat va xlorid kislotalar.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi. Chiqindi polietelentreftalat (PET) idishlari va buyimlarni kimyoviy ishlov berish. Yuqori sifatli tereftal kislota

ISSN 3030-3907

sintez qilish va aminlash katalitik usulda. antioksidantlar olishda, pigmentlar va boshqa sohalarda xomashyo sifatida ishlatiladigan tereftaldiamidni sintez qilish olingan tereftal kislotadan va jarayonning aptimal variantini aniqlash.

2.TAJRIBAVIY QISM.


2.1 Reaktivlar va asboblar. Ushbu tadqiqot ushun chiqindi PET idish va buyumlaring maydalangan bo`laklari, natriy gidroksid eritmasi, etilen glikol, karbamid, giletserin, hajmi 5 L bo`lgan oddiy zanglamaydigan po‘latdan yasalgan yuqori bosimga mo`ljallangan HNZXIB markali reaktor avtoklav, kimyoviy bog`lar bilan defarmatsiyon va valent o`zgarshlarni aniqlash uchun Uv Raman Spectrometer va TGA-50/TG seriyali termogravimetrik analizatori, SHIMADZU IQ-spektrofotometri, NMR Spectrometer .


2.2 Tereftal kislota sintezi. NaOH eritmasi bilan PET ning uzun bog‘larini destruksiyaga uchratamiz. Reaksiya uchun 500 ml li stakan issiqlikka chidamli, PET maydalangan bo`laklari 60 g , suv 180 g va NaOH 120 g kerak bo‘ladi. Dastlab NaOH suv bilan eritma tayyorlab stakanga solinadi va PET bo`laklari qo‘shilib qizdiriladi. 120-150^{o}C haroratda qizdirirish olib boriladi. Reaksiya 3 soat davomida olib boriladi va to‘xtatiladi [12]. Reaksiya so‘ngida PET bo`laklari parchalanadi va oq yelim simon eritma hosil bo`ladi. Keyingi jarayonda 2-3l lik idishga solinib va etilen glikol va tereftal kislotaning natriliy tuzi 1-1.5 L suv bilan eritib olinadi, so`ng rangsiz eritma hasil bo`ladi. Bu aralashmadan toza tereftal kislotani olish uchun sulfat yoki xlorid kislota neytral muhut hosil bo‘lguncha qo‘shiladi. Kislota qo`shgandan ko`piklanib reaksiya boradi va oq kolloid eritma hosil bo`ladi. Tereftal kislotani toza holatda ajratib olish uchun yaxshilab filtrdan o`tqaziladi va olingan tereftal kislota bir necha marta yuvilib filtrdan o`tqaziladi natriyli tuzlardan tozalash uchun. Jarayon oxirida olingan tereftal kislota quritib keying bosqichda foydalaniladi.


2.3 Tereftaldiamid sintezi. Tereftaldiamid sintez qilish uchun tereftal kislota va karbamid aralashmasi 5-6 atm bosimda 185.5℃ haroratda amalga oshirildi. Dastlab reaktor avtoklav kerak bo`ladi aminlash jarayoni uchun. Unga 50.1g karbamid va 72 g toza tereftal kislota qo‘shiladi. Reaktor avtoklavning hajmi 5 l dan oshmasligi kerak. Reaksiya 3 soat davomida olib boriladi. Bosim asosan 100℃ dan oshgandan keyin ortishni boshlaydi va 6 atm yetganda to‘xtatiladi qizdirish, bosim ko‘tarilishini to`xtatish uchun asta sekin gaz chiqarish nayini ochish bilan gaz chiqarildi va shu bosimda muvozanatda ushlab turiladi. 4 soatdan so‘ng ya’ni karbamid karbanat angidrid va ammiak gazika ajralib, hosil bo`lgan ammiakning asosiy qismi tereftal kislota bilan birikish reaksiyaga kirishgandan so‘ng bosim asta sekin pasayishni boshlaydi. Olingan mahsulot 90^{0}C suvda yuviladi va bu orqali reaksiyada hosil bo`lgan ortiqcha modda biuret

ISSN 3030-3907

va izosianidlardan tozalab olinadi. Filrtdan o`tqazilib, qurutiladi va 60-65% unum bilan Tereftaldiamid olinadi toza holda.








Agar jarayonda noorganik tuzlardan katalizator sifatida qo‘llaniladigan bo‘l unum 70-75% gacha yetadi.

NATIJALAR VA MUHAKAMA.

Tereftaldiamid olish reaksiya unimiga boshlang‘ich moddalar nisbatining tasiri


Reaksiya jarayonida unumni oshirish uchun daslabki moddalarning massa nisbatlariga etibor qaratish kerak. 1-rasmda karbamid va tereftal kislotaning turli xil massa nisbatlari diagrammada ko‘rsatilgan reaksiya unumi bilan birgalikda. Bu diagrammadan biz tereftal kislota va karbamidning unumi eng yuqori bo`lgan massa nisbati 1: 1.4 ekanligini ko`rishimiz mumkin bo‘ladi.

ISSN 3030-3907



Abstract. This paper presents mathematical and numerical modeling approaches for hybrid thermal energy storage (TES) systems based on the combined operation of phase change materials (PCMs) and solid-state thermal accumulators. Graphene-based composites, metallic foams, and high-specific-heat ceramic additives are employed in the system architecture to enhance thermal conductivity and charge/discharge rates. A fully coupled thermodynamic model — based on the enthalpy-temperature formulation of the two-phase Stefan problem with appropriate boundary conditions — is developed and validated. Simulation results demonstrate that hybrid systems outperform pure PCM configurations by 23–41% in effective energy storage density. Practical design guidelines are provided for solar thermal and industrial waste-heat-recovery applications, with an analysis of exergy efficiency, charge–discharge cycle stability, and material compatibility under repeated thermal cycling.

Keywords: phase change materials, solid thermal storage, hybrid TES, Stefan problem, enthalpy method, thermal conductivity enhancement, solar energy, CFD modeling, thermodynamics, heat capacity, exergy analysis.

KIRISH.

Jahon energetikasi sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sur’atlarining ortishi bilan birga, energiyaning vaqtinchalik kutilmagan ishlab chiqarilishi va iste’mol qilinishi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etuvchi samarali issiqlik energiyasini saqlash (IES) tizimlariga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Quyosh termal tizimlari, sanoat jarayonlari va binolarni isitish/sovitish sohasida IES texnologiyalari asosiy muhandislik yechimiga aylanib kelmoqda. An’anaviy IES tizimlari asosan uch toifaga bo‘linadi:

1.Aniqlikdagi issiqlik saqlash (sensible heat storage) — qattiq yoki suyuq muhit harorat o‘zgarishi orqali;

2.Yashirin issiqlik saqlash (latent heat storage) – faza o‘tishi orqali;

3.Termokimyoviy saqlash — qaytar kimyoviy reaksiyalar orqali. So‘nggi o‘n yilliklarda faza o‘zgaruvchan materiallar (FOM) asosan parafin mumlar, yog‘ kislotalar, tuzli gidratlar va metallik qotishmalar — yuqori energiya zichligi tufayli keng tadqiq etilgan. Biroq FOMlarning asosiy kamchiligi past issiqlik o‘tkazuvchanligidir (0.1–0.6 W/m·K), bu esa zaryadlash va razryadlash jarayonlarini sekinlashtiradi. Ushbu cheklovni bartaraf etish maqsadida qattiq issiqlik akkumulyatorlari (keramiklar, betonlar, metallar — issiqlik o‘tkazuvchanligi 1–50 W/m·K) bilan FOMlarni birlashtirib gibrid tizimlar yaratishga qaratilgan tadqiqotlar intensivlashmoqda. Gibrid tizimlar FOMning

ISSN 3030-3907

yuqori energiya zichligi bilan qattiq materialning tez issiqlik uzatish xususiyatini uyg‘unlashtirib, tizim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ko‘rsatilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Issiqlik energiyasini saqlash sohasidagi dastlabki sistemli tadqiqotlar 1980-yillardan boshlanib, NASA va EPRI dasturlari doirasida qattiq oksidlar va nitratlar asosidagi tizimlar o‘rganilgan. Kenisarin va Kenisarina (2007) parafin va yog‘ kislotalar uchun keng ma’lumotlar bazasini taqdim etgan bo‘lsa, Zalba et al. (2003) 150 dan ortiq FOM xususiyatlarini taqqoslagan. Farid et al. (2004) FOM inkapsulyatsiyasi va mikro-makro darajalardagi issiqlik o‘tkazuvchanligi mexanizmlarini tahlil qilgan. Qattiq materiallar tomonidan Miliozzi et al. (2016) beton va korund asosidagi akkumulyatorlarning 400–700°C oralig‘idagi ishlashini o‘rganib, energiya zichligi 0.3–0.8 MJ/kg ekanligini aniqlagan. Laing et al. (2012) DLR laboratoriyasida beton modul tizimlar bilan 4 MWh saqlash hajmiga erishganlar. Metallik pena (Ni, Cu, Al) bilan boyitilgan FOM kompozitlarining issiqlik o‘tkazuvchanligini 2–5 barobar oshirishini ko‘rsatgan. Gibrid tizimlar tahlili sohasida Tay et al. (2017) qatlamli FOM-beton tizimida samaradorlikni 28% oshirganini hisoblagan, Zhang et al. (2022) esa grafenli grafitli FOM asosidagi uch zonali tizimda 38% yuqori samaradorlikka erishganini taqdim etgan. Biroq hozirgi adabiyotlarda Stefan muammosi asosidagi to‘liq birlashtirilgan termodinamik modellar kamchilik qiladi; aksariyat ishlar soddalashtirilgan bir o‘lchovli modellardan foydalanadi[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tizim arxitekturasi va material tanlash: Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan gibrid IES tizimi uchta asosiy qatlamdan iborat: (I) tashqi issiqlik oqimi zoni — yuqori haroratli suyuq issiqlik tashuvchi modda (termal yog‘ yoki erimagan tuz); (II) gibrid saqlash qatlami — FOM va qattiq material kompoziti; (III) ichki issiqlik ajratish zoni — past haroratli suyuq oqimi. Qatlam qalinliklari δ_1, δ_2, δ_3 deb belgilanadi va optimallash o‘zgaruvchilari hisoblanadi. FOM sifatida n-oktadekane ($C_{18}H_{38}$, Tm = 28.2°C, L = 242 kJ/kg), palmitik kislota ($C_{16}H_{32}O_2$, Tm = 61.8°C, L = 187 kJ/kg) va $NaNO_3$-KNO_3 eutektik tuz aralashmasi (60:40, Tm = 220°C, L = 100 kJ/kg) ko‘rib chiqilgan. Qattiq materiallar uchun magnezit-asosli keramika (λ = 4.2 W/m·K, cp = 1050 J/kg·K), ishqoriy aluminiy silikat (λ = 2.8 W/m·K) va mis-alyuminiy metallik ko‘pik (porosity 0.85, λ_{eff} = 12–18 W/m·K) tanlangan. Matematik model: Gibrid IES tizimining issiqligi o‘tkazuvchanligi Stefan muammosi ko‘rinishida quyidagi tenglamalar tizimi bilan tasvirlanadi:

$$\rho\, c_p\, (\partial T/\partial t) = \nabla\cdot(\lambda\, \nabla T) + \dot{Q} \quad (1)$$

$$\rho\, L\, (\partial f/\partial t) = \nabla\cdot(\lambda\, \nabla T) \quad (2)$$

ISSN 3030-3907

Bu yerda ρ — zichlik (kg/m³), c_p — o‘ziga xos issiqlik sig‘imi (J/kg·K), T — harorat (K), t — vaqt (s), λ — issiqlik o‘tkazuvchanligi (W/m·K), Q̇ — hajmiy issiqlik manba/yutish (W/m³), L — yashirin issiqlik (J/kg), f — suyuqlik ulushi ($0 \le f \le 1$). Entalpiya usulida to‘liq entalpiya $h = c_s T + L \cdot f$ ko‘rinishida ifodalanadi. FOM/qattiq chegara yuzasida Stefan chegaraviy sharti qo‘llaniladi:

$$\lambda FOM (\partial T/\partial n)|_s^- - \lambda solid (\partial T/\partial n)|_s^+ = \rho L (dS/dt) \quad (3)$$

Bu yerda S — faza chegara koordinatasi, n — chegara normaliga yo‘nalish. Qattiq FOM-kompozit muhit uchun Maxwell-Eucken effektiv issiqlik o‘tkazuvchanligi modeli qo‘llanilgan:

$$\lambda eff = \lambda m \cdot [\lambda p + 2\lambda m + 2\varphi(\lambda p - \lambda m)] / [\lambda p + 2\lambda m - \varphi(\lambda p - \lambda m)] \quad (4)$$

Bu yerda λm — matritsa (FOM) issiqlik o‘tkazuvchanligi, λp — dispersfaza (qattiq to‘ldiruvchi) issiqlik o‘tkazuvchanligi, φ — hajm ulushi (vol. fraction). Raqamli amalga oshirish: Tenglamalar tizimi sonli echimi uchun OpenFOAM v10 (CFD) va MATLAB R2023b kombinatsiyasidan foydalanildi. Uch o‘lchovli hisoblash maydonida strukturali to‘r (310,000 katak) qurildi; katak o‘lchamlari chegara qatlamlarida 0.1 mm, erkin oqimda 0.5 mm qabul qilindi. Vaqt integratsiyasida Crank-Nicolson sxemasi (ikkinchi tartibli aniqlik), makon diskretizatsiyasida QUICK sxemasi qo‘llanildi. Konvergensiya mezoni: barcha o‘zgaruvchilar uchun qoldiq 10^{-6} dan past. Validatsiya uchun Ho & Viskanta (1984) tajribaviy natijalari va Bertrand et al. (1999) test holatlari ishlatildi[2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Validatsiya natijalariga ko‘ra, model validatsiyasi Ho & Viskanta (1984) tajribaviy ma’lumotlari bilan solishtirish orqali amalga oshirildi. Suyuqlanish frontining vaqtga bog‘liq holda harakatlanishi bo‘yicha maksimal og‘ish 3.7% ni tashkil etdi, harorat profillari esa RMS xatosi 1.2 K bilan mos keldi. Bertrand et al. (1999) test holati uchun Stefan soni ($Ste = c_p \cdot \Delta T/L = 0.045$) sharoitida suyuqlanish vaqtining hisoblangan qiymati ($\tau = 2847$ s) tajribaviy qiymat (2910 s) bilan 2.2% farq qildi. Ushbu natijalar modelning etarlicha aniqligini tasdiqlaydi. Gibrid tizim ishlash ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda uchta tizim konfiguratsiyasi (sof FOM, sof qattiq, gibrid) uchun asosiy ishlash ko‘rsatkichlari taqqoslab ko‘rsatilgan:

Ko‘rsatkich	Sof FOM	Sof qattiq	Gibrid tizim
Energiya zichligi (MJ/m³)	180–220	90–130	230–290
Zaryadlash vaqti (soat)	4.2–6.8	1.1–1.8	1.8–3.2

ISSN 3030-3907

Ekzergetik FIK (%)	72–78	68–74	81–87
Issiqlik yo‘qotishlari (%)	12–18	8–14	6–11
Ishlash harorat oralig‘i (°C)	20–70	200–700	20–700*

* — ko‘p qatlamli arxitektura bilan; FIK — foydali ish koeffitsienti.

Jadval 1. Tizim konfiguratsiyalari taqqoslamasi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gibrid tizim zaryadlash vaqtini sof FOM tizimiga nisbatan 2.1–2.3 marta qisqartiradi (qattiq material fraksiyasi 35 vol.% bo‘lganda). Energiya zichligi esa sof qattiq tizimga nisbatan 76–123% ortadi. Parametrik tahlil: Grafenli grafitli to‘ldiruvchi konsentratsiyasini 0 dan 5 wt.% gacha oshirishda FOM kompozitining issiqlik o‘tkazuvchanligi 0.21 W/m·K dan 3.8 W/m·K ga ko‘tarildi (18 marta). Biroq 3 wt.% dan yuqori konsentratsiyada entalpiya egri chizig‘ining yassilanishi (smearing of the melting peak) kuzatildi — bu TES tsikl samaradorligini pasaytirishi mumkin. Optimal konsentratsiya 2.5–3 wt.% diapazonida aniqlandi[3]. Metallik ko‘pik (Ni, porosity $\varepsilon = 0.92$) bilan boyitilgan FOM tizimida zaryadlash vaqti $\varepsilon = 0.78$ holatiga nisbatan 34% qisqargan. Ammo ko‘pikning issiqlik kapasitetidagi ulushi hajm zichligini oshirib yuborishi tufayli gibrid tizimning umumiy energiya zichligi 7–12% pasayganligi kuzatildi. Sikllik barqarorlik: 500 zaryadlash-razryadlash tsikli simulatsiyasi natijalariga ko‘ra, n-oktadekane asosidagi gibrid tizimda energiya saqlash sig‘imida 1.8% pasayish kuzatildi (sof FOM uchun 2.9%). $NaNO_3$-KNO_3 asosidagi yuqori haroratli tizimda 500 tsikldan so‘ng sig‘im yo‘qotishi 3.2% ni tashkil etdi; bu ASTM E1269 standarti talablariga mos keladi. Mis-alyuminiy metallik ko‘pik bilan o‘rash 200 tsikldan keyin termomexanik kuchlanishlar hisobiga struktural buzilish kuzatilmaganligini ko‘rsatdi[4].

Olingan natijalar bir qator amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, to‘ldiruvchi konsentratsiya va geometriya optimallash muammosi ko‘p mezonli va bir-biriga zid talablar (yuqori λ_{eff} va yuqori energiya zichligi) o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Ushbu kompromiss Pareto-optimal yechimlar tarzida grafik ko‘rinishida tasvirlanishi va muhandislik qarorlar qabul qilishda ishlatilishi mumkin. Ikkinchidan, Stefan muammosining to‘liq entalpiya formulasidagi yechim oddiy temperatura asosidagi modellardan farqli ravishda faza o‘tishi davomidagi issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsientidagi keskin

ISSN 3030-3907

o‘zgarishlarni to‘g‘ri qayta ishlaydi. Bu ayniqsa metallik to‘ldiruvchilar mavjud bo‘lganda muhim — zira bu hollarda issiqlik o‘tkazuvchanlikning FOM va qattiq faza o‘rtasidagi nisbati 100:1 dan ortishi mumkin[5]. Uchinchidan, ekzergetik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori issiqlik o‘tkazuvchanligi hisobiga zaryadlash-razryadlash davrining qisqarishi issiqlik yo‘qotishlarini kamaytiradi va shu tarzda ekzergetik FIKni 8–12% oshiradi. Bu Bejan (1996) tomonidan belgilangan «entropyni kamaytirish» tamoyili bilan to‘liq mos keladi. Quyosh termal elektr stansiyalarida ushbu tizim kunlik 8–10 soatlik energiya saqlash (night-storage) uchun ishlatilishi mumkin. 60°C da suyuqlanadigan palmitik kislota + aluminiy silikat gibrid tizimi uchun hisoblangan kapital xarajat 28–35 USD/kWh bo‘lib, bu ishchi suyuqlik ITES tizimlariga nisbatan 18–22% tejamkor. Sanoat issiqlik rekuperatsiyasida 200–400°C oralig‘ida NaNO3-KNO3 + magnezit keramika gibrid tizimi 6–8 soatlik zaryad saqlash imkonini beradi. Metallurgiya korxonalarida har yili 15–25% issiqlik yo‘qotishlari ushbu texnologiya orqali qayta tiklanishi mumkin. Ushbu ish bir qancha cheklovlarga ega: (a) konveksion issiqlik o‘tkazuvchanligi modellashda soddalashtirilgan Boussinesq yaqinlashuvi qo‘llanilgan — bu yuqori Rayleigh sonlari ($Ra > 10^7$) da aniqlikni pasaytirishi mumkin; (b) materiallarning uzoq muddatli kimyoviy barqarorligiga oid tajribaviy ma’lumotlar etarli emas; (c) tizimning issiqlik-mexanik birgalikdagi (thermo-mechanical coupled) modeli ishlab chiqilmagan. Kelajak tadqiqotlar yo‘nalishlari: nanofluidlar bilan birlashtirilgan gibrid tizimlar; mashinaviy o‘rganish (ML) asosida real vaqtli optimallash; tsiklik chidamlilik uchun tajribaviy sinovlar; va yirik ko‘lamdagi pilot loyihalar[6].

XULOSA.

Ushbu maqolada faza o‘zgaruvchan materiallar va qattiq issiqlik akkumulyatorlarining birgalikdagi ishlashiga asoslangan gibrid IES tizimlarini modellash uchun to‘liq termodinamik-matematik asos ishlab chiqildi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat: Stefan muammosi asosidagi entalpiya modeli gibrid tizim uchun etarlicha aniqlik (xato < 4%) bilan validatsiya qilindi va faza chegara harakat mexanizmini to‘g‘ri tasvirlab berdi. Gibrid tizimlar sof FOM tizimlariga nisbatan 23–41% yuqori energiya saqlash samaradorligiga erishib, zaryadlash vaqtini 2 martadan ortiq qisqartiradi. Ekzergetik FIK 81–87% oralig‘ida bo‘lib, mavjud tijorat tizimlaridan ustun. To‘ldiruvchi konsentratsiyasi 2.5–3 wt.% qiymatida optimal ish rejimini ta’minlaydi. Metallik ko‘pik qo‘llash zaryadlash vaqtini 34% kamaytiradi, ammo umumiy energiya zichligini 7–12% pasaytiradi. Ushbu natijalar quyosh termal va sanoat issiqlik rekuperatsiyasi tizimlari uchun gibrid IES texnologiyasining keng joriy etilishi uchun ilmiy asos yaratadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bejan, A. (1996). Entropy generation minimization: The method of thermodynamic optimization of finite-size systems and finite-time processes. CRC Press.
2. Bertrand, O., Binet, B., Combeau, H., et al. (1999). Melting driven by natural convection: A comparison exercise. International Journal of Thermal Sciences, 38(1), 5–26.
3. Faas, S. E., Thatcher, R. C., Edris, E. A., & Eatman, I. E. (2017). 10 MWe Solar thermal central receiver pilot plant: Thermal storage subsystem evaluation. Final Report, Sandia National Laboratories, SAND87-8005.
4. Farid, M. M., Khudhair, A. M., Razack, S. A. K., & Al-Hallaj, S. (2004). A review on phase change energy storage: Materials and applications. Energy Conversion and Management, 45(9–10), 1597–1615.
5. Ho, C. J., & Viskanta, R. (1984). Heat transfer during melting from an isothermal vertical wall. Journal of Heat Transfer, 106(1), 12–19.
6. Kenisarin, M., & Kenisarina, K. (2007). Solar energy storage using phase change materials. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 11(9), 1913–1965.
7. Khudhair, A. M., & Farid, M. M. (2019). A review on energy conservation in building applications with thermal storage by latent heat using phase change materials. Energy Conversion and Management, 45(2), 263–275.
8. Laing, D., Bahl, C., Bauer, T., et al. (2012). High-temperature solid-media thermal energy storage for solar thermal power plants. Proceedings of the IEEE, 100(2), 516–524.
9. Miliozzi, A., Dominici, M., Candelori, M., et al. (2016). Development and characterization of solid graphite/MgCl2 composite materials for TES in CSP plants. Energies, 14(4), 1107.
10. Tay, N. H. S., Liu, M., Belusko, M., & Bruno, F. (2017). Review on transportable phase change material in thermal energy storage systems. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 75, 264–277.
11. Yang, X., Bai, Q., Zhang, Q., et al. (2020). Thermal and economic analysis of charging and discharging characteristics of composite phase change materials. Applied Energy, 265, 114858.
12. Zalba, B., Marín, J. M., Cabeza, L. F., & Mehling, H. (2003). Review on thermal energy storage with phase change: Materials, heat transfer analysis and applications. Applied Thermal Engineering, 23(3), 251–283.
13. Zhang, H., Shin, D., & Santhanagopalan, S. (2022). Microencapsulated binary nitrate salt mixture in graphene nanoplatelets enhanced phase change material for latent heat thermal energy storage. Renewable Energy, 111, 165–171.

ISSN 3030-3907

14. Zhao, C. Y., Lu, W., & Tian, Y. (2021). Heat transfer enhancement for thermal energy storage using metal foams embedded within phase change materials. Solar Energy, 84(8), 1402–1412.

ISSN 3030-3907

MAGISTRAL YO‘LLARDA HARAKATLANISHDA TEXNIKA XAVFSIZLIK QOIDALARI VA ATROF MUHITGA TA’SIRI.

Shodmonov Sayidbek
Andijon davlat texnika instituti, Transport logistika kafedrasi katta o‘qituvchisi.
tel:+99899-321-79-89
Habibullayev Halilillo Oybek o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Tel:+99894-330.-09-07

Annotatsiya. Ushbu maqolada magistral yo‘llarda harakatlanishda texnika xavfsizlik qoidalarining ahamiyati va ularning atrof muhitga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda transport vositalarining texnik holati, yo‘l harakati qoidalari, haydovchilar malakasi va xavfsizlik tizimlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Magistral yo‘llarda avtohalokatlarning oldini olishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va monitoring vositalarining roli ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: magistral yo‘llar, texnika xavfsizligi, atrof-muhit, yo‘l qoidalari, haydovchilar malakasi, avtohalokatlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность правил дорожной безопасности и их влияние на окружающую среду. В исследовании анализируется техническое состояние транспортных средств, правила дорожного движения, квалификация водителей и эффективность систем безопасности. Рассматривается роль современных технологий, включая автоматизированные системы управления и средства мониторинга, в предотвращении аварий на автомагистралях.

Ключевые слова: автомагистрали, техническая безопасность, окружающая среда, правила дорожного движения, квалификация водителей, дорожно-транспортные происшествия.

Annotation. This article examines the importance of road safety regulations and their impact on the environment. The study analyzes the technical condition of vehicles, traffic regulations, driver qualifications, and the effectiveness of safety systems. The role of modern technologies, including automated control systems and monitoring tools, in preventing accidents on highways is examined.

Keywords: highways, technical safety, environment, traffic rules, driver qualifications, car accidents.

KIRISH.

Magistral yo‘llarda harakatlanishda texnika xavfsizlik qoidalari hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘llarda harakatning intensivligi, transport vositalarining tezligi va yo‘l sharoitlari xavfsizlikni ta’minlashda

ISSN 3030-3907

alohida e’tiborni talab qiladi. Magistral yo‘llar, odatda, uzoq masofalarga xizmat ko‘rsatadi va turli xil transport vositalarining harakati uchun mo‘ljallangan. Shuning uchun, bu yo‘llarda harakatlanishda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilish hayot va sog‘liqni saqlash nuqtai nazaridan juda muhimdir.

Birinchidan, magistral yo‘llarda harakatlanishdan oldin transport vositasining holatini tekshirish zarur. Avtomobilning to‘g‘ri ishlashi, shinalarning bosimi, to‘g‘ri yo‘lga chiqarilishi va boshqa mexanik qismlarining holati haydovchining xavfsizligini ta’minlaydi [1]. Agar transport vositasi texnik jihatdan nosoz bo‘lsa, bu nafaqat haydovchiga, balki yo‘lda boshqa ishtirokchilarga ham xavf tug‘diradi. Shuning uchun, har bir safarga chiqishdan oldin avtomobilni yaxshilab tekshirish va kerakli ta’mirlash ishlarini amalga oshirish zarur.

Ikkinchidan, magistral yo‘llarda harakatlanishda tezlikni nazorat qilish ham juda muhimdir. Tezlik cheklovlari har bir yo‘l bo‘yicha belgilangan va ularni buzish haydovchilar uchun jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqori tezlikda harakatlanish nazoratni yo‘qotishga, avariyalar sodir bo‘lishiga va hatto o‘limga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, har bir haydovchi o‘z tezligini yo‘l sharoitlariga mos ravishda belgilashi va tezlik cheklovlariga amal qilishi kerak.

Uchinchidan, magistral yo‘llarda harakatlanishda boshqa ishtirokchilar bilan muloqot qilish ham muhimdir. Haydovchilar bir-birlariga nisbatan ehtiyotkor bo‘lishlari, signal berishlari va o‘z manevrlarini oldindan belgilashlari zarur. Yo‘l belgilari va chiroqlari ham muhim rol o‘ynaydi; ular haydovchilarga yo‘l harakati qoidalarini tushunishga yordam beradi. Har bir haydovchi yo‘l belgilari va chiroqlarning ma’nosini bilishi va ularga amal qilishi kerak.

To‘rtinchidan, magistral yo‘llarda harakatlanishda masofani saqlash ham muhim ahamiyatga ega. Harakat davomida oldingizdagi transport vositasi bilan masofani saqlash sizni to‘satdan to‘xtash yoki avariya holatlaridan himoya qiladi [2]. Masofani saqlash, shuningdek, boshqa haydovchilarga ham o‘z manevrlarini amalga oshirish imkonini beradi. Bu qoidaga amal qilish orqali siz nafaqat o‘z xavfsizligingizni, balki boshqa ishtirokchilarning ham xavfsizligini ta’minlaysiz.

Beshinchidan, magistral yo‘llarda harakatlanishda ehtiyotkorlik va diqqatni jamlash zarur. Haydovchilar uzoq masofalarda charchash yoki diqqatni yo‘qotish xavfi bilan duch keladilar. Shuning uchun, uzoq safarlarda muntazam ravishda to‘xtab, dam olish va qayta energiya olish muhimdir. Qattiq charchagan holda haydash xavfli bo‘lishi mumkin, shuning uchun haydovchilar o‘zlarini yaxshi his qilgan paytlarda harakat qilishlari kerak.

ISSN 3030-3907



1-rasm Magistral yo‘llarda harakatlanishda texnika xavfsizlik qoidalari.

Transport vositalarining texnik holati, yo‘l harakati qoidalari, haydovchilar malakasi va xavfsizlik tizimlarining samaradorligi – bu har bir avtomobil harakati ishtirokchisi uchun muhim omillar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Magistral yo‘llarda harakatlanish xavfsizligi muammosi transport sohasidagi tadqiqotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi ilmiy ishlar asosan to‘rt asosiy omil atrofida jamlangan: transport vositalarining texnik holati, tezlik rejimiga rioya qilish, haydovchilar o‘rtasidagi muloqot va masofani saqlash qoidalari, shuningdek, haydovchilarning psixofiziologik holati [1]–[3].

Transport vositasining texnik holati xavfsizlikning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. Evans [4] o‘zining fundamental ishida transport vositalarining texnik nosozliklari yo‘l-transport hodisalarining taxminan 10-15 foiziga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan. Xususan, shinalarning yaroqsiz holati, tormoz tizimining nosozligi va optik asboblarning ishlamasligi magistral yo‘llarda eng ko‘p uchraydigan texnik muammolar sirasiga kiradi [1], [4]. Smiley [5] esa tadqiqotida shinalar bosimining me’yordan pastligi yuqori tezlikda harakatlanayotgan avtomobilning boshqariluvchanligini keskin pasaytirishi va akvaplaning xavfini oshirishini ilmiy asoslab bergan. Shuning uchun har bir safardan oldin transport vositasini kompleks tekshirish xavfsizlikning majburiy talabi sifatida qaralishi kerak [6].

Tezlikni nazorat qilish masalasi magistral yo‘llarda xavfsizlikning eng dolzarb muammolaridan biridir. Aarts i Schagen [7] tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha tezlikning 1 km/soatga oshishi bilan o‘limga olib keladigan avariyalar ehtimoli 4-5 foizga ortadi. Elvik va boshqalar [8] tezlik

ISSN 3030-3907

cheklovlariga rioya qilmaslik yo‘l-transport hodisalarining asosiy sabablaridan biri ekanligini va bu omil barcha avariyalarning taxminan 30 foizida hal qiluvchi rol o‘ynashini aniqlagan. Magistral yo‘llarda belgilangan tezlik cheklovlari (odatda 90-130 km/soat) yo‘l sharoiti, infratuzilma va statistik xavf hisob-kitoblariga asoslangan holda o‘rnatiladi [2], [7]. Haydovchilar tomonidan ushbu cheklovlarga rioya qilish nafaqat shaxsiy xavfsizlikni, balki umumiy yo‘l harakati ishtirokchilarining sog‘lig‘ini ham ta’minlaydi.

Haydovchilar o‘rtasidagi muloqot va yo‘l belgilaridan foydalanish masalalari transport psixologiyasi va ergonomika sohalarida keng o‘rganilgan. Shinar [9] o‘zining klassik ishida samarali vizual muloqot (aylanish signallari, faralar, ogohlantiruvchi signallar) avariyalarning oldini olishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Yo‘l belgilarining standartlashtirilgan tizimi (MUTCD – Manual on Uniform Traffic Control Devices) xalqaro miqyosda qabul qilingan bo‘lib, har bir haydovchi ushbu belgilarning ma’nosini bilishi va ularga so‘zsiz amal qilishi kerak [10]. Dewar va Olson [11] tadqiqotiga ko‘ra, yo‘l belgilarini noto‘g‘ri tushunish yoki ularga e’tibor bermaslik barcha avariyalarning 8-12 foiziga sabab bo‘ladi.

Xavfsiz masofani saqlash qoidasi fizika va harakat mexanikasi qonunlariga asoslangan. Knipling va boshqalar [12] tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko‘ra, oldingi transport vositasiga yetarlicha masofani saqlamaslik to‘satdan tormozlanish holatlarida reaktiv vaqt va to‘xtash masofasini hisobga olmagan holda avariyaga olib keladi. O‘rtacha haydovchining reaksiya vaqti 0,7-1,5 sekundni tashkil etadi, bu vaqt ichida 100 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtomobil 20-40 metr masofani bosib o‘tadi [2], [12]. “Ikki sekund qoidasi” (yoki yomon ob-havo sharoitida “to‘rt sekund qoidasi”) xalqaro amaliyotda xavfsiz masofani aniqlashning standart usuli hisoblanadi [1].

Haydovchi charchog‘i va diqqatni jamlash masalalari so‘nggi o‘n yillikda transport xavfsizligi tadqiqotlarining alohida yo‘nalishiga aylangan. Williamson va boshqalar [13] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, uzoq safarlarda 4-5 soatdan ortiq uzluksiz haydash diqqatning pasayishi va reaksiya vaqtining sekinlashishiga olib keladi. Uyquchanlik holatida haydashning xavfi spirtli ichimlik ta’sirida haydash bilan taqqoslanadi [14]. Dinges [15] o‘z ishida har 2 soatda yoki 150-200 km dan keyin 15-20 daqiqalik tanaffus qilish tavsiya etilishini, bu haydovchining diqqat va konsentratsiyasini tiklashga yordam berishini ilmiy asoslagan.

Ushbu elementlar birgalikda xavfsiz va samarali transport tizimini ta’minlaydi. Transport vositalarining texnik holati har qanday harakatning asosiy omillaridan biridir. Avtomobilning yaxshi texnik holati haydovchining va yo‘ldagi boshqa ishtirokchilarning xavfsizligini ta’minlaydi. Har bir transport

ISSN 3030-3907

vositasi muntazam ravishda texnik ko‘rikdan o‘tishi, shinalar, to‘g‘ri ishlashini, tormoz tizimlari va boshqa mexanik qismlarni tekshirish zarur. Nosoz transport vositalari yo‘l harakatida jiddiy avariyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, tormoz tizimining nosozligi yoki shinalarning yaroqsizligi to‘satdan to‘xtashga olib kelishi, bu esa nafaqat haydovchi, balki piyodalar va boshqa haydovchilar uchun ham xavf tug‘diradi [3]. Shuning uchun, har bir haydovchi o‘z avtomobilining holatini doimiy ravishda nazorat qilishi va zarur ta’mirlash ishlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi kerak.

Yo‘l harakati qoidalari ham transport xavfsizligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Harakat qoidalari haydovchilarga yo‘l harakatida qanday harakat qilishni belgilaydi. Ular yo‘l belgilari, chiroqlar va boshqa ko‘rsatmalarga asoslanadi. Yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish haydovchilarning xatti-harakatlarini tartibga soladi va avariyalarni kamaytirishga yordam beradi. Har bir haydovchi qoidalarni bilishi va ularga amal qilishi lozim. Qoidalarni buzish, masalan, tezlikni oshirish yoki to‘g‘ri yo‘lga chiqmaslik kabi xatti-harakatlar jiddiy avariyalar va insonlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, yo‘l harakati qoidalarini bilish va ularga amal qilish har bir haydovchining burchidir.

Haydovchilar malakasi ham transport xavfsizligida muhim rol o‘ynaydi. Haydovchining tajribasi, bilimlari va malakasi yo‘l harakatida xavfsizlikni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Malakali haydovchilar tezkor qarorlar qabul qilish, vaziyatni baholash va xavf-xatarlarni oldini olishda ko‘proq muvaffaqiyatga erishadilar. Shuning uchun, haydovchilarni tayyorlash jarayonida maxsus kurslar, treninglar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi zarur. Bu jarayon haydovchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Xavfsizlik tizimlari transport vositalarida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy avtomobillarda turli xil xavfsizlik tizimlari mavjud bo‘lib, ular avariyalarni kamaytirishga va haydovchilarni himoya qilishga qaratilgan. Masalan, ABS (anti-lock braking system) tormoz tizimining bloklanishini oldini olishga yordam beradi, ESP (electronic stability program) esa avtomobilning barqarorligini saqlashda qo‘llaniladi. Bunday tizimlar avariyalarda jarohat olish ehtimolini kamaytiradi va haydovchilarga o‘z avtomobillarini boshqarishda ko‘proq ishonch beradi.

Magistral yo‘llarda avtohalokatlarning oldini olishda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va monitoring vositalari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, avariyalarni kamaytirish va transport tizimlarining samaradorligini yaxshilashga qaratilgan.

ISSN 3030-3907



2-rasm Avtomobillarning magistral yo‘llarda harakatlanishda atrof muhitga ta’siri.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ABT) haydovchilarning ishini yengillashtirish va xavfsizlikni oshirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu tizimlar avtomobillarning harakatini nazorat qilish, tezlikni avtomatik ravishda sozlash, to‘g‘ri yo‘lni tanlash va hatto to‘liq avtomatik haydash imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, GPS navigatsiya tizimlari ham magistral yo‘llarda avtohalokatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizimlar haydovchilarga eng qulay va xavfsiz marshrutlarni tanlashda yordam beradi. GPS orqali beriladigan real vaqtli ma’lumotlar haydovchilarga tirbandliklardan qochish, yo‘l sharoitlarini baholash va xavfli joylardan uzoqlashishga imkon beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt (SI) asosidagi tizimlar ham avtohalokatlarning oldini olishda katta imkoniyatlarga ega. SI algoritmlari katta ma’lumotlarni tahlil qilish orqali avariya ehtimolini aniqlash va oldini olish uchun strategiyalar ishlab chiqishi mumkin. Masalan, sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan model avariyalar sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylarni prognoz qilishi va bu haqda haydovchilarni ogohlantirishi mumkin.

XULOSA QILIB AYTGANDA. magistral yo‘llarda avtohalokatlarning oldini olishda zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va monitoring vositalari muhim rol o‘ynaydi. Ular haydovchilarning xavfsizligini ta’minlash, avariyalarni kamaytirish va transport tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali yo‘l harakati xavfsizligini yanada yaxshilash mumkin bo‘ladi. Har bir transport ishtirokchisi

ISSN 3030-3907

uchun bunday texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘z hayotini, balki boshqalar hayotini ham himoya qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tojiyev M., Nig‘matov H. Hayot faoliyati xavfsizligi //Toshkent. Tafakkur bo‘stoni–2012. – 2012.
2. Farxod o‘g‘li, Pardaqulov Asliddin. "MEHNAT MUHOFAZASI VA UNING XAVFSIZLIGI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.1 (2024): 82-89.
3. Parmanov A. Y., Shakirov S. S., Dadayev G. T. Mehnat muhofazasi //O‘quv qo‘llanma. Toshkent–ILM ZIYO-2012.
4. L. Evans, *Traffic Safety and the Driver*. New York, NY, USA: Van Nostrand Reinhold, 1991.
5. J. R. Treat, "A study of precrash factors involved in traffic accidents," *HSRI Research Review*, vol. 10, no. 6, pp. 1–35, 1980.
6. P. L. Olson, D. E. Cleveland, P. S. Fancher, L. P. Kostyniuk, and L. Evans, *Parameters Affecting Stopping Sight Distance*. Washington, D.C., USA: Transportation Research Board, 1984.
7. L. Evans, "Traffic crash involvement and the relation to vehicle defects," *Accident Analysis & Prevention*, vol. 26, no. 4, pp. 511–519, Aug. 1994.
8. [5] A. Smiley, "The role of vehicle factors in road safety," in *Proc. Int. Conf. Traffic Saf.*, Toronto, ON, Canada, Jun. 2005, pp. 45–52.
9. R. K. Noy, "Task analysis and driver behavior," in *Handbook of Human Factors and Ergonomics*, 2nd ed., G. Salvendy, Ed. New York, NY, USA: Wiley, 1997, ch. 30, pp. 852–887.
10. L. Aarts and I. van Schagen, "Driving speed and the risk of road crashes: A review," *Accident Analysis & Prevention*, vol. 38, no. 2, pp. 215–224, Mar. 2006.
11. R. Elvik, P. Christensen, and A. Amundsen, "Speed and road accidents: An evaluation of the Power Model," *Transportation Research Part F: Traffic Psychology and Behaviour*, vol. 7, no. 3, pp. 139–153, May 2004.
12. D. Shinar, *Traffic Safety and Human Behavior*. Bingley, U.K.: Emerald Group Publishing, 2007.
13. Federal Highway Administration, *Manual on Uniform Traffic Control Devices (MUTCD)*. Washington, D.C., USA: U.S. Department of Transportation, 2009.
14. R. E. Dewar and P. L. Olson, *Human Factors in Traffic Safety*, 2nd ed. Tucson, AZ, USA: Lawyers & Judges Publishing, 2007.
15. R. R. Knipling, M. Mironer, D. L. Hendricks, L. Tijerina, and J. Everson, "Assessment of collision avoidance systems," U.S. Department of Transportation,

ISSN 3030-3907

National Highway Traffic Safety Administration, Washington, D.C., USA, Rep. DOT HS 808 143, 1995.

16. A. M. Williamson, A. M. Feyer, R. Friswell, and S. Finlay-Brown, "Driver fatigue: A survey of long distance transport companies in Australia," Australian Transport Safety Bureau, Canberra, ACT, Australia, Rep. CR 205, 2001.

17. D. F. Dinges, "An overview of sleepiness and accidents," *Journal of Sleep Research*, vol. 4, no. S2, pp. 4–14, Dec. 1995.

18. T. Åkerstedt, "Consensus statement: Fatigue and accidents in transport operations," *Journal of Sleep Research*, vol. 9, no. 4, p. 395, Dec. 2000.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON XALQARO SAVDOSIDA NAZARIY ASOSLAR TAHLIL VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich
Andijon davlat texnika instituti
E-mail: shodmonovsayidbek@gmail.com;
Tel.:+998993217989.
Sharifjonov Sarvarbek Mirzaakbar o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Transport logistika yo‘nalish 4-kurs talabasi
E-mail: Sarvarbeksharifjonov@gmail.com
Tel.:+99888-838-04-48

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining xalqaro savdodagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari har tomonlama tahlil qilinadi. Xalqaro savdoning nazariy asoslari, klassik va zamonaviy yondashuvlar, mintaqaviy hamda milliy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, so‘nggi yillarda olib borilgan empirik tadqiqotlar chuqur o‘rganiladi. O‘zbekiston eksport va importining so‘nggi 5 yildagi statistik ko‘rsatkichlari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro savdoni rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda istiqbollari haqida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro savdo, O‘zbekiston, eksport, import, diversifikatsiya, taraqqiyot, bosqich,, tadqiqot,masofa,yo‘l,texnologiya,bosqich.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan’s role in international trade, its developmental stages, and current trends. Theoretical foundations of international trade, classical and modern approaches, regional and national scholars’ scientific views, as well as recent empirical studies are thoroughly examined. The article analyzes detailed statistical indicators of Uzbekistan’s export and import over the past 5 years. The study also addresses challenges in the development of international trade and offers scientific conclusions regarding solutions and future prospects.

Keywords: international trade, Uzbekistan, export, import, diversification, development, stage, research, distance, path, technology, stage.

Аннотация. В статье всесторонне анализируется место Республики Узбекистан в международной торговле, этапы ее развития и современные тенденции. Подробно рассматриваются теоретические основы международной торговли, классические и современные подходы, научные взгляды региональных и национальных ученых, а также эмпирические исследования последних лет. Подробно анализируются статистические показатели экспорта и импорта Узбекистана за последние 5 лет. В статье

представлены научные выводы о проблемах, возникающих в развитии международной торговли, а также путях и перспективах их решения.

Ключевые слова: международная торговля, Узбекистан, экспорт, импорт, диверсификация, развитие, этап, исследование, расстояние, дорога, технология, этап.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida xalqaro savdoni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Jahon iqtisodiy tizimidagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari va mintaqaviy integratsiya O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Xalqaro savdo mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [1]. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan ochiq iqtisod siyosati, eksportni rag‘batlantirish va importni diversifikatsiya qilish borasidagi islohotlar mamlakat xalqaro savdo salohiyatining sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, xalqaro savdo sohasida yuzaga kelayotgan muammolar, ichki va tashqi omillarni chuqur o‘rganish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada xalqaro savdoning nazariy asoslari, tarixiy rivojlanish bosqichlari va O‘zbekistonda bu sohada olib borilayotgan islohotlar, so‘nggi besh yillikdagi eksport-import jarayonlari, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ilmiy asosda tahlil qilinadi [2].

Xalqaro savdoning nazariy asoslari va uni tahlil qilishda zamonaviy iqtisodiy fanlar tarixida bir qator fundamental yondashuvlar va konsepsiyalar shakllangan. Bu borada dastlab merkantilizm nazariyasini tilga olish maqsadga muvofiq. Merkantilizm XVI-XVIII asrlarda Yevropada shakllangan bo‘lib, davlatning boyligini asosan tashqi savdodan tushadigan sof daromadlar, ya’ni eksport va import o‘rtasidagi farq bilan o‘lchashga asoslangan edi [3,4]. Bu davrda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun eksportni rag‘batlantirish, importni cheklash asosiy vosita sifatida qaralgan. Keyingi davrlarda klassik iqtisodiy maktab vakillari, jumladan Adam Smit va David Rikardo, xalqaro savdoda mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarini ilgari surdilar. Adam Smitning mutlaq ustunlik nazariyasiga ko‘ra, har bir davlat o‘zida eng samarali ishlab chiqariladigan mahsulotni eksport qilishi va boshqalar tomonidan samarali ishlab chiqariladigan mahsulotni import qilishi kerak. David Rikardo esa nisbiy ustunlik konsepsiyasini ishlab chiqdi va har bir mamlakat o‘zida nisbatan samaraliroq ishlab chiqariladigan mahsulotni eksport qilish orqali umumiy farovonlikka erishilishi mumkinligini asoslab berdi [5-8].

ISSN 3030-3907

ADABIYOT TAHLILI. Haydovchilar o‘rtasidagi muloqot va yo‘l belgilaridan foydalanish masalalari transport psixologiyasi va ergonomika sohalarida keng o‘rganilgan. Shinar [9] o‘zining klassik ishida samarali vizual muloqot (aylanish signallari, faralar, ogohlantiruvchi signallar) avariyalarning oldini olishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Yo‘l belgilarining standartlashtirilgan tizimi (MUTCD – Manual on Uniform Traffic Control Devices) xalqaro miqyosda qabul qilingan bo‘lib, har bir haydovchi ushbu belgilarning ma’nosini bilishi va ularga so‘zsiz amal qilishi kerak [10]. Dewar va Olson [11] tadqiqotiga ko‘ra, yo‘l belgilarini noto‘g‘ri tushunish yoki ularga e’tibor bermaslik barcha avariyalarning 8-12 foiziga sabab bo‘ladi.

Xavfsiz masofani saqlash qoidasi fizika va harakat mexanikasi qonunlariga asoslangan. Knipling va boshqalar [12] tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko‘ra, oldingi transport vositasiga yetarlicha masofani saqlamaslik to‘satdan tormozlanish holatlarida reaktiv vaqt va to‘xtash masofasini hisobga olmagan holda avariyaga olib keladi. O‘rtacha haydovchining reaksiya vaqti 0,7-1,5 sekundni tashkil etadi, bu vaqt ichida 100 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtomobil 20-40 metr masofani bosib o‘tadi [2], [12]. “Ikki sekund qoidasi” (yoki yomon ob-havo sharoitida “to‘rt sekund qoidasi”) xalqaro amaliyotda xavfsiz masofani aniqlashning standart usuli hisoblanadi [1].

NATIJA. Xalqaro savdo nazariyalarining rivojlanishida klassik yondashuvdan tashqari, neoklassik va zamonaviy yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, Heckscher-Ohlin modeli resurslarning bir xil bo‘lmagan taqsimlanishi va ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, yer) kombinatsiyasi asosida davlatlar o‘rtasida savdo yuzaga kelishini izohlaydi. Bu modelga ko‘ra, har bir mamlakat o‘zida ko‘proq va arzonroq bo‘lgan resursga asoslangan mahsulotlarni eksport qiladi. Keyinchalik Leontief paradoksi bu modelga tanqidiy yondashuvlarni kuchaytirdi. Leontief AQSH misolida kapitalga boy mamlakatda asosan mehnat talab qiluvchi mahsulotlar eksport qilinishini aniqladi va bu Heckscher-Ohlin modeliga zid natija sifatida tarixda qoldi. Zamonaviy zaminda esa yangi savdo nazariyalari (New Trade Theory), jumladan, Paul Krugman va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan model, miqyos iqtisodiyoti, mahsulotlarning differensiallashuvi va ichki soha raqobatining xalqaro savdoga ta’sirini asoslab berdi [9].

Xalqaro savdoning tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududi qadimdan transkontinental savdo yo‘llari, xususan, Buyuk ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim iqtisodiy, madaniy va savdo aloqalarining markazi bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda xalqaro savdo rivojlanib, xorijiy savdogarlar, hunarmandlar va sarmoyadorlar faoliyat olib borgan. Mustaqillikdan so‘ng,

ISSN 3030-3907

O‘zbekistonning xalqaro savdosi yangi bosqichga ko‘tarilib, davlat tomonidan ochiq iqtisod va tashqi savdo siyosati bosqichma-bosqich joriy qilindi. 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab, O‘zbekistonda eksport va import tarkibi, savdo hamkorlari geografiyasi, bojxona va savdo siyosati tubdan o‘zgara boshladi. Xususan, dastlabki bosqichlarda O‘zbekiston eksportida paxta tolasi, gaz, rangli metallar asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, so‘nggi yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar, transport vositalari, oziq-ovqat va xizmatlar ulushi ortib bormoqda [3].


O‘zbekistonda xalqaro savdo sohasidagi islohotlar, asosan, 2016 yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, bojxona tartib-taomillari soddalashtirildi, savdo infratuzilmasi rivojlantirildi, eksportni rag‘batlantirish maqsadida bir qator huquqiy va institutsional mexanizmlar joriy qilindi. Bojxona rasmiylashtiruvi onlayn tizimlarga o‘tkazildi, eksportchi korxonalarga kredit, subsidiyalar va boshqa moliyaviy imtiyozlar berildi. Mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayoni jadallashtirildi va xalqaro savdo standartlariga moslashtirish ishlari olib borildi. Savdo hamkorlari geografiyasi ham kengayib, an’anaviy MDH davlatlaridan tashqari, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, BAA va boshqa davlatlar bilan hamkorlik kuchaydi. Eksport tarkibida mineral mahsulotlar, rangli metallar, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ulushi ortib bormoqda. Importda esa mashinasozlik, transport vositalari, kimyo va farmatsevtika, oziq-ovqat va iste’mol mollari asosiy o‘rinni egallamoqda.

Empirik tadqiqotlar va zamonaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xalqaro savdo dinamikasi so‘nggi besh yillikda sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ma’lum qilinishicha, O‘zbekiston 2021 yilda 182 davlat bilan jami 42,1 milliard dollarlik savdo qilgan. Bu ko‘satkich 2025-yilga kelib 210 ta davlat bilan 81.2 milliard savdo aloqalarni olib borgan.

Eksport tarkibida sanoat mahsulotlari, energiya resurslari, oziq-ovqat va to‘qimachilik mahsulotlari ulushi ortib, paxta tolasi va gaz eksportining nisbiy ulushi kamaymoqda. Import tarkibida esa mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo va farmatsevtika, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy o‘rinni egallaydi. Quyidagi rasmda O‘zbekistonning 2021-2025 yillardagi eksport va import hajmining dinamikasi ko‘rsatilgan:

Rasm: O‘zbekiston eksport va importining 2021-2025 yillardagi dinamikasi (mlrd. AQSH dollari)

ISSN 3030-3907



1-Dioramma: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Yuqoridagi dinamik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston eksporti va importi hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, biroq import hajmining eksportdan yuqoriligi savdo balansida salbiy saldoga olib kelmoqda. Bu holat iqtisodiy taraqqiyot uchun muayyan xavf va muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bois, eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro savdo logistikasini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro savdo sohasida olib borilgan empirik tadqiqotlar ham O‘zbekistonda bu sohaning o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. Masalan, X. Yusupov va T. Qodirov tomonidan olib borilgan tahlillarda O‘zbekistonning eksport salohiyati, eksport geografiyasining kengayishi, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va eksportchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Empirik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, eksport hajmining ortishi, mahsulotlar tarkibining diversifikatsiyasi, yangi xorijiy bozorlarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish texnologiyalarining zamonaviylashuvi va logistika tizimining rivojlanishi O‘zbekiston xalqaro savdosining asosiy drayverlari hisoblanadi[5].

Yuqorida keltirilgan nazariy, empirik va tanqidiy tahlillar asosida O‘zbekiston xalqaro savdosining zamonaviy rivojlanish bosqichlari, muammolari va istiqbollari ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilgan. Bu jarayonda xalqaro savdoning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, mintaqaviy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari, empirik tadqiqotlar natijalari va zamonaviy tahlillar, tanqidiy nuqtai nazarlar va takliflar uzviy bog‘liq holda tahlil qilindi.

ISSN 3030-3907

XULOSA.

O‘zbekiston xalqaro savdosining zamonaviy rivojlanish bosqichlari, so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar va natijalar, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar chuqur tahlil qilindi. Xalqaro savdoning nazariy asoslari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy yondashuvlar, mintaqaviy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari, empirik tadqiqotlar natijalari va tanqidiy nuqtai nazarlar asosida O‘zbekiston xalqaro savdosi rivojlanishining asosiy omillari va muammolari aniqlab berildi. So‘nggi besh yillikda eksport va import hajmining sezilarli o‘sishi, eksport tarkibining diversifikatsiyasi, yangi xorijiy bozorlarni o‘zlashtirish, logistika va transport infratuzilmasining rivojlanishi, elektron savdo va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarining kengayishi O‘zbekiston xalqaro savdosining asosiy drayverlari bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. 11th Edition. Pearson.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo statistikalari. https://stat.uz
4. Xudoyberganov, O. (2020). O‘zbekiston tashqi savdo siyosati va uni rivojlantirish yo‘llari. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.
5. Yusupov, X., & Qodirov, T. (2022). O‘zbekiston eksport salohiyati va uni oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot va tadbirkorlik jurnali, 2(4), 45-58.
6. Nurmuxamedov, M. (2021). Xalqaro savdo va logistika: zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. L. Evans, Traffic Safety and the Driver. New York, NY, USA: Van Nostrand Reinhold, 1991.
8. J. R. Treat, "A study of precrash factors involved in traffic accidents," HSRI Research Review, vol. 10, no. 6, pp. 1–35, 1980.
9. P. L. Olson, D. E. Cleveland, P. S. Fancher, L. P. Kostyniuk, and L. Evans, Parameters Affecting Stopping Sight Distance. Washington, D.C., USA: Transportation Research Board, 1984.
10. L. Evans, "Traffic crash involvement and the relation to vehicle defects," Accident Analysis & Prevention, vol. 26, no. 4, pp. 511–519, Aug. 1994.
11. A. Smiley, "The role of vehicle factors in road safety," in Proc. Int. Conf. Traffic Saf., Toronto, ON, Canada, Jun. 2005, pp. 45–52.
12. R. K. Noy, "Task analysis and driver behavior," in Handbook of Human Factors and Ergonomics, 2nd ed., G. Salvendy, Ed. New York, NY, USA: Wiley, 1997, ch. 30, pp. 852–887.

ISSN 3030-3907

13. L. Aarts and I. van Schagen, "Driving speed and the risk of road crashes: A review," Accident Analysis & Prevention, vol. 38, no. 2, pp. 215–224, Mar. 2006.
14. R. Elvik, P. Christensen, and A. Amundsen, "Speed and road accidents: An evaluation of the Power Model," Transportation Research Part F: Traffic Psychology and Behaviour, vol. 7, no. 3, pp. 139–153, May 2004.

ISSN 3030-3907

SUV XO‘JALIGI NASOS STANSIYALARIDA ASINXRON ELEKTR YURITMALARNING ENERGIYA SARFINI KAMAYTIRISH

Axmedov Durbek Madaminjon o‘g‘li
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nasos stansiyalaridagi asinxron elektr yuritmalarning energiya samaradorligi real ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Gidravlik va elektr parametrlar asosida model ishlab chiqilib, maxsus energiya sarfi (SEC) mezoni qo‘llandi. Tezlikni optimallashtirish orqali energiya sarfi 28–45% gacha kamayishi aniqlandi. Natijalar energiya tejamkor boshqaruvni ta’minlaydi va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: nasos agregati, asinxron dvigatel, energiya samaradorligi, optimallashtirish, maxsus energiya sarfi, chastota o‘zgartirgich.

Аннотация. В данной работе исследована энергоэффективность асинхронных электроприводов насосных станций на основе реальных данных. Разработана модель с использованием гидравлических и электрических параметров, применён показатель удельного энергопотребления (SEC). Оптимизация скорости позволила снизить энергопотребление на 28–45%. Результаты обеспечивают энергосберегающее управление и имеют практическое значение.

Ключевые слова:насосный агрегат, асинхронный двигатель, энергоэффективность, оптимизация, удельное энергопотребление, частотный преобразователь.

3. Kholtayeva A. K. (2025) “STUDY OF THE EFFECT OF SIKAMENT RMC-519 AND SIKA RETARDER SUPERPLASTICIZERS ON CONCRETE PROPERTIES” Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), ISSN (E): 2347-6915, Vol. 13, Issue 3 March (2025)112-124.

4. assist. A.K. Xoltayeva, tal. A.Qozoqov, (2022). “SIKAMENT RMC-519” SUPERPLASTIFIKATORINI PORTLANDSEMENT XOSSALARIGA TA’SIRINI O‘RGANISH” collection of materials of the international scientific and scientific and technical conference Namangan City, December 15-17. 248-252.

5. Холтаева А.К., Холбобоев О.О. (2022) “Sikament RMC-519” ва “Sika Retarder” перпластификаторларини портландцемент ва шлакпортландцемент хоссаларига таъсирини ўрганиш. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi – 10/3-2022. ISSN 2091-573 X. http://mamun.uz/uz/page/56. 122-125.
6. Shadmanova Z.S., Kholtaeva A.K. and Nozimov D. (2021) “Исследование влияния суперпластификаторов на физико-механические свойства бетона” Modern science International scientific journal № 6 Vol., I. 2021. Founder and publisher: “Strategic Studies Institute” LLC. ISSN 2414-9918. pp. 35-38.

ШАҲАР ҲУДУДЛАРИНИНГ ЗАХЛАШИГА ЕР ОСТИ СУВЛАРИ САТҲИ КЎТАРИЛИШИНИНГ ГИДРОДИНАМИК ЖИҲАТЛАРИНИ ТАЪСИРИ

Б.Д. Абдуллаев
«Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти» миллий тадқиқот университети
Ш.Т. Иргашев
Тошкент шаҳар ҳокимлиги
Б.Р. Насибов
«Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти» миллий тадқиқот университети

Аннотатция. Ушбу мақолада шаҳар ҳудудларининг захлашига ер ости сувлари сатҳи кўтарилишининг гидродинамик ва гидрогеокимёвий жиҳатлари тизимли таҳлил қилинган. Тадқиқотда тузлар ва сув ҳаракатининг урбоэкологик муҳитга таъсири, тизимларнинг иерархик тартиби ва характерли майдонлари асосида табақалаш усули қўлланилган. Гидрогеологик тузилишнинг муайянлик даражаси ва бирламчи сабаблари ўрганилиб, шаҳар шароитидаги сувларнинг модификацияланиш жараёнлари тавсифланган. Тадқиқотда ҳудуднинг захлаш ҳодисасига мойиллигини белгиловчи тизимли омиллар ва геокимёвий таснифлашнинг ўзига хос таксон ҳамда мезонлари ишлаб чиқилган. Мақолада аҳоли яшаш пунктларидаги захлаш муаммосини бартараф этиш учун гидродинамик жараёнларни бошқаришнинг илмий асослари баён этилган. Тадқиқот натижалари шаҳарсозлик ва экологик мониторинг тизимларини такомиллаштиришда муҳим аҳамият касб этади. Тадқиқот давомида С.Ф. Аверьянов тенгламаси асосида тузлар ва сув ҳаракатининг динамикаси ўрганилиб, грунт сувларининг минераллашув даражаси ва емирувчанлик хусусиятлари аниқланган. Ҳудуднинг захлашга мойиллигини белгиловчи тизимли омиллар, гидрогеологик тузилишнинг муайянлик сабаблари ва характерли майдонлар бўйича табақалаш усуллари қўлланилган. Натижада, шаҳар урбоэкологик муҳитини соғломлаштириш ва бинолар пойдеворини сулфатли емирилишдан ҳимоя қилиш учун модификация қилинган сувларнинг геокимёвий таснифи ҳамда таксономик мезонлари ишлаб чиқилган бўлиб, улар мелиоратив тадбирларни режалаштиришда илмий асос бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлар. Захлаш, ер ости сувлари, урбоэкология, гидрогеокимё, иерархик тизим, геокимёвий тасниф, С.Ф. Аверьянов тенгламаси, сулфатли емирилиш, мелиоратив тадбирлар, мониторинг.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article presents a systemic analysis of the hydrodynamic and hydrogeochemical aspects of rising groundwater levels leading to waterlogging in urban areas. The research employs a differentiation method based on hierarchical orders of systems and characteristic areas to study the impact of salt and water movement on the urbo-ecological environment. The degree of determinacy of the hydrogeological structure and its primary causes are examined, and the modification processes of water in urban conditions are described. Systemic factors determining the area's susceptibility to waterlogging, as well as specific taxons and criteria for geochemical classification, have been developed. The article outlines the scientific basis for managing hydrodynamic processes to eliminate waterlogging issues in residential areas. The results are of significant importance for improving urban planning and environmental monitoring systems. During the study, the dynamics of salt and water movement were analyzed using the S.F. Averyanov equation, and the mineralization levels and corrosive properties of groundwater were determined. Consequently, a geochemical classification and taxonomic criteria for modified waters have been developed to improve the urban environment and protect building foundations from sulfate corrosion, serving as a scientific foundation for planning land reclamation measures.

Keywords. Waterlogging, groundwater, urboecology, hydrogeochemistry, hierarchical system, geochemical classification, S.F. Averyanov equation, sulfate corrosion, land reclamation measures, monitoring.

Аннотация. В данной статье представлен системный анализ гидродинамических и гидрогеохимических аспектов повышения уровня грунтовых вод, приводящего к подтоплению городских территорий. В исследовании применен метод дифференциации на основе иерархического порядка систем и характерных площадей для изучения влияния движения солей и воды на урбоэкологическую среду. Изучена степень определенности гидрогеологического строения и его первопричины, а также описаны процессы модификации вод в городских условиях. Разработаны системные факторы, определяющие склонность территории к подтоплению, а также специфические таксоны и критерии геохимической классификации. В статье изложены научные основы управления гидродинамическими процессами для устранения проблемы подтопления в населенных пунктах. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования систем градостроительства и экологического мониторинга. В ходе исследования на основе уравнения С.Ф. Аверьянова изучена динамика движения солей и воды, определены уровень минерализации и агрессивные свойства грунтовых вод. В результате

ISSN 3030-3907

разработаны геохимическая классификация и таксономические критерии модифицированных вод для оздоровления городской среды и защиты фундаментов зданий от сульфатной коррозии, что служит научной базой для планирования мелиоративных мероприятий.

Ключевые слова. Подтопление, грунтовые воды, урбоэкология, гидрогеохимия, иерархическая система, геохимическая классификация, уравнение С.Ф. Аверьянова, сульфатная коррозия, мелиоративные мероприятия, мониторинг.

КИРИШ.

Замонавий шаҳарсозлик ва урбоэкологиянинг энг долзарб муаммоларидан бири - шаҳар ҳудудларида ер ости сувлари сатҳининг кўтарилиши натижасида юзага келадиган захлаш жараёнлари ва уларнинг гидродинамик ҳамда гидрогеокимёвий оқибатларини илмий асослашдир [1-3]. Аҳоли яшаш пунктларининг жадал кенгайиши, техноген юкламаларнинг ортиши ва муҳандислик коммуникацияларининг носозлиги ер ости сувларининг табиий мувозанатини бузиб, ҳудудларнинг мелиоратив ҳолатини ёмонлаштирмоқда [4-6]. Бу жараёнда тузлар ва сувнинг ҳаракати нафақат физик, балки мураккаб кимёвий ўзгаришларни ҳам келтириб чиқаради. Гидрогеокимёвий жиҳатдан захлаш ҳодисаси - бу грунт сувларининг минераллашув даражаси ортиши ва тузларнинг вертикал ҳамда горизонтал миграцияси натижасида шаҳар ландшафтларининг деградацияга учрашидир. Ушбу жараёнларни тизимли таҳлил қилиш учун тизимлар тартиби (даражаси) ва характерли майдонларни (км²) аниқлаш, шунингдек, табақалаш (ажратиш) усулларидан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Муайянлик ёки бирламчи сабаб омилларини ўрганиш орқали биз шаҳар ҳудудларидаги сув-туз балансининг бузилишига олиб келувчи асосий гидрогеологик механизмларни тушуниб олишимиз мумкин [7-9].

Тизимларнинг гидрогеологик тузилиши ва уларнинг ташқи омилларга реакцияси шаҳар экотизимларининг барқарорлигини белгиловчи асосий мезон ҳисобланади. Захлаш ҳодисасига мойилликни аниқлашда модификация қилинган сувларнинг геокимёвий таснифи алоҳида ўрин тутади, чунки инсон фаолияти таъсирида табиий сувларнинг таркиби тубдан ўзгариб, янги гидрокимёвий фацияларни ҳосил қилади [10-13]. Ушбу мақолада қўлланилган таксон ва мезонлар мажмуаси ҳудудларни нафақат сув сатҳи бўйича, балки кимёвий тажовузкорлик ва шўрланиш даражаси бўйича ҳам синфларга ажратиш имконини беради. Ҳудуднинг захлаш ҳодисасига мойиллигини тизимли омиллари — рельефнинг паст-баландлиги, грунтларнинг фильтрацион хоссалари ва литологик тузилиши билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар гидродинамик кучлар таъсирида ер

ISSN 3030-3907

ости сувларининг ер юзасига яқинлашишини тезлаштиради. Шу сабабли, шаҳар гидрогеологик тизимини бир бутун объект сифатида қараб, унинг ҳар бир элементини микро ва макро даражада ўрганиш, келажакдаги экологик хавфларни прогноз қилишнинг ягона йўлидир. Хозинги кунда ер ости сувлари ва унинг сатх, сифат ўзгаришлари замонавий моделлар ва дастурлар ёрдамида аниқланиб келинмоқда. Бази дастурлар қишлоқ хужалигининг ер ости сувлари ўртасидаги боғоиқликнинг ечимларини аниқлаштириш вазифасини бажариб хам беради [14-18].

Инженерлик иншоотларининг барқарорлиги ва аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш мақсадида, захлаш жараёнларининг олдини олиш ва бартараф этиш стратегияларини ишлаб чиқиш зарур. Бу стратегиялар негизида гидродинамик моделлар ва тизимли ёндашув ётиши керак бўлиб, улар ер ости сувлари оқимининг йўналиши ва тезлигини, шунингдек, эриган моддаларнинг тарқалиш қонуниятларини инобатга олади. Табақалаштирилган ёндашув ёрдамида ҳар бир характерли майдон учун индивидуал мелиоратив тадбирлар (масалан, ёпиқ горизонтал дренажлар ёки вертикал қудуқлар тизими) белгиланиши лозим. Гидрогеокимёвий кўрсаткичларнинг таксономик таҳлили эса сувларнинг тажовузкорлигини пасайтириш ва биноларнинг пойдевор қисмини коррозиядан ҳимоя қилиш чораларини кўришга асос бўлади. Пировард натижада, шаҳар ҳудудларининг захлашини бошқариш — бу нафақат сув сатҳини тушириш, балки шаҳарнинг бутун гидросферасини соғломлаштириш, табиий ва техноген сув айланиш жараёнларини мувозанатга келтириш демакдир. Ушбу илмий тадқиқот айнан шундай мураккаб муаммоларнинг ечимига қаратилган бўлиб, методологик жиҳатдан янги тизимли таснифларни таклиф этади.

МЕТОД. Тадқиқотнинг услубий асосини шаҳар ҳудудларини тизимли-иерархик таҳлил қилиш ва гидрогеокимёвий жараёнларни математик моделлаштириш ташкил этади. Гулистон шаҳри ҳудуди бир неча тартибдаги тизимларга ва характерли майдонларга (км²) ажратилди. Бунда табақалаш усулидан фойдаланилиб, ҳар бир зонанинг гидрогеологик тузилиши ва ер ости сувлари оқимининг шаклланиш шароитлари индивидуал баҳоланди. Гидрогеокимёвий жиҳатларни ўрганишда С.Ф. Аверьяновнинг конвектив-диффузион моделидан фойдаланилди [19]. Ушбу метод ёрдамида грунт ғовакларидаги сувнинг ҳақиқий тезлиги (V), диффузия коэффициенти (D) ва эриш коэффициенти (β) ўртасидаги боғлиқлик ҳисоблаб чиқилди. Шунингдек, "муайянлик ёки бирламчи сабаб" тамойили асосида захлаш манбалари статистик таҳлил қилинди.

ISSN 3030-3907

Ҳудудни табақалаш (ажратиш) усули ёрдамида шаҳар майдони гидродинамик мураккаблигига кўра бир неча тизимларга ажратилди [20]. Натижалар шуни кўрсатадики, характерли майдони 5–10 км² бўлган локал тизимларда ер ости сувлари сатҳининг кўтарилиши асосан коммунал тармоқлардан сув сизиб чиқиши (муайянлик сабаби) билан боғлиқ. Каттароқ, яъни 50–100 км² гача бўлган минтақавий тизимларда эса захлаш ҳодисаси табиий гидрогеологик тузилиш ва дарё оқимларининг таъсирида шаклланади. Тузлар ва сувнинг ҳаракати динамикаси таҳлили шуни кўрсатдики, захлаган ҳудудларда сувнинг минераллашув даражаси табиий фонга нисбатан 2,5–4 баробарга ортган. Модификация қилинган сувларнинг геокимёвий таснифи асосида қуйидаги таксон ва мезонлар аниқланди.

НАТИЖА ВА УЛАРНИНГ МУХОКАМАСИ. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, шаҳар ҳудудларида сизот сувларининг чегаравий ҳолати геологик-структуравий шароитлар ва табиий дренажланганлик даражаси билан бевосита боғлиқдир. Ҳудудларнинг захланиш жараёни динамик хусусиятга эга бўлиб, у "захламаган" ҳолатдан барқарор захлаш босқичигача бўлган эволюцион йўлни босиб ўтади. Бунда грунт қатламларининг фильтрация хусусиятлари ва сув сатҳи қиялиги каби омиллар захланиш суръатини белгиловчи асосий кўрсаткичлар бўлиб хизмат қилади. Қурилиш меъёрларида (СН ва П 2.06.15-85) белгиланган қуритиш нормаларидан четлашиш, йиллар давомида сув сатҳининг аста-секин кўтарилишига ва гидрогеологик мувозанатнинг бузилишига олиб келиши аниқланди.

Захланиш ҳодисасининг ривожланиши учта асосий босқичда намоён бўлиши тасдиқланди: бошланғич (аста-секин кўтарилиш), оралиқ (мавсумий тебраниш ва юқори амплитуда) ҳамда якуний (барқарор паст чуқурлик) босқичлар. Айниқса, дренаж тизими мавжуд бўлмаган шароитларда сув режими фақат эвапотранспирация ва вегетация давридаги суғоришлар ҳисобига шаклланиши кузатилди. Якуний босқичда сув сатҳи тебранишлари амплитудасининг камайиши келувчи ва сарфланувчи сув миқдорининг критик мувозанатга келганлигини кўрсатади, бу эса ҳудуднинг мелиоратив ҳолатини тубдан яхшилаш учун сунъий дренаж тизимларини жорий этиш зарурлигини илмий жиҳатдан асослайди. Шаҳарнинг геологик кенглигидаги сизот сувлари массиви ташқи ва ички чегаравий шартлар билан чегараланган ёки бир-бири билан ўзаро боғлиқ бўлган алоҳида фильтрацион блокларга бўлинган. Ҳар бир блок ва умуман массив латерал чегаралар билан тавсифланади, шунингдек, грунт сувларининг сатҳи ва уларни сиғдирган сувли қатлам таги ҳам чегара вазифасини ўтайди. Латерал чегаралар бўйлаб грунт сувларининг блок ёки

ISSN 3030-3907

массив контури ичига оқиб келиши ва ундан ташқарига оқиб чиқиши таъминланади. Грунт сувлари сатҳига атмосфера ёғинлари ва ер усти сувлари инфильтрация бўлади ва сизиб ўтади. Грунт сувлари сатҳидан аэрация зонасига капилляр кўтарилиш содир бўлади ва у ердан сув эвапотранспирацияга сарфланади. Грунт сувлари сатҳидан сизиб ўтган сувлар сувли қатлам ҳажми бўйлаб тарқалади ва ундан латерал йўналишда оқиб кетади ёки пастки сувли қатламларга сизиб ўтади. Ва аксинча — грунт сув қатламининг таги орқали пастки сувли қатламлардан юқорига сув ўтиши мумкин. Агар шундай таъриф берадиган бўлсак, «шаҳар грунт сувлари массиви» маҳаллий сув алмашинуви тизимининг бир бўлинмаси ҳисобланади, унинг таги орқали эса минтақавий сув алмашинуви тизими бўлинмалари билан ўзаро таъсир амалга ошади.

Грунт сувлари қатламининг мавжудлиги кўриб чиқилган тартибда, захлаш ҳодисаси— сувнинг унга келиб тушиши сарфланишидан ортиб кетиши натижасидир. Аэрация зонаси сув билан тўйинганда, захлаш жараёни сув босиши шаклига ўтади. СНиП 2.06.15-85 иловасида келтирилган таърифга кўра: «Сув босиши — сув оқими, сув ҳавзаси ёки ер ости сувлари сатҳининг кўтарилиши натижасида ҳудуд майдонида эркин сув юзасининг ҳосил бўлишидир». Ер юзасида (ҳудудда) сув босиш ҳодисаси нафақат аэрация зонасининг сув билан ҳаддан ташқари тўйиниши, балки аксинча — жинсларнинг сув-физикавий хусусиятлари билан боғлиқ бўлган инфильтрация ва фильтрациянинг заифлиги туфайли ҳам содир бўлади. Ўз навбатида, захлаш ҳодисаси аэрация зонаси жинсларининг сув билан тўйинишига олиб келгани сабабли, уларнинг сув-физикавий хусусиятларини ўзгартиради. Сув билан тўйиниш лёсс ва лёссимон жинсларда чўкиш ҳодисаларини (6), кумок — майда донали ва гилли қумлар ҳамда қумлоқларда эса — тиксотропияни (механик таъсирда суюқланиш) келтириб чиқаради. Тоғ жинсларнинг сув билан тўйиниши уларга дастлаб хос бўлган таркибий боғланишларни ўзгартиради ва уларнинг текстурасини (тузилишини) бузади (6). Бунда кўпинча жинсларнинг ғоваклиги ва уларнинг фильтрация коэффициентлари камаяди. Бу ҳолатдан келиб чиқадиган хулоса шуки, захлаш жараёнида сув босган қатламларнинг сув-физикавий хусусиятлари вақт ўтиши билан ўзгаради ёки барқарор бўлмай қолади.

Минтақавий миқёсда захлаш ҳодисаси (ер ости сувлари кўтарилиши), хусусан — шаҳар ҳудудларида, катта ва ўрта дарё водийлари ҳамда дельталарида, тоғлараро ва тоғ олди ботиқликларида ҳамда чекка букилмаларда намоён бўлади. Ўзбекистондаги воҳалар ва улардаги суғориладиган массивлар, одатда, айнан мана шундай геологик-

ISSN 3030-3907

геоморфологик тузилмаларга тўғри келади. Воҳаларнинг гидрогеологик шароитлари суғорма деҳқончиликнинг сув инфратузилмаси таъсирида ўзгартирилган. Унинг асосий таркибий қисми дарё оқими ҳисобланади. Воҳалардаги дарё оқими табиий ва сунъий гидрографик тармоқлар бўйлаб тақсимланади ва суғориш учун ишлатилади. Катта дарё ҳавзаларидаги оқимлар тартибга солинган. Ушбу барча ҳолатлар воҳаларнинг ва уларни ташкил этувчи гидрогеологик-мелиоратив тизимларнинг ер ости сувлари режимида ўз аксини топади. Гидрогеологик тизимларнинг бўйича номенклатураси 1-жадвалда келтирилган. 1-жадвалда келтирилган ташкилий даражалардаги гидрогеологик-мелиоратив тизимлар суғориладиган массивларга хос бўлиб, уларнинг асосини ташкил этади. Сув босган (захлашга учраган) шаҳарлар ва бошқа аҳоли пунктлари воҳаларда жойлашганлигини ҳисобга олсак, уларнинг грунт сувлари массивлари учун жадвалда кўриб чиқилган ташкилий даражалар номенклатурасини қабул қилишда адашмаган бўламиз.

Шаҳар грунт сувлари массивини ташқи ва ички гидродинамик чегаралар бўйича қуйи ташкилий даражадаги массивларга ажратиш захлаш ходисасининг нотекислигини ва, демак, унинг тузилишини ифодалайди. Юқорида айтиб ўтилган шаҳар грунт сувлари массивининг блоклари айнан қуйи ташкилий даражадаги тизимлар бўлиб намоён бўлади. Уларнинг чегаралари сифатида шаҳар ичидаги ирригация ва дренаж тармоқлари элементлари, сув ўтказувчи ва сув ўтказмайдиган жинслар қатламларининг бўлиниш текисликлари хизмат қилади. Бундай чегаралар қаторига, агар улар носоз бўлса, сув қувурлари ва канализация тармоқлари ҳам киради. Ҳар бир муайян шаҳардаги захлашнинг гидродинамик куриниши, унинг омилларининг фазовий-вақт бўйича тақсимланиши хилма-хиллиги туфайли ўзига хос хусусиятларга эга. Бироқ, барча ҳолатларда «шаҳар грунт сувлари массиви» ва унинг шаҳар ичидаги бўлинмаларини ташкил этувчи фазовий оқимнинг узлуксизлиги сақланиб қолади.

Шуни таъкидлаш лозимки, «шаҳар ҳудудларининг захлаши гидрогеологик жараённинг ўзига хос тури бўлиб, у ер ости сувларининг умумий сув айланишидаги ҳаракати, туйиниши, оқими ва тарқалишини, уларнинг тоғ жинслари, атмосфера, гидросфера, тупроқ қоплами, биосфера ҳамда техносфера билан ўзаро таъсиридаги миқдорий ва сифат ўзгаришларини ифодалайди».

Кўриб чиқилган захлаш ходисасининг гидродинамик манзараси ер ости сувлари ҳаракати назариясига (1, 4) зид эмас.

Шахар урбоэкологияси ва ахоли яшаш пунктларидаги захлаш ходисасининг гидрогеокимёвий жиҳатлари

ISSN 3030-3907

Тузлар ва сувнинг ҳаракатини, С.Ф. Аверьянов таъкидлаганидек, энг оддий ҳолатда қуйидаги тенглама характерлайди:

$$\frac{\partial C}{\partial t} = D\frac{\partial^2 C}{\partial x^2} - V\frac{\partial C}{\partial x} + \beta(Cm - C), \qquad (1)$$

бу ерда:

C – эритманинг (ер ости сувининг) концентрацияси (минераллашуви), г/дм³; t – вақт, сутка; x – масофа, м; V – грунт (жинс) ғовакларидаги сув ҳаракатининг ҳақиқий тезлиги, м/сут ($V = V_0 / n$ га тенг);

V_0 – фильтрация тезлиги, м/сут; n – ғоваклик (самарали ғоваклик);

$C_м$ – тўйинишнинг чегаравий концентрацияси, г/дм³; β – эриш коэффициенти, 1/сут;

D – конвектив (фильтрацион) диффузия коэффициенти, м²/сут.

(2.1)-тенглама тупроқ эритмаси (ер ости сувлари) оқимининг бирор-бир нуқтасидаги (элементар бўшлиғидаги) тузлар (кимёвий элементлар) концентрациясининг ўзгаришини ифодалайди.

Ушбу тенглама асосида амалга оширилган ҳисоблашлар аҳоли яшаш пунктларидаги элементар бўшлиқларда кимёвий элементлар миграциясининг ўзига хос қонуниятларини очиб берди. Таҳлиллар шуни тасдиқладики, сув ҳаракатининг ҳақиқий тезлиги пасайган ҳудудларда диффузион жараёнлар устуворлик қилиб, ер ости сувларининг минераллашув даражасини кескин оширади. Бу эса ўз навбатида, шаҳар иншоотлари пойдеворларининг коррозияга учрашига ва тупроқ қатламининг иккиламчи шўрланишига олиб келади. Шу боис, захлашга қарши мелиоратив тадбирларни лойиҳалашда нафақат сув сатҳини пасайтириш, балки тузлар конвекциясини бошқариш учун фильтрацион тезликни оптималлаштириш зарурлиги илмий асосланди.

Сирдарё шароитида сув сатҳининг кўтарилиши асосан оралиқ ва якуний босқичларда эканлиги аниқланди. Суғориш мавсумида ер ости сувлари сатҳининг амплитудаси 1.2 - 1.8 метргача етиши кузатилади. Бу ерда табиий дренажланганлик даражаси жуда паст бўлганлиги сабабли, август-сентябрь ойларида сувнинг пасайиши фақат эвапотранспирация (буғланиш) ҳисобига амалга ошмоқда. Натижада, сув таркибидаги тузларнинг ер юзасида тўпланиши (аккумуляцияси) жадаллашган.

Сирдарё ҳудуди учун эриш коэффициенти β ва минераллашув даражаси (C) бўйича ҳисоб-китоблар шуни кўрсатдики, ер ости сувларининг минераллашуви 5–10 г/дм³ атрофида тебранмоқда. Натижада Фильтрация тезлигининг (V_0) пастлиги (суткасига 0.1–0.3 м) сабабли, конвектив диффузия коэффициенти (D) устуворлик қилмоқда. Бу эса тузларнинг нафақат сув билан ҳаракатланишига, балки капилляр кўтарилиш орқали

ISSN 3030-3907

биноларнинг пойдевор қисмида "тузли призмалар" ҳосил қилишига олиб келмоқда.

Вилоят ҳудудининг захлашга мойиллиги бўйича II-тартибли (Мезо) тизимга мансублиги тасдиқланди. Сирдарё учун хос бўлган "муайянлик сабаби" — бу суғориш каналларидан сизиб чиқаётган сувлар ва ҳудуднинг гидравлик боғланганлигидир. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, коллектор-дренаж тармоқларининг самарадорлиги 30-40% га пасайган ҳудудларда захлаш ҳодисаси барқарор ва кимёвий жиҳатдан тузларнинг емирувчилик хусусияти эга бўлиб қолган. Сирдарё шароитида захлашни бартараф этиш учун фақат сув миқдорини камайтириш кифоя қилмайди, балки C_m (тўйиниш концентрацияси) кўрсаткичини инобатга олган ҳолда, тупроқнинг шўрини ювиш ва вертикал дренажлар орқали сув айланишини тезлаштириш лозим.

1-жадвал.

Ташкилий даражалардаги гидрогеологик-мелиоратив тизимлар

Тизимлар тартиби (даражаси), характерли майдони (км²)	**Табақалаш (ажратиш) усули**	**Муайянлик ёки бирламчи сабаб**	**Тизимларнинг гидрогеологик тузилиши**
Биринчи (минтақа усти) n·105	Структур-геологик	Геологик-структур, иқлимий ва гидрологик	Баландлик минтақалари бўйича ўзгарувчан бўлган бурмаланган вилоятларнинг грунт ва босимсиз-ёриқли сувлари, шунингдек, кенглик минтақалари бўйича ўзгарувчан бўлган кайлоген вилоятлар.
Иккинчи (макроминтақавий) n·104÷105	Структур-гидродинамик	Шунингдек (Юқоридагидек)	Грунт сувлари оқими ҳавзаси
Учинчи (мезоминтақавий) n·103÷104	Худди шундай	Худди шундай	Грунт сувлари оқимлари гуруҳи
Тўртинчи (минтақавий) n·102÷103	Худди шундай	Худди шундай	Грунт сувлари оқими

ISSN 3030-3907

Бешинчи (субминтақавий) 10÷n·102	Худди шундай	Худди шундай	Грунт сувлари оқимлари зоналари (озиқланиш, транзит, сарфланиш — тарқалиш)
Олтинчи (макролокал) …n·102	Худди шундай (оқим зоналари ичидаги чегаралар)	Худди шундай (оқим зоналари ичидаги фильтрацион нотекислик билан белгиланган)	Маҳаллий гидродинамик структуралар — табиий ва сунъий: сув йиғгич, сув оқими, суғориладиган майдонлар гуруҳи, ер ости сувлари ифлосланиш манбалари ареаллари ва ҳ.к.
Еттинчи (мезолокал) 1÷10	Худди шундай	Худди шундай	Локал гидродинамик ассоциациялар: вақтинчалик оқим сув йиғгичи, суғориладиган майдон, ер ости сувларининг гуруҳли сув олиш иншооти ва ҳ.к.
Саккизинчи (локал) 0,1÷1	Худди шундай	Худди шундай	Локал гидродинамик структуралар: эрозион жўяк сув йиғгичи, суғориш картаси ёки дренажлараро пайкал, якка тартибдаги ер ости сув чиқариш иншооти, нуқтали ифлосланиш манбаининг сув йиғиш майдончаси ва ҳ.к.
Тўққизинчи (сублокал) <0,1	Худди шундай	Худди шундай	Ғовак ва ёриқлар (сувли) ассоциацияси

Юкоридаги (1)-тенгламанинг уч ўлчовли версиясини тупроқ эритмаси ёки ер ости сувлари оқими ҳажми бўйича, шунингдек, уларнинг мажмуи бўйича интеграллашда, унинг диффузион ва туз алмашинуви аъзолари ички манбалар ёки оқимлар сифатида намоён бўлади. Оқим ҳажми бўйича туз алмашинуви ёки умуман масса кўчиши натижасида унинг чегараларидаги конвектив аъзо қийматларининг фарқи бўйича қайд этилади — бу латерал бўйича оқиб келиш ва оқиб кетиш шаклида, вертикал бўйича эса оқимнинг юқори текислигига сизиб кириш ва пастки текисликка ёки пастки текисликдан юқорига сизиб ўтиш кўринишида бўлади. Ушбу ҳолатлар сув-

ISSN 3030-3907

туз балансини ёки ион оқими балансини масса кўчишининг (кимёвий моддаларнинг) умумлаштирувчи интеграл натижаси деб ҳисоблашга имкон беради. Масса кўчиши ва фазавий ўтишлар ер ости сувлари ҳамда аэрация зонасининг ғовак эритмалари минераллашуви ва кимёвий таркибининг ўзгарувчанлигини олдиндан белгилаб беради. Фазавий ўтишлар орасида (2.1)-формулада ҳисобга олинган эриш ва чўкмага тушиш жараёнлари билан бир қаторда, эвапотранспирацияни ва у келтириб чиқарадиган буғланиш орқали концентрланишни (қуюқлашишни) алоҳида таъкидлаймиз. Қайд этилган чизиқли эффектлардан ташқари, ночизиқли эффектлар ҳам мавжуд бўлиб, бу ер ости сувлари ва ғовак эритмаларининг кимёвий таркиби шаклланишини сезиларли даражада мураккаблаштиради (7). Кимёвий элементлар ва комплексларнинг миграцияси геокимёвий тўсиқлар (барьерлар) туфайли анча қийинлашади. Бундай тўсиқлар сифатида кислородли, олтингугурт-водородли ва глейли, шунингдек, буғланишли тўсиқлар белгиланган (7). Кислородли тўсиқ — бу органик, олтингугурт-водород ва бошқа кимёвий комплексларнинг қайтарилиш шаклида оксидланиш майдонидир. Оксидланишга сувда эриган эркин кислород ёки аэрация зонаси ҳавосидаги кислород, шунингдек, микробиологик жараёнлар ёрдам беради. Олтингугурт-водородли тўсиқ — бу олтингугурт-водород ва унинг ҳосилалари бўлган HS- ва S^2-ионлари ишлаб чиқарилиши жараёнида оксидланган органика ва кимёвий комплексларнинг қайтарилиш майдонидир (7).

Глейли тўсиқ — анаэроб муҳитга хос бўлиб, унда микроорганизмлар минерал бирикмалардан кислород ажратиб чиқариш ҳисобига органик моддаларни оксидлайди. Глейли сувлар — кислородсиз ёки кам кислородли бўлиб, тоғ жинслари ва тупроқларнинг глейланишига (кўкимтир-кулранг тус олишига) сабаб бўлади. Анаэроб шароитда сульфат-ионининг юқори миқдорида десульфуризация жараёни ривожланади ва олтингугурт-водород ҳосил бўлади. Бу ҳолат шўрхоклар, ботқоқликлар ва чўллардаги шўр кўллар учун хосдир. Анаэроб шароитда сульфат-ионининг юқори миқдорида десульфуризация жараёни ривожланади ва олтингугурт-водород ҳосил бўлади. Бу ҳолат шўрхоклар, ботқоқликлар ва чўллардаги шўр кўллар учун хосдир (7). Буғланишли тўсиқ — бу ер ости сувлари ва ғовак эритмаларида тузларнинг тўпланиши (концентрланиши), шунингдек, моддаларнинг эриган ҳолатдан чўкмага ўтиш (фазавий ўтиш) майдонидир.

Умумий ҳолатда, юқорида санаб ўтилган тўсиқларда оксидланиш-қайтарилиш муҳити, ишқорий-кислотали шароит (pH) ва сувларнинг шўрлиги ўзгаради. Ушбу хусусиятларга кўра, сувларнинг геокимёвий таснифида (7) тегишли равишда тур, синф ва оила каби таксонлар

ISSN 3030-3907

ажратилади. Бундан ташқари, (7)-манбадаги таснифлаш атамалари асосида О.А. Алекин таснифини шундай қайта шакллантирамизки, бунда (7)-манбадаги авлод (2)-манбадаги синфга, кўриниш— гуруҳга (2), хил (хилма хил) эса — типга (2) мувофиқ келади. Шу тарзда модификация қилинган сувларнинг геокимёвий таснифида (7), афтидан, уларнинг кимёвий таркиби шаклланиши жараёни ўз аксини топади. Жараённинг ушбу ифодасида муҳит, шароитлар, сувларнинг шўрлиги, уларнинг анион ва катион таркиби ҳамда охиргиларининг (анион ва катионларнинг) ўзаро нисбати ҳисобга олинади. Ер ости сувларини кимёвий таркиби ва ҳарорати бўйича таснифлашнинг тармоқ стандартида (6), (7)-манбадаги «оила»га — «гуруҳ», (7)-манбадаги «хил» га эса — «тур» (2) мувофиқ келади. (6)-манбадаги ишқорий-кислотали шароит кўрсаткичлари бўйича (7)-манбага мувофиқ синфлар белгиланади. Ер ости сувларининг ҳарорат бўйича таснифи (6) стандартда алоҳида ўрин тутади ва, афтидан, шу сабабли ушбу мезон бўйича (7)-манбада мустақил таксонлар белгиланади. Шу билан бирга, уларга геокимёвий тасниф таксонлари иерархиясида (иерархик поғонасида) юқори ўрин берилади. (2.1)-тенгламанинг уч ўлчовли версияси ифодасида кимёвий элементларнинг оксидланиш-қайтарилиш муҳитида, ишқорий-кислотали шароитларда ва сув шўрлигидаги миграцияси ҳамда табиий сувлар геокимёвий таснифининг муҳокама қилинган версияси (модификацияси) муайян даражада гидрогеокимёвий жараёнларнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттиради ва уларнинг кечиш жиҳатларини очиб беради.

2-жадвал

Модификация қилинган сувларнинг геокимёвий таснифи

Т/р	Таксон	Мезонлар
1	2	3
1	Гуруҳлар	Температура
2	Типлар	Оксидланиш-қайтарилиш потенциали (газлар)
3	Синфлар (гуруҳлар)*	Ишқорий-кислотали шароитлар
4	Оилалар (гуруҳлар)*	Умумий минераллашув (шўрлик)
5	Авлодлар (синфлар)**	Асосий анионлар
6	Кўринишлар (гуруҳлар)**	Асосий катионлар
7	Хиллар (типлар)**	Асосий анионлар ва катионларнинг нисбати

ISSN 3030-3907

Кузатув маълумотлари (3, 4) умуман олганда масса кўчиши (конвекция ҳодисаси) ҳолатини аниқлаш учун объект кенглиги чегараларидаги моддаларнинг конвектив кўчиши муҳим аҳамиятга эга эканлигини тасдиқлайди. Бунга сабаб, фильтрация бўлаётган ер ости сувлари ёки тупроқ эритмалари таркибида кимёвий моддалар (органика, газлар ва ҳ.к.) ионлари (комплекслари) мавжудлигидир. Шу сабабли сувнинг (эритманинг) ва унда эриган тузларнинг фильтрацияси бир хил ёки бир-бирига яқин тезлик хусусиятларига эга бўлади. Бундай шароитда захлаш ҳодисасининг гидродинамик жиҳатлари гидрогеокимёвий жиҳатларини сезиларли даражада назорат қилади. Шу боис, гидрогеокимёвий жиҳатлар гидродинамик жиҳатлар билан деярли тўлиқ ўзаро боғланади(5).

Ўзбекистон шароитларида сувларнинг шўрлиги (минераллашуви) бўйича деярли барча оилалар: ўта чучук – чучук – шўрроқ – шўр – шўр сувлар ва уларнинг кичик оилалари учрайди. Ушбу оилалар муайян вазиятларга боғлиқ равишда турли хил оксидланиш-қайтарилиш ва ишқорий-кислотали шароитларда бўлади. Уларнинг авлод ва кўриниш таркиби эса асосий анионлар ва катионларнинг турли комбинацияларида ўзгариб туради. Шу билан бирга, жадвал бўйича «хил» (хилма хиллик) ёки (2)-манба бўйича «тур» барча авлод-кўриниш тоифаларида жами тўртта таксон билан ифодаланган. Геокимёвий ўтмиш ва замонавий галогенезга боғлиқ ҳолда, энг кенг тарқалган хил — сульфат-гидрокарбонат-магнийли таркибга эга бўлган иккинчи (II) типдир (2).

Агар (5)-манба қоидаларига таянадиган бўлсак, кимёвий элементлар миграциясининг бошланғич шартлари ҳудуднингзахлашидан олдин шаклланади ва у ҳудуднинг табиий дренажланганлик даражаси (ион оқими тезлиги ёки маҳсулдорлиги — тузларнинг массавий сарфи ва унинг ишораси), атмосфера ёғинлари инфильтрацияси ва улар билан кимёвий моддаларнинг келиши, сув оқимлари ва сув ҳавзаларидан сизиб ўтиш ҳамда бунда тузларнинг эриган ҳолда келиши ёки чиқиб кетиши билан белгиланади.

Дастлабки ҳолатда захлашга учраган ҳудудлар, табиий дренажланиш заиф бўлган ва қургокчил иқлим шароитида шаҳарларнинг муҳандислик ҳимояси тизими мукаммал бўлмаган тақдирда, ландшафтлар — тупроқ, аэрация зонаси ва грунт сувларининг шўрланишига мойил бўлади. Дастлабки ҳолатда захлашга учрамаган ҳудудлар босқичма-босқич сув босишига учрайди (5). Бошланғич босқичда захлаш ҳодисаси аэрация зонасининг тўйиниши ҳисобига грунт сувлари сатҳининг кўтарилиши шаклида намоён бўлади. Инфильтрациянинг қуввати ва интенсивлигига

ISSN 3030-3907

қараб, ҳудуднинг захлашга учраши секин — йилдан-йилга ёки тез — ҳудудни ўзлаштиришнинг ёки унинг сув таъминотини модернизация қилишнинг дастлабки йилларидаёқ содир бўлади (5). Шунга мувофиқ, аэрация зонасида аввалги тарихий даврлар мобайнида тўпланган тузлар эрийди ва эритмага (тупроқ ёки грунт сувларига) ўтади. Инфильтрация бўлаётган сувлар, хоҳ ёғинлар бўлсин, хоҳ гидрографик тармоқлардан йўқотишлар ва ҳоказо, буғланиш орқали концентрланишга (қуюқлашишга) учрайди. Тузларнинг ҳам эриши, ҳам концентрланиши захлашнинг бошланғич босқичларида грунт сувларининг, шу жумладан, уларнинг юқори фаол қатламининг шўрланишига олиб келади (3, 4).

Захлаш ҳодисасининг оралиқ босқичида, айниқса дренажланмаган шароитларда, эвапотранспирациянинг кучайиши туфайли аэрация зонаси жинслари ва грунт сувларининг шўрланиш суръати ортади.

Дренажланмаган шароитларда захлашнинг якуний босқичида ландшафтларнинг шўрланиши барқарор тус олади ва тупроқ юзасида, таъбир жоиз бўлса, «шўр шудринг» пайдо бўлади, у вақт ўтиши билан ғовак шўрга айланади. Шундай қилиб, ҳудудни ўзлаштиришда дренажланмаган шароитлар унинг захлаши ва шўрланишини яхлит ҳолда келтириб чиқаради. Бу ҳодисаларнинг барчаси сув узатиш ва сув чиқариб юбориш режимининг бошқарилмаслиги ҳамда тартибга солинмаганлиги туфайли содир бўлади.

Умуман олганда, ҳар бир муайян ҳудуднинг захлаш жараёнидаги гидрогеокимёвий жиҳатлари маҳаллий омиллар билан бир қаторда, табиий сувлар кимёвий таркиби шаклланишининг минтақавий ва ҳавзавий омиллари, уларнинг геологик муҳит билан ўзаро таъсири ҳамда техноген таъсирлар орқали белгиланади. Ушбу ҳолатлар захлаш ҳодисасининг гидрогеокимёвий жиҳатларини сезиларли даражада хилма-хил қилади.

ХУЛОСА.

Гулистон шаҳри мисолида ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ҳудуднинг захлаши фақатгина табиий жараён эмас, балки мураккаб гидродинамик ва техноген омилларнинг ўзаро таъсири натижасида шаклланадиган экологик муаммодир. Шаҳарнинг пастқам рельефи ва геологик тузилишидаги сув ўтказмайдиган қатламларнинг мавжудлиги ер ости сувлари оқимининг табиий дренажланишига тўсқинлик қилади. С.Ф. Аверьянов формуласи асосида ўтказилган таҳлиллар Гулистон шаҳрида сувнинг ҳақиқий ҳаракат тезлиги (V) паст эканлигини, бу эса ўз навбатида конвектив диффузия коэффициентининг (D) таъсирини ошириб, тузларнинг вертикал йўналишда тўпланишига замин яратаётганини исботлади. Натижада, ҳудуд захлашнинг энг оғир босқичига ўтган бўлиб, бунда ер ости сувлари сатҳи доимий равишда 1,0–1,5 метр чуқурликда

ISSN 3030-3907

барқарорлашиб қолган.Гидрогеокимёвий жиҳатдан Гулистон шаҳридаги ер ости сувлари кучли модификацияга учраган бўлиб, уларда сулфат ва хлорид ионларининг миқдори меъёрдан анча юқори. Ушбу кимёвий таркибнинг емирувчанлик хусусияти шаҳарнинг муҳандислик инфратузилмаси ва биноларнинг пойдевор қисмлари учун жиддий хавф туғдирмоқда. Тадқиқотда қўлланилган тизимли табақалаш усули шаҳарнинг турли қисмларидаги захлашга мойиллик даражасини аниқлаш имконини берди. Маълум бўлдики, суғориш каналларидан сизиб чиқаётган сувлар ва эскирган канализация тизимлари ер ости сувлари режимининг бузилишига асосий "муайянлик сабаби" бўлиб хизмат қилмоқда. Бу эса тупроқнинг иккиламчи шўрланишини жадаллаштириб, шаҳарнинг урбоэкологик барқарорлигига путур етказмоқда.Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Гулистон шаҳрининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш учун комплекс илмий-амалий чора-тадбирлар зарурлиги таъкидланади. Биринчи навбатда, вилоятнинг паст фильтрацион хоссага эга грунтларини ҳисобга олиб, вертикал дренаж қудуқларининг иш самарадорлигини ошириш ва янги гидродинамик мониторинг тармоқларини яратиш мақсадга мувофиқдир. Сулфатли емирувчи таъсирни камайтириш учун бинолар пойдеворини ҳимоялашнинг кимёвий усулларини қўллаш ва ер ости сувларининг минераллашув даражасини пасайтириш бўйича гидрокимёвий бошқарув тизимини жорий этиш лозим. Ушбу илмий хулосалар Сирдарё вилоятининг захлаш хавфи юқори бўлган бошқа ҳудудлари учун ҳам методологик асос бўлиб хизмат қилади ва шаҳарсозликни режалаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Gattinoni, P., & Scesi, L. (2017). The groundwater rise in the urban area of Milan (Italy) and its interactions with underground structures and infrastructures. Tunnelling and Underground Space Technology, 62, 103-114.
2. Wada, Y., Lo, M. H., Yeh, P. J. F., Reager, J. T., Famiglietti, J. S., Wu, R. J., & Tseng, Y. H. (2016). Fate of water pumped from underground and contributions to sea-level rise. Nature Climate Change, 6(8), 777-780.
3. Bicalho, C. C., Batiot-Guilhe, C., Seidel, J. L., Van Exter, S., & Jourde, H. (2012). Hydrodynamical changes and their consequences on groundwater hydrochemistry induced by three decades of intense exploitation in a Mediterranean Karst system. Environmental Earth Sciences, 65(8), 2311-2319.
4. Qu, S., Liao, F., Wang, G., Wang, X., Shi, Z., Liang, X., ... & Liu, T. (2023). Hydrochemical evolution of groundwater in overburden aquifers under the influence of mining activity: combining hydrochemistry and groundwater dynamics analysis. Environmental Earth Sciences, 82(6), 135.

ISSN 3030-3907

5. Cherkashyna, M., Sokolova, A., & Yakovlev, V. (2024). Legal problems of ensuring the quality of underground drinking water in Ukraine. Theory and practice of jurisprudence, 1(25)), 74-106.
6. Conicelli, B., Hirata, R., Galvao, P., Aranda, N., Terada, R., & Gutierrez, O. J. G. (2021). Groundwater governance: The illegality of exploitation and ways to minimize the problem. Anais da Academia Brasileira de Ciências, 93, e20200623.
7. Westerhoff, P., & Crittenden, J. (2009). Urban infrastructure and use of mass balance models for water and salt. In The water environment of cities (pp. 49-68). Boston, MA: Springer US.
8. Wang, G., Shi, H., Li, X., Yan, J., Miao, Q., Li, Z., & Akae, T. (2020). A study on water and salt transport, and balance analysis in sand dune–wasteland–lake systems of Hetao Oases, upper reaches of the Yellow River Basin. Water, 12(12), 3454.
9. Abdibay, A., Anuarbekov, K., Mukhamadiyev, N., & Mengdibayeva, G. (2024). Assessment of water-salt regime of irrigation system. Caspian Journal of Environmental Sciences, 22(5), 1173-1181.
10. Falchi, L., Slanzi, D., Balliana, E., Driussi, G., & Zendri, E. (2018). Rising damp in historical buildings: A Venetian perspective. Building and Environment, 131, 117-127.
11. Falchi, L., Corradini, M., Balliana, E., & Zendri, E. (2023). Urban scale monitoring approach for the assessment of rising damp effects in Venice. Sustainability, 15(7), 6274.
12. Qu, J., Sun, M., Wang, F., Liu, K., & Chen, L. (2024). Rising damp in heritage sites under urban expansion: a comprehensive case study of the Jinsha Earthen Site. Building and Environment, 265, 111971.
13. Lubelli, B., Van Hees, R. P. J., & Bolhuis, J. (2018). Effectiveness of methods against rising damp in buildings: Results from the EMERISDA project. Journal of Cultural Heritage, 31, S15-S22.
14. Abdullaev, B. D., Razzakov, R. I., Okhunov, F. A., & Nasibov, B. R. (2023). Modeling of hydrogeological processes in irrigation areas based on modern programs. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 02006). EDP Sciences.
15. Nasibov, B., Kamalova, M., Yuldasheva, C., Artikbekova, F., Sapaev, I., Nazarov, K., & Saydullaev, S. (2025, July). Monitoring the level of salinity of irrigated lands and groundwater in Andijan region. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3256, No. 1, p. 040003). AIP Publishing LLC.
16. Abdullaev, B., Razzakov, R., Nasibov, B., Mukhamedov, G., Aytmuratov, T., & Dadajonov, B. (2025). Estimating the Amount of Water Required for Crop Irrigation Based on the Application of FAO‘s CROPWAT Program in the Case

ISSN 3030-3907

of Kashkadarya Region. In BIO Web of Conferences (Vol. 151, p. 04003). EDP Sciences.
17. Nasibov, B. R., Abdullaev, B. D., Razzakov, R. I., & Ruzimurodov, A. B. (2025). The relationship between the characteristics of groundwater and surface water in the Kashkadarya region. Экономика и социум, (5-1 (132)), 544-550.
18. Kulmatov, R., Odilov, S., Khasanov, S., & Allaberdiev, R. (2021). Quantity and quality of groundwater resources distribution along Sirdarya province, Uzbekistan. In E3S web of conferences (Vol. 284, p. 01015). EDP Sciences.
19. Yusupov, M., Tazhibayeva, R., Ziyaeva, S., & Kubyashev, K. (2021). Numerical modeling of the salt-transfer problem in soils. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 01005). EDP Sciences.
20. Lyubimova, T., Lepikhin, A., Parshakova, Y., Bogomolov, A., Lyakhin, Y., & Tiunov, A. (2021). Peculiarities of hydrodynamics of small surface water bodies in zones of active technogenesis (on the example of the Verkhne-Zyryansk reservoir, Russia). Water, 13(12), 1638.

ISSN 3030-3907

ANALYSIS OF HEAT TRANSFER MECHANISMS IN ACCELERATING THE FOOD DRYING PROCESS.

Jabborov To‘lqin Kamolovich
Associate Professor, Fergana state technical university.
Kurbanov Nematilla Murodillayevich
Associate Professor, Namangan state technical university
Jabborov Islombek To‘lqinjon o‘g‘li
Namangan state technical university doctoral candidate.
Siddiqov Mukhiddin Zayniddin o‘g‘li
Namangan state technical university doctoral candidate.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini quritish jarayonini jadallashtirishda issiqlik uzatish mexanizmlarining roli ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Quritish jarayonida konveksiya, issiqlik o‘tkazuvchanlik va nurlanish orqali issiqlik uzatish mexanizmlarining ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, issiqlik uzatish intensivligini oshirish quritish vaqtini sezilarli darajada kamaytirishi va mahsulot sifatini yaxshilashi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: quritish jarayoni, issiqlik uzatish, konveksiya, diffuziya, namlik, oziq-ovqat texnologiyasi, quritish teziligi.

Аннотация. В данной статье был проведен научный анализ роли механизмов теплопередачи в ускорении процесса сушки пищевых продуктов. Изучено влияние механизмов теплопередачи через конвекцию, теплопроводность и излучение в процессе сушки. Согласно результатам исследования, было установлено, что увеличение интенсивности теплопередачи значительно сокращает время сушки и улучшает качество продукции.

Ключевые слова: процесс сушки, теплопередача, конвекция, диффузия, влажность, пищевая технология, скорость сушки.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role of heat transfer mechanisms in accelerating the food drying process. The influence of heat transfer mechanisms through convection, thermal conductivity, and radiation during the drying process was studied. According to the research findings, increasing the intensity of heat transfer significantly reduces drying time and improves product quality.

Keywords: drying process, heat transfer, convection, diffusion, moisture, food technology, drying rate.

INTRODUCTION.

The process of drying food products is considered one of the conservation methods used by humanity since ancient times. According to historical sources, ancient civilizations managed to increase the shelf life of fruits, vegetables, and

ISSN 3030-3907

meat several times over by drying them using sunlight. With the development of modern industry, this process has become a scientifically grounded technology and is widely utilized today as an integral part of the food industry. One of the most pressing problems in the current global food system is the loss of products. According to various international studies, approximately 30-40% of food products produced worldwide are lost before reaching the consumer. These losses are especially characteristic of fruits and vegetables with high moisture content, with their moisture levels typically ranging from 70 to 95%. High humidity accelerates the development of microorganisms, enzymatic reactions, and physicochemical degradation processes. Therefore, drying food products is an important technological process not only to extend their shelf life but also to ensure food safety, reduce logistics costs, and preserve the biological value of the product. According to statistics, the shelf life of dried products can be 3–10 times longer than that of fresh products.

The drying process is one of the most energy-intensive operations in the industry. According to statistics:

- Drying processes account for 7-10% of industrial energy consumption.
- Heat losses in drying units can reach 25-40%.
- Improving energy efficiency can reduce total costs by 10-25%.

This indicates the need for in-depth study and optimization of heat transfer processes.

Table-1.

Statistical indicators.

№	Indicator	Value	Scientific significance
1	Food loss	20-30%	Global problem
2	Product moisture	60-75%	Quick breakdown cause
3	Increase shelf life	3-10 times	Drying effect
4	Convection fraction	50-65%	Main mechanism
5	Bandwidth share	10-25%	Internal process
6	Radiation fraction	5-10%	Side effect
7	Energy consumption	8-10%	Industrial share
8	Energy Saving Option	10-30%	Optimization result

Characteristics of the research object and raw materials. In this study, food products with high moisture content were selected to study the drying process. The following products were used as the object of the research:

- Apple (Malus domestica)

ISSN 3030-3907

- Carrot (Daucus carota)
- Apricot (Prunus armeniaca)

The main reasons for choosing these products are:

1. high initial humidity (60-80%)
2. wide availability
3. sensitivity to drying

Table-2.

Initial physicochemical indicators.

Product	Humidity (%)	Density (kg/m^3)	Thickness (mm)
Apple	70-85	750-810	4-6
Carrot	70-75	800-950	3-5
Apricot	60-70	700-800	5-7

Experimental setup and technical parameters. The studies were conducted on a convective drying unit. The device consists of the following main elements:

Heat source (electric heater); Fan (for forced convection); Dryer; Temperature and humidity sensors; Data recording system.



Figure 1. Drying device designed for drying food products

Table-3.

At least 3 levels selected for each parameter.

Parameter	Low	Medium	Upper
Temperature (°C)	40	55	75
Air velocity (m/s)	1	3	5
Time (hours)	2	6	10


Mathematical description of heat transfer mechanisms.

The heat transfer during the drying process is expressed by the following basic equations:

The relationship between temperature and efficiency. As seen from the graph, the efficiency of the process increases as the drying temperature increases. This relationship is characterized by a positive correlation and is clearly expressed by a regression line.

ISSN 3030-3907

- Efficiency at low temperatures (40-55 °C) ranges from 2.2 to 2.5.
- Efficiency at medium temperatures (50-65 °C) ranges from 2.5 to 2.8.
- Efficiency increases from 2.9 to 3.3 at high temperatures (60-75 °C).



Graph 1. Drying parameters.

Convective heat transfer:

$$Q = h \cdot A \cdot (T_{air} - T_{\text{product}}) \qquad (1)$$

where: h- heat transfer coefficient; A - surface area; T - temperature difference.

Statistical analysis methods. The following methods were used for the statistical processing of the research results:

1. Average value:

$$\bar{x} = \frac{1}{n}\sum x_i$$


2. Standard deviation:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x_i - \bar{x})^2}{n}}$$

3. Coefficient of variation:

$$CV = \frac{\sigma}{\bar{x}} \times 100\%$$

ISSN 3030-3907



Graph 2. Effect of temperature on drying efficiency.

The results of this study allowed for a profound analysis of the effect of temperature on efficiency during the food drying process. Based on the obtained experimental data, the relationship between the drying temperature and process efficiency was illustrated using a scatter graph. Each point on the graph represents a separate experimental result, and the variability of the data was visually highlighted using colors.

Table-4.

Statistical results table

Parameter	Medium	Std. deviation	CV (%)
Drying time	6.2 hours	1.1	15.7
Humidity	0.25	0.05	20
Temperature	55 °C	10	15.6

These results confirm that the rate of moisture evaporation increases as the intensity of heat transfer increases.

Statistical analysis (correlation and regression). As a result of the regression analysis, the following important indicator was obtained:

Coefficient of determination ($R^2 = 0.486$).

This value means:

- Temperature accounts for 48.6% of the drying efficiency.
- The remaining 51.4% is due to the influence of other factors.

Other influencing factors: - Air velocity; - Product thickness; - Initial humidity; - Drying time.

Table-5.

General statistical table.

Indicator	Value
R^2	0.485
Efficiency min	~2.0

ISSN 3030-3907

Performance max	~3.2
Temperature range	40-75 °C
Type of dependence	Positive

General summary of the results. The results of this study show that as the drying temperature increases, the efficiency of the process increases; however, this relationship is not entirely linear. The R^2 value obtained as a result of statistical analysis confirms that the drying process is a complex, multi-parameter system. Therefore, to maximize efficiency, it is necessary to optimize not only the temperature but also other technological parameters.


The results of this study allowed for a profound analysis of the effect of temperature on efficiency during the food drying process. The results obtained are consistent with the theory of heat and mass transfer and once again confirm that the drying process is a complex and multifactorial system.

Comparison of results with the theoretical basis. According to experimental results, drying efficiency increases as the temperature increases. This situation is explained by the following physical processes:

- Increased temperature → the kinetic energy of the molecules increases.
- Evaporation intensity increases.
- The rate of moisture release into the environment increases.

These results reflect the classical laws of heat transfer, specifically:

- convective heat exchange.
- Fick's diffusion law.
- fully complies with the.



Graph 3. 3D moisture distribution in product.

In this study, the role of heat transfer mechanisms in accelerating the food drying process was comprehensively studied and analyzed. As a result of experimental and statistical research, it was scientifically substantiated that the

ISSN 3030-3907

An’anaviy kuchaytirish usullari, jumladan po‘lat listlar bilan qoplash, qo‘shimcha armaturalash yoki beton qoplamani qalinlashtirish kabi yondashuvlar amaliyotda keng qo‘llanib kelinadi. Biroq ushbu usullar konstruksiyaning umumiy og‘irligini oshirishi, montaj jarayonini murakkablashtirishi hamda korroziya kabi qo‘shimcha muammolarni keltirib chiqarishi bilan cheklangan samaradorlikka ega. Shu sababli, zamonaviy qurilish amaliyotida yengil, yuqori mustahkamlikka ega va agressiv muhitga chidamli innovatsion materiallardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.



1-rasm. Egiluvchi temirbeton to‘sinlarni kuchaytirishning an’anaviy usullari

ISSN 3030-3907



2-rasm. Egiluvchi temirbeton to‘sinlarni bazalt kompozit material bilan kuchaytirish

So‘nggi yillarda kompozit materiallar, xususan tolali polimer tizimlari ushbu yo‘nalishda istiqbolli yechim sifatida keng tadqiq etilmoqda. Ular orasida bazalt tolali kompozit materiallar (BFRP) o‘zining yuqori mexanik mustahkamligi, past zichligi, korroziyaga chidamliligi hamda ekspluatatsion barqarorligi bilan ajralib turadi. Shu sababli BFRP materiallari temirbeton konstruksiyalarni, ayniqsa egiluvchi elementlarni kuchaytirishda samarali va istiqbolli yechim sifatida ilmiy adabiyotlarda e’tirof etilmoqda [1].

ASOSIY QISM. Bazalt tolasi sanoatda zamonaviy muqobil armatura materiali hisoblanadi. Bazalt tolalar hech qanday qo‘shimchalarsiz tabiiy xom ashyodan olinadi. Ular shisha tolaga nisbatan biroz mustahkamroq va qattiqroq bo‘lib, zaharli emas, korroziyaga uchramaydi, magnit xususiyatga ega emas hamda ekologik jihatdan xavfsizdir. Bundan tashqari, bazalt tolasi vulqon jinslaridan olinadi, shu sababli u ekologik toza (“yashil”) material hisoblanadi [2]. Bazalt tolalari turli shakllarda ishlab chiqariladi. Jumladan, mato ko‘rinishidagi turlari konstruksiyalarni mustahkamlash va rekonstruksiya qilishda tashqi yopishtiriladigan kompozit sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, ular sterjen (armatura) va quvur shakllarida ham mavjud. Quyida egiluvchi temirbeton to‘sinlarni kuchaytirish uchun foydalaniladigan bazalt materialining fizik-mexanik xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari hamda boshqa materiallar bilan farqi keltirib o‘tilgan [5], [6].

1-jadval

Bazalt materialining afzallik va kamchiliklari

Kategoriya	Afzalliklar	Kamchiliklar
Fizik-mexanik xususiyatlar	Yuqori cho‘zilish va siqilish mustahkamligi Yuqori elastiklik moduli Yuqori qattiqlik	Muayyan yuklamalarda mo‘rtlik yuzaga kelishi mumkin Mexanik ishlov berishda qiyinchiliklar

ISSN 3030-3907

		Kesish va ishlov berish uchun maxsus uskunalar talab etiladi
Kimyoviy xususiyatlar	Agressiv muhitlarga chidamlilik Yuqori korroziyaga chidamlilik	Ayrim ekstremal sharoitlarda kimyoviy barqarorlikning cheklanganligi Barcha turdagi bazalt kompozitlar ayrim kimyoviy moddalarga chidamli emas
Issiqlik xususiyatlari	Yuqori erish harorati Yuqori yong‘inga chidamlilik	Ayrim shakllarda yuqori issiqlik o‘tkazuvchanlik Juda yuqori haroratlarda tarkibiy xossalarning o‘zgarishi ehtimoli
Ekologik xususiyatlar	Ekologik xavfsizlik va zararli chiqindilarning yo‘qligi Qayta ishlash imkoniyati	Qazib olish va ishlab chiqarish jarayonining atrof-muhitga ta’siri Qayta ishlash infratuzilmasining cheklanganligi
Ekspluatatsion xususiyatlar	Uzoq xizmat muddati va yemirilishga chidamlilik Minimal suv o‘tkazish O‘lcham va shakl barqarorligi	Ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligi ehtimoli Suv muhitida mexanik eroziya tufayli muammolar yuzaga kelishi mumkin Ayrim turlarda egiluvchanlikning cheklanganligi

Qurilish materiallarini baholashda obyektiv ekspluatatsion va mexanik ko‘rsatkichlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bazalt tolali polimer kompozit (BFRP) real ekspluatatsiya sharoitlarida muhim hisoblangan bir qator parametrlar bo‘yicha yuqori natijalarni namoyon etadi hamda an’anaviy va muqobil materiallar bilan samarali raqobatlashadi [6].

2-jadval

Bazalt tolali kompozit materialini boshqa materiallar bilan solishtirmasi

Ko‘rsatkich	BFRP	Po‘lat	Shisha tolali kompozit	Uglerod tolali kompozit
Cho‘zilishdagi mustahkamlik, MPa	1000–1500	400–500	800–1000	2000–5000
Zichlik, kg/m³	1900–2100	7800	2500–2600	1700–1900

ISSN 3030-3907

Elastiklik moduli, GPa	50–90	200	70–85	150–500
Korroziyaga chidamlilik	Juda yuqori	Past	O‘rtacha–yuqori	Juda yuqori
Uglerod miqdori, kg CO_2/kg	2.0–2.5	2.5–3.0	2.5–2.7	20–35
Xizmat muddati, yil	80–100	30–50	50–75	80–100
Boshlang‘ich nisbiy qiymati	1.5–2 baravar	1 baravar	1–1.5 baravar	3–5 baravar

BFRP materialining cho‘zilishdagi mustahkamligi 1000–1500 MPa ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich odatiy po‘lat armaturaga (400–500 MPa) nisbatan ancha yuqori. Shuningdek, u 800–1000 MPa oralig‘idagi shisha tolali kompozitlar bilan ham raqobatlasha oladi. Faqat uglerod tolali kompozitlar (2000–5000 MPa) BFRP dan mustahkamroq hisoblanadi, biroq ularning narxi ancha yuqori.

BFRP po‘latga nisbatan sezilarli darajada yengil bo‘lib, uning zichligi taxminan 1900–2100 kg/m³ ni tashkil etadi, po‘latda esa bu ko‘rsatkich 7800 kg/m³ ga teng. Ushbu katta farq (taxminan 75% ga kam) konstruksiyalar bilan ishlashni osonlashtiradi, transport xarajatlarini kamaytiradi va inshootlardagi ortiqcha yuklarni (o‘lik) pasaytiradi.

BFRP ishlab chiqarishda har bir kilogramm mahsulot uchun taxminan 2,0–2,5 kg CO_2 ajralib chiqadi. Bu po‘latga (2,5–3,0 kg CO_2/kg) nisbatan biroz past, uglerod tolali materiallarga (20–35 kg CO_2/kg) nisbatan esa ancha kamdir. BFRP ning xizmat muddati ham uzoq bo‘lib, odatda 80–100 yilni tashkil etadi, po‘lat esa ko‘plab sharoitlarda 30–50 yil xizmat qiladi. Ushbu farq ekologik ta’sirni yanada yaqqol ko‘rsatadi.

Iqtisodiy jihatdan ham BFRP ning qo‘llanilishi tobora samaraliroq bo‘lib bormoqda. Uning boshlang‘ich narxi po‘latga nisbatan odatda 1,5–2 baravar yuqori bo‘lsa-da, ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bu farq kamayib bormoqda. To‘liq hayotiy sikl xarajatlari hisobga olinganda esa BFRP ko‘pincha arzonroq bo‘ladi. Bu o‘rnatish, texnik xizmat ko‘rsatish va almashtirish xarajatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, korroziy muhitlarda, po‘lat tez yemiriladigan sharoitlarda, BFRP iqtisodiy jihatdan yanada samarali hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan omillarni inobatga olgan holda, so‘nggi yillarda olimlar va tadqiqotchilar tomonidan egiluvchi temirbeton to‘sinlarni bazalt tolali kompozit materiallar yordamida kuchaytirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, BFRP materiallari bilan mustahkamlash jarayonining samaradorligini baholash maqsadida turli hisobiy

ISSN 3030-3907

sxemalar va modellar taklif etilmoqda hamda ular asosida kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [3].

Mazkur tadqiqotlarda elementlarning kuchlanish-deformatsiyalanish holatlari, yorilish jarayonining rivojlanishi, yopishtiruvchi qatlamning ishlashi hamda kompozit material bilan beton orasidagi yopishish (adgezion) xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, kuchaytirilgan to‘sinlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini aniqlash, deformatsion xulq-atvorini baholash va buzilish mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan eksperimental hamda nazariy ishlanmalar amalga oshirilmoqda.



3-rasm. Egiluvchi temirbeton to‘sinlarni bazalt kompozit material bilan kuchaytirishning tadqiqot qilingan kuchaytirish sxemalari

Olingan ilmiy natijalar asosida egiluvchi temirbeton elementlarni BFRP materiallari yordamida kuchaytirishning samarali usullari, optimal joylashtirish sxemalari hamda hisoblash metodikalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar taklif etilmoqda. Ushbu yondashuvlar konstruksiyalarning ishonchliligi va uzoq muddatli ekspluatatsion xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA. O‘rganilgan tahlillar va tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, bazalt tolali polimer kompozitlar (BFRP) temirbeton konstruksiyalarni, xususan egiluvchi to‘sinlarni kuchaytirishda samarali va istiqbolli material hisoblanadi. BFRP ning yuqori cho‘zilish mustahkamligi, korroziyaga chidamliligi, yengilligi hamda uzoq xizmat muddati uni an’anaviy po‘lat armaturaga nisbatan ustun qo‘yadi.

Shuningdek, BFRP materialining ekologik jihatdan maqbulligi va hayotiy sikl xarajatlarining nisbatan pastligi uning qo‘llanilishini yanada dolzarb qiladi. Garchi boshlang‘ich qiymati po‘latga nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da,

ISSN 3030-3907

ekspluatatsiya davomida texnik xizmat va ta’mirlash xarajatlarining kamayishi umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu bois, BFRP kompozit materiallar zamonaviy qurilish amaliyotida, ayniqsa agressiv muhit sharoitlarida ishlaydigan temirbeton konstruksiyalarni kuchaytirish va rekonstruksiya qilishda keng qo‘llanishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ACI Committee 440. Guide for the Design and Construction of Externally Bonded FRP Systems.
2. Duic J, Kenno S and Das S. “Flexural Rehabilitation and Strengthening of Concrete Beams with BFRP Composite” J Compos Constr 2018; 22(4): 04018016, DOI: 10.1061/(ASCE)CC.1943-5614.0000851
3. Sara Kadhim, Mustafa Ozakça “Flexural performance of RC beams externally strengthened with a single-layer of basalt fiber reinforced polymer sheets” Composites and Advanced Materials, Volume 31: 1–17, 2022, DOI: 10.1177/26349833221102471
4. SHNQ 1.04.01-23 “Bino va inshootlarning texnik holatini o‘rganish va monitoring qilish tartibi” O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bazirligi 2024.
5. https://vztm.ru/bazaltoviy-material ВЗТМ. Воткинский завод теплоизоляционных материалов (Izolyatsiya materiallari ishlab chiqaruvchi Votkin zavodi)
6. https://incomepultrusion.com/basalt-fiber-reinforced-polymers-sustainable-construction/

ISSN 3030-3907

O‘TKIR REVMATIK ISITMA BILAN OG‘RIGAN BOLALARDA IMMUN TIZIMI, SUYAK TIZIMI HOLATI

Muxamadiyeva L.A.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Kuldashev S.F.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘tkir revmatik isitma bilan og‘rigan bolalarda immun tizimi va suyak to‘qimasi holati bo‘yicha zamonaviy ma’lumotlar tahlil qilingan. Kasallik patogenezida A guruhi β-gemolitik streptokokkning roli, molekulyar mimikriya fenomeni va autoimmun reaksiyalar rivojlanishi ko‘rib chiqilgan. Gumoral va hujayraviy immunitetdagi o‘zgarishlar hamda yallig‘lanish sitokinlarining nishon a’zolarga ta’siri yoritilgan. Surunkali yallig‘lanish, noto‘g‘ri ovqatlanish, D vitamini yetishmovchiligi va jismoniy faollikning pasayishi suyak mineral zichligining kamayishiga va ikkilamchi osteoporoz rivojlanishiga olib kelishi ko‘rsatilgan. Revmatik kasalliklarga chalingan bolalarda suyak tizimini kompleks baholash muhimligi ta’kidlangan.

kalit so‘zlar: o‘tkir revmatik isitma, bolalar, immun tizimi, autoimmun reaksiyalar, molekulyar mimikriya, suyak to‘qimasi, suyak mineral zichligi, osteoporoz, D vitamini.

Аннотация. В данной статье представлен обзор современных данных о состоянии иммунной системы и костной ткани у детей с острой ревматической лихорадкой. Рассматриваются основные патогенетические механизмы заболевания, включая роль β-гемолитического стрептококка группы А, феномен молекулярной мимикрии и развитие аутоиммунных реакций. Особое внимание уделено изменениям гуморального и клеточного иммунитета, а также влиянию воспалительных цитокинов на поражение органов-мишеней. Показано, что хроническое воспаление, нарушение питания, дефицит витамина D и снижение физической активности способствуют снижению минеральной плотности костной ткани и развитию вторичного остеопороза. Подчёркивается важность комплексной оценки состояния костной системы у детей с ревматическими заболеваниями для своевременной профилактики осложнений.

Ключевые слова: острая ревматическая лихорадка, дети, иммунная система, аутоиммунные реакции, молекулярная мимикрия, костная ткань, минеральная плотность кости, остеопороз, витамин D.

Abstract. This article reviews current data on the state of the immune system and bone tissue in children with acute rheumatic fever. The main pathogenetic mechanisms are discussed, including the role of group A beta-hemolytic streptococcus, molecular mimicry, and the development of autoimmune reactions.

ISSN 3030-3907

Special attention is given to alterations in humoral and cellular immunity, as well as the impact of inflammatory cytokines on target organs. It is shown that chronic inflammation, poor nutrition, vitamin D deficiency, and reduced physical activity contribute to decreased bone mineral density and the development of secondary osteoporosis. The importance of comprehensive assessment of the skeletal system in children with rheumatic diseases for early prevention of complications is emphasized.

Keywords: acute rheumatic fever, children, immune system, autoimmune reactions, molecular mimicry, bone tissue, bone mineral density, osteoporosis, vitamin D.

KIRISH.

AGBGS ga gumoral (antitana vositachiligida) immun javob revmatik karditning rivojlanishi uchun asosan javobgardir [11]. Ushbu kardit endokard va klapan to‘qimalarining hujayrali infiltratsiyasi bilan kechadi. Gumoral javob, shuningdek, Siderxam xoreyasiga olib kelishi mumkin, bunda miyada qon tomirlarining limfotsitar perivaskulyar okklyuziyasi bo‘lib va u kardit yoki karditsiz kechishi mumkin. Ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda yurak yoki miyada topilgan antigenler bilan o‘zaro ta'sir qiluvchi Streptococcus spp.ga qarshi antitanalar o‘tkir respiratorli infektsiyalar bilan og‘rigan bemorlarning qon zardobida va streptokokk infektsiyasiga qarshi immunizatsiya qilingan quyon va sichqonlar zardobida aniqlandi. Monoklonal antitanalarni (mAbs) ajratib olish usuli yurak va miyaga xos bo‘lgan O‘RI bo‘lgan sichqonlar va odamlardan olingan o‘zaro kesishgan-reaktiv Streptococcus spp.-ga xos antitanalarni (mAblarni) ishlab chiqarish va aniqlash imkonini beradi. Ushbu o‘zgarishlar O‘RI da ishlab chiqarilgan autoantitanalar yordamida patogen mexanizmlarni, shu jumladan ularning yurak va miya oqsillariga ta'sirini kashf etishga yordam berdi. O‘RI rivojlanishining eng muhim patogenetik mexanizmlaridan biri bu AGBGS va makroorganizmning antigen determinantlarining o‘xshashligiga asoslangan molekulyar mimikriya fenomenidir [11,12,].

Santalova G.V. (2022) ilmiy ishlaridan ma'lumki, immunitet tizimi hujayralarining o‘z to‘qimalarining antigen determinantlarini (autoantigenlar) tanib olish qobiliyati immunitet reaktsiyasining normal komponenti hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori virulentli AGBGS infektsiyasi ta'sirida streptokokk antigenlariga (birinchi navbatda N-asetilglyukozamin va hujayra devorining M-oqsiliga) javob sifatida ishlab chiqarilgan antitelolar inson to‘qimalariga qarshi o‘zaro ta'sir qiladi [51,56].

Bu nishon organlarda (sinovial xalta, yurak, miya, teri) funktsional va tizimli buzilishlarning rivojlanishi bilan turli xil hujayrali va immun reaktsiyalarni rivojlantiradi. Ushbu mexanizmning o‘ziga xosligi shundaki, makroorganizmdan

ISSN 3030-3907

AGBGS va uning antigeni yo‘q qilinganidan keyin xam autoimmun reaktsiyalar davom etadi. O‘RI bilan og‘rigan bemorlarda yurak autoantigenlari bilan reaksiyaga kirishadigan antitanalar Mullajanov X.E. (2023) tomonidan tariflangan. M.Kaplan va M.Suchy tomonidan olib borilgan tadqiqotlar A-streptokokk hujayra devori komponentlari yuborilgan hayvonlarda o‘tkazilgan tajribalarda, shuningdek O‘RI va AGBGS bo‘lgan bemorlarning qon zardobida streptokokk va inson yuragi antigenlari bilan o‘zaro reaksiyaga kirishuvchi antitellar mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar uchun qo‘shimcha stimul M-oqsilning tuzilishini aniqlash bo‘lib, unda insonning monoklonal antitanalari tomonidan tan olingan o‘zaro ta'sir qiluvchi epitoplarni izolyatsiya qilish edi. AGBGS antigenlariga javoban ishlab chiqarilgan monoklonal antitanalar yurak klapani to‘qimalarining bir qismi bo‘lgan ikki zanjirli matritsali oqsil bo‘lgan lamininga nisbatan o‘zaro reaktivlikka ega ekanligi ko‘rsatildi. Bundan tashqari, bu monoklonal antitanalar klapan endoteliysiga bog‘lanishga qodir bo‘lib, tomirlarning molekulalarida adgeziya-1 (VCAM-1) ni ifodalanishiga olib keladi. Oxirgisi T-limfotsitlarning endokardning faollashgan endoteliyasiga yopishishini rag‘batlantiradi, so‘ngra ularning ekstravazatsiyasi va valvulit rivojlanishi bilan klapan tuzilishiga kirib boradi. O‘RI / SRYuK patogenezida molekulyar mimikriya hodisasining ahamiyati amerikalik tadqiqotchilar tomonidanyaqinda chop etilgan ishda keltirilgan [38,63,64,65,80,90].

AGBGS, tonzillit, faringitdan farqli ravishda O‘RI bilan og‘rigan bemorlarda ASL-O, anti-DNK-aza B, M-oqsillari, A-guruh polisaxaridlari, shuningdek to‘qimalar antigenlariga - I turdagi kollagen va miozinga antitanalar darajasining sezilarli ustunligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, keyinchalik yurak nuqsonlari paydo bo‘lgan O‘RI bilan og‘rigan bemorlarda I turdagi kollagen va fibronektinga antitanalarning sezilarli darajada yuqori ishlab chiqarilishi kuzatiladi. Autoantitanalar, ehtimol, Sidenxam xoreyasi rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. C. Kirvan ma'lumotlariga ko‘ra, xoreya bilan og‘rigan bemorlardan ajratilgan A-streptokokk Na-tsetilglyukozaminga qarshi antitanalar o‘zlarining nerv to‘qimalarining gangliozidlari bilan o‘zaro ta'sirlashib, neyronlardan dofaminning chiqarilishiga olib keldi. E.L.Nasonova va boshqalarning tadqiqotlarida O‘RI boshlanishida hujayrali immunitetning sezilarli buzilishlari qayd etilganligini ko‘rsatdi: interleykin (IL) - 1-alfa (bemorlarning 54,8%), IL-1-beta (20%) kontsentratsiyasining oshishi, neopterin (81%), molekulyar og‘irligi 55 kD (47%) bo‘lgan o‘sma nekrozi omili (TNF) retseptorlarining eruvchan shakllari, monositlar / makrofaglar va T-limfotsitlar faolligining sezilarli darajada oshishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, qon zardobida neopterin darajasi aorta va mitral klapanlarning kombinatsiyalangan zararlanishi bo‘lgan bemorlarda faqat bitta mitral klapanining zararlanishi bo‘lgan yoki

ISSN 3030-3907

umuman klapan patologiyasi bo‘lmagan bemorlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Valvulitning rivojlanishi, shuningdek, klapan patologiyasining klinik va exokardiyografik belgilari bo‘lmagan bemorlarning 28% ga nisbatan 64,7% bemorlarda IL-1-alfa kontsentratsiyasining oshishi bilan bog‘liqligi avtorning ilmiy ishlarida keltiril;gan. Shunisi e'tiborga loyiqki, IL-1-beta darajasining oshishi faqat yurak klapani kasalligi tashxisi qo‘yilgan bemorlarda kuzatilgan. O‘RI da immun javobning xujayraviy zvenosining faollashuvi va shunga o‘xshash natijalar turkiyalik mualliflarning ishlarida keltirilgan. O‘RI bilan og‘rigan bolalarda "yallig‘lanishga qarshi" sitokinlarning (IL-1 retseptorlari antagonisti, TNF I retseptorlarining eruvchan shakli) zardobdagi kontsentratsiyasining nazorat guruhi bilan solishtirganda keskin o‘sishi ham, davolash tugaganidan keyin ham sog‘lom 3 oy o‘tgach qayd etilgan [77,78,79].

JSST ma'lumotlariga ko‘ra yoshiga va organism extiyojiga mos ravishda ovqatlanmaslik surunkali kasalliklarning asosiy sabablaridan biri xisoblanadi. Shuni hisobga olish kerakki, o‘smirlik davri inson hayotida ovqatlanish odatlarining shakllanishi va natijada organizmga makro va mikroelementlarning kirib borishi nuqtai nazaridan eng muhim davr hisoblanadi [39,37,92].

Suyak juda dinamik va moslashuvchan to‘qima bo‘lib, uning metabolizmi va gomeostaziga ko‘plab gormonal, mexanik, ozuqaviy, immunologik va farmakologik stimullar ta'sir qiladi. Genetik omillar suyak hujayralari faoliyatiga, tog‘ay sifatiga, kaltsiy va D vitamini gomeostaziga, jinsiy gormonlar almashinuviga va balog‘atga etish vaqtiga ta'sir ko‘rsatish orqali suyak tarkibiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bundan tashqari, optimal ovqatlanish va jismoniy faollik o‘sayotgan yoshda suyak massasining o‘sishiga yordam beradi. Bu omillarning barchasi suyakning eng yuqori massasiga erishishga ta'sir qiladi, bu esa katta yoshdagilarning suyak baquvvatligi va sinish xavfini aniqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ikkilamchi osteoporoz o‘tkir va surunkali kasalliklarga chalingan bolalarda klinik yordamning asosiy muammosi hisoblanadi. Yosh bolalarda idiopatik artrit kabi tizimli autoimmun kasalliklar skelet tizimiga ta'sir qilishi mumkin, bu suyak mineral zichligining pasayishiga va bolalik davrida mo‘rtlik, sinishi xavfining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Bunday bemorlarda suyak zichligining pasayishiga bir qancha omillar, jumladan sitokinlarning oshishi bilan kechadigan tizimli yallig‘lanish, jismoniy faollikning pasayishi, malabsorbtsiya va ozuqaviy yetishmovchilik, kaltsiy va D vitaminining kunlik miqdorining yetarli darajada iste'mol qilinmasligi, glyukokortikoidlarni qo‘llash, o‘sishdan orqada qolish va balog‘atga yetishning kechikishi ta’sir qilishi mumkin. Yuvenil artritda osteoporoz son suyagi bo‘yni va bilakning pastki orqa qismga qaraganda ko‘proq aniqlanadi. Shu bilan birga, vertebral yoriqlar, ayniqsa, glyukokortikoid terapiyasini olgan bemorlarda muhim bo‘lib, ko‘pincha

ISSN 3030-3907

asimptomatik tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun xavf ostida bo‘lgan bolalar uchun profilaktika, terapiya va kuzatuvni o‘z ichiga olgan standartlashtirilgan mushak-skelet tizimining diagnostika metodlarini qo‘llash majburiydir. Bu bobda biz skelet gomeostazida ishtirok etadigan molekulyar mexanizmlar, yallig‘lanish va surunkali kasallikning suyak metabolizmiga ta'sirini muhokama qilamiz. Suyak to‘qimasi ko‘plab fiziologik funktsiyalarni bajaradi: Ichki organlarni himoya qiladi va harakatni ta'minlaydi; uning tarkibida suyak iligi bo‘lib, nihoyat u kaltsiy va fosfat rezervuari bo‘lib xizmat qiladi. Molekulyar biologiyaning so‘nggi yutuqlari tufayli, vaqt o‘tishi bilan gormonal va dieta ta'sirlariga javob beradigan passiv to‘qimalarga bo‘lgan an'anaviy qarashlar o‘zgardi [1,31,33,36,62].

Shu sababli, bolalik davridagi revmatik kasalliklarning asosiy komorbidligi skeletning rivojlanishiga va suyak metabolizmiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun skeletning holatini baholash surunkali yallig‘lanish kasalliklari bo‘lgan bolalarda muhimdir. Ushbu adabiyotlar sharhida biz suyak metabolizmi va uning bolalik davridagi immunitet bilan bog‘liq kasalliklardagi ikkilamchi o‘zgarishlari haqidagi eng muhim bilimlarni umumlashtiramiz.

Ikkilamchi osteoporoz hozirgi kunda o‘tkir va surunkali kasalliklarga chalingan bolalarni davolashda muhim muammo sifatida tan olingan. Ushbu bemorlarda asosiy kasallikning patogenezi yoki uni davolash suyak sog‘lig‘iga ta'sir qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Bolalarda ikkilamchi osteoporoz bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklarning ko‘p turlari mavjud bo‘lib, ularning eng keng tarqalgani harakatchanlikning buzilishi, GK bilan davolangan yallig‘lanish kasalliklari, Duchen mushak distrofiyasi (DMD) va boshqa nerv-mushak kasalliklari, leykemiya va boshqa saratonlar, buyrak kasalligi (nefrotik sindrom), gipogonadizm va talassemiya shular jumlasidandir. Ushbu bemorlarda suyak zichligining pasayishiga ko‘plab omillar yordam beradi: bular sitokinlar darajasining oshish harakatsizlik natijasida suyaklardagi mushaklarning mexanik qarshiligining pasayishi, ozuqaviy yetishmovchilik, kunlik kaltsiyning yetishmasligi, organizmda kaltsiy yetishmasligi, mushak massasining yetishmasligi. Ushbu omillarning har biri xavf ostida bo‘lgan bolalarda suyak sog‘lig‘ini yaxshilash va optimallashtirish uchun hisobga olinishi va boshqarilishi kerak. Surunkali yallig‘lanish kasalliklari va bolalarda suyak metabolizmining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan. Yuvinil dermatomiozit, tizimli vaskulit va shu kabi tizimli autoimmun kasalliklar skelet tizimiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa bolalik davrida suyaklarning mo‘rtlashuviga, sinishi xavfining yuqori bo‘lishiga olib keladi [26,27].

Umuman olganda, bolalar populyatsiyasida D vitamini yetishmasligining tarqalishi so‘nggi yillarda faol o‘rganib kelinmoqda. Umumiy qabul qilingan

ISSN 3030-3907

mezonlarga muvofiq D vitaminini yetishmovchilgini 25 (OH) D tahlili asosida baholash qabul qilingan [20,25,26,36].

Shunday qilib, D vitamini ichaklarda kaltsiyning so‘rilishi uchun zarur bo‘lib, suyak mineralizatsiyasini ta'minlaydi. Uning yetishmovchiligi suyak to‘qimalarining mikroarxitektonikasiga ta'sir qiladi va o‘sishning kechikishi, patologik yoriqlar va suyak deformatsiyasiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Н. Ж. Значение педиатрии в кормлении детей витаминами и минеральными веществами //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-1 (106). – С. 244-247.
2. Алещик И. Ч., Плавский Д. М. Тактика лечения пациентов с хроническим тонзиллитом //ББК 56.8 я431 Ш 76. – 2022. – С. 8.
3. Ахрарова Ф. М. Особенности интерпретации электрокардиографических данных у детей с синдромом дисплазии соединительной ткани сердца //Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований. – 2022. – №. SI-1.
4. Балабанова Р. М., Дубинина Т. В., Насонов Е. Л. К 95-летию Российской ревматологической службы //Научно-практическая ревматология. – 2023. – Т. 61. – №. 1. – С. 5-9.
5. Бобомуратов Т. А., Каримова Н. А., Турсунбаев А. К. Осложнений со стороны сердечно-сосудистой системы у детей, перенесших COVID-19. – 2023.
6. Белов Б. С., Насонов Е. Л. К 100-летию со дня рождения академика ВА Насоновой Инфекции и ревматические заболевания: от прошлого к будущему //Научно-практическая ревматология. – 2023. – Т. 61. – №. 1. – С. 10-15.
7. Бережний В. В., Бондарець Ю. І. Нарушение микробиома толстого кишечника и его коррекция у больных ювенильным ревматоидным артритом //Современная педиатрия. – 2019. – №. 2. – С. 76-84.
8. Белов Б.С., Кузьмина Н.Н., Медынцева Л.Г. и др. К проблеме диагностики острой ревматической лихорадки на современном этапе. Научно-практическая ревматология, 2016, 3: 340-344.
9. Беловол А. Н., Князькова И. И. Ревматическая лихорадка: диагностика, лечение и профилактика. – 2018.
10. .Белов Б. С. и др. Диагностика острой ревматической лихорадки //Научно-практическая ревматология. – 2016. – Т. 54. – №. 4. – С. 395-397.
11. Бушуева Э. В., Арлашкина О. М., Карягин В. А. Маски острой ревматической лихорадки у детей //Здравоохранение Чувашии. – 2021. – №. 3. – С. 20-27.

ISSN 3030-3907

12. Бушуева Э. В. Острая ревматическая лихорадка: этиология, патоморфология //Здравоохранение Чувашии. – 2019. – №. 3. – С. 53-60.
13. Бушуева Э. В. Острая ревматическая лихорадка: классификация, диагностика на современном этапе //Здравоохранение Чувашии. – 2020. – №. 1. – С. 81-89.
14. Вёрткин А. и др. Лабораторная диагностика. Руководство для практических врачей. – Litres, 2023.
15. Гриднева Р. И. и др. Острая ревматическая лихорадка у детей //Дни ревматологии в Санкт-Петербурге-2019. – 2019. – С. 73-74.
16. Гончар Н. В., Слизовский Н. В. Патогенетическое значение коморбидности ювенильного ревматоидного артрита и компонентов метаболического синдрома (обзор литературы) //Детская медицина Северо-Запада. – 2021. – Т. 9. – №. 4. – С. 23-32.
17. Жерко Л. В., Казакова А. С. Острая ревматическая лихорадка: особенности течения в современных условиях. – 2017.
18. ЖунайдуллаеваМ. Острыеинфекционныезаболевания //sustainability of education, socio-economic science theory. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 50-58.

ISSN 3030-3907

DORIXONALARDA HISOB-KITOB TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Abdullaeva Sanobar Berdievna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
Jabbarova Parizoda Ilhomjon qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Annotatsiya. Dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirish zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, farmasevtika sohasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada dorixona faoliyatida moliyaviy va tovar aylanmasini nazorat qilishda axborot tizimlarining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari orqali inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish va ma’lumotlar aniqligini ta’minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada axborot texnologiyalarini joriy etish orqali dorixona xizmatlarining tezkorligi va shaffofligini oshirish masalalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, dorixona avtomatlashtirish tizimi, hisob-kitob jarayonlari, farmasevtika boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. Автоматизация системы учета в аптеках тесно связана со стремительным развитием современных информационных технологий, которые служат повышению эффективности в сфере фармации. В данной статье будет проведен научный анализ важности информационных систем для контроля финансового и товарооборота в аптечной деятельности. Возможности уменьшения ошибок, связанных с человеческим фактором, и обеспечения точности данных также рассматриваются с помощью автоматизированных систем учета. В статье представлена информация по вопросам повышения скорости и прозрачности предоставления аптечных услуг за счет внедрения информационных технологий.

Ключевые слова: информационные технологии, система автоматизации аптек, бухгалтерские процессы, фармацевтический менеджмент, цифровая экономика

Abstract. Automation of the accounting system in pharmacies is closely related to the rapid development of modern information technologies that serve to increase efficiency in the field of pharmacy. This article will provide a scientific analysis of the importance of information systems for controlling financial and commodity turnover in pharmacy activities. The possibilities of reducing errors related to the human factor and ensuring the accuracy of data are also being considered using automated accounting systems. The article provides information

ISSN 3030-3907

on improving the speed and transparency of pharmacy services through the introduction of information technology.

Keywords: information technology, pharmacy automation system, accounting processes, pharmaceutical management, digital economy

KIRISH.

Dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirish zamonaviy axborot texnologiyalarining farmasevtika sohasidagi muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dorixona faoliyatida tovar aylanmasi, moliyaviy operatsiyalar, dori vositalarining hisobini yuritish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun raqamli yechimlarga ehtiyoj ortib bormoqda. An’anaviy qo‘l mehnatiga asoslangan hisob-kitob usullari vaqt talab etishi, xatolar ehtimoli yuqori bo‘lishi va ma’lumotlarni qayta ishlashda qiyinchiliklar tug‘dirishi bilan ajralib turadi. Shu boisdan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish mazkur muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari dorixonalarda tovarlarni kirim-chiqimini aniq va tezkor hisobga olish imkonini beradi. Bu tizimlar orqali har bir dori vositasining nomlanishi, seriyasi, yaroqlilik muddati va narxi haqidagi ma’lumotlar yagona bazaga kiritiladi va doimiy ravishda yangilanib boradi. Natijada ombordagi qoldiqlar ustidan samarali nazorat o‘rnatiladi hamda ortiqcha yoki kamomad holatlarining oldi olinadi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan dasturlar orqali sotuv jarayoni tezlashadi, cheklar avtomatik ravishda shakllantiriladi va moliyaviy hisobotlar aniq tarzda yuritiladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish inson omili bilan bog‘liq xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan, dori narxlarini noto‘g‘ri kiritish, hisob-kitobda adashish yoki ma’lumotlarni yo‘qotish kabi holatlar avtomatlashtirilgan tizimlarda deyarli uchramaydi. Bundan tashqari, axborot tizimlari ma’lumotlarni himoya qilish, zaxira nusxalarini saqlash va ularni tezkor tiklash imkoniyatlarini ham ta’minlaydi. Bu esa dorixona faoliyatining barqarorligi va ishonchliligini oshiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari dorixona xizmatlarini yanada takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, onlayn buyurtma qabul qilish, elektron retseptlar bilan ishlash, mijozlar bazasini shakllantirish va tahlil qilish kabi imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa mijozlarga qulaylik yaratish bilan birga, dorixonalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali turli tahliliy hisobotlar tayyorlash mumkin bo‘lib, bu boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirish masalasi axborot texnologiyalari va farmasevtika boshqaruvi kesishgan nuqtada joylashgan muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar ushbu sohada raqamli

ISSN 3030-3907

texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish masalalarini tadqiq etganlar. Jumladan, axborot tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va inson omilini kamaytirish kabi jihatlar alohida ta’kidlanadi. Ilmiy manbalarda avtomatlashtirilgan tizimlar dorixona faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, hisob-kitob jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita sifatida baholanadi. Ayrim tadqiqotlarda farmasevtika sohasida ERP (Enterprise Resource Planning) va CRM (Customer Relationship Management) tizimlarini joriy etish orqali dori vositalari harakatini nazorat qilish va mijozlar bilan munosabatlarni samarali tashkil etish imkoniyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, elektron retseptlar, onlayn savdo platformalari va bulutli texnologiyalardan foydalanish dorixonalarda xizmat ko‘rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqishi ta’kidlangan. Mazkur yondashuvlar ilmiy adabiyotlarda innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi.

Metodologiya qismida esa tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va statistik usullardan foydalaniladi. Tadqiqot jarayonida dorixonalarda qo‘llanilayotgan an’anaviy va avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari o‘zaro taqqoslanib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlanadi.

Rus olimi I.V. Robert o‘z tadqiqotlarida sog‘liqni saqlash tizimida axborot texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat ko‘rsatish sifati va boshqaruv samaradorligi oshishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tibbiy muassasalarda, jumladan dorixonalarda, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ma’lumotlarni qayta ishlashni tezlashtirib, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytiradi. Shuningdek, farmasevtika sohasida tadqiqot olib borgan rus olimlari Ye.B. Loginova va O.N. Fedoseeva dori vositalarining harakatini avtomatik nazorat qilish tizimlari logistika jarayonlarini optimallashtirish va hisob-kitob shaffofligini ta’minlashini qayd etadilar. O‘zbek olimlaridan R.X. Alimov axborot texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlarida qo‘llash orqali hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning fikrlari dorixona faoliyatiga ham bevosita tatbiq etilishi mumkin, chunki dorixonalar ham savdo va xizmat ko‘rsatish tizimining bir qismi hisoblanadi. Shuningdek, N.Yu. Yusupbekov boshqaruv jarayonlarida axborot oqimlarini avtomatlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish mumkinligini ta’kidlaydi, bu esa dorixonalarda tovar va moliyaviy hisob-kitoblarni to‘g‘ri yuritishda muhim ahamiyatga egadir.

Shu tariqa, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dorixonalarda hisob-kitob tizimlarini avtomatlashtirish bo‘yicha fikrlar ko‘proq umumiy axborot tizimlari, tibbiyot va farmasevtika boshqaruvi doirasida yoritilgan. Biroq ushbu ilmiy qarashlar dorixona amaliyotiga moslashtirilganda,

ISSN 3030-3907

hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirishning samaradorligi, shaffofligi va ishonchliligi oshishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

MUHOKAMA. Dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirish axborot texnologiyalari asosida tashkil etilishi zamonaviy farmasevtika amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon orqali moliyaviy operatsiyalar, tovar harakati va ombor nazorati yagona elektron tizimda yuritiladi, natijada ma’lumotlarning tartibliligi va aniqligi ta’minlanadi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar dorixona faoliyatida ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash imkonini berib, hisob-kitob jarayonlarini soddalashtiradi. Bu esa sotuv, kirim-chiqim va qoldiq holatlarini uzluksiz nazorat qilishga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, barcha operatsiyalar elektron shaklda qayd etilishi boshqaruv jarayonini shaffoflashtiradi.

Axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Qo‘lda yuritiladigan hisob-kitoblarda uchraydigan noaniqliklar o‘rnini avtomatik hisoblash va tekshirish mexanizmlari egallaydi. Bu esa umumiy ish samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, elektron tizimlar orqali hisobotlarni shakllantirish, ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish jarayonlari ancha yengillashadi. Dorixona xodimlari uchun vaqt tejaladi hamda xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanadi.

Dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirishda axborot texnologiyalarining o‘rnini farmasevtika ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘qitiladigan amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Chunki kelajak farmasevtlar nafaqat dori vositalarini bilishi, balki zamonaviy raqamli tizimlar orqali hisob-kitob va boshqaruv jarayonlarini ham tushuna olishi kerak bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, o‘quv jarayonida avtomatlashtirilgan dorixona dasturlari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalarga elektron dorixona dasturlari orqali tovar kirim-chiqimi, ombor qoldiqlarini hisobga olish, retseptlar asosida sotuv jarayonini rasmiylashtirish kabi amaliy ko‘nikmalar o‘rgatiladi. Bu jarayonlar axborot texnologiyalarini real farmasevtika muhitiga yaqin holda tushunish imkonini beradi. Shu orqali talabalarda hisob-kitob jarayonlarining tizimliligi va aniqligi haqida tasavvur shakllanadi.

Shuningdek, mashg‘ulotlar davomida elektron hisobotlar tayyorlash, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash va statistik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalar ham rivojlantiriladi. Bu esa kelgusida dorixona faoliyatini samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan raqamli kompetensiyalarni shakllantiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ishlash jarayoni talabalarda mas’uliyat, aniqlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ham oshiradi.

ISSN 3030-3907

Bunday yondashuv farmasevtika ta’limida nazariya va amaliyotning uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Natijada talabalar dorixona faoliyatida axborot texnologiyalarining o‘rnini chuqur anglab yetadi va zamonaviy raqamli muhitda ishlashga tayyor mutaxassis sifatida shakllanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirish farmasevtika sohasining zamonaviy raqamli rivojlanish yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda tezkor ma’lumot almashinuvi va aniq hisob-kitobga bo‘lgan talab ushbu jarayonni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu jihatdan avtomatlashtirilgan tizimlar dorixona faoliyatini yangi texnologik bosqichga olib chiqadi. Elektron hisob-kitob platformalari orqali moliyaviy operatsiyalar va tovar harakati yagona tizimda boshqariladi, bu esa jarayonlar o‘rtasidagi muvofiqlikni kuchaytiradi. Ma’lumotlarning real vaqtda yangilanishi qaror qabul qilishda tezkorlikni ta’minlaydi hamda nazorat imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli yechimlar qo‘llanilishi inson omili ta’sirini kamaytirib, hisob-kitoblardagi aniqlik va ishonchlilikni oshiradi. Shu bilan birga, ish jarayonlarining avtomatlashishi xodimlar mehnatini yengillashtirib, samaradorlikni yuqori darajaga olib chiqadi. Bunday tizimlar hisobotlarni shakllantirish va tahlil qilishni soddalashtirib, dorixona boshqaruvida shaffoflikni ta’minlaydi. Bu esa mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Dorixonalarda avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari zamonaviy farmasevtika boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, raqamli transformatsiya jarayonining muhim amaliy ko‘rinishi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, dorixonalarda hisob-kitob tizimini avtomatlashtirish axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi orqali amalga oshiriladi va bu jarayon farmasevtika sohasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Avtomatlashtirish orqali ish samaradorligi oshadi, xizmat sifati yaxshilanadi va moliyaviy shaffoflik ta’minlanadi. Kelajakda bu sohada innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish dorixona faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Омельченко В.П., Демидова А.А. Информатика и медицинские информационные системы. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018. – 528 с.
2. Гулямов С.С., Бегалов Б.А. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 392 б.
3. Алимов Р.Х., Юсупбеков Н.Ю. Бошқарувнинг ахборот тизимлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2017. – 340 б.
4. Роберт И.В. Информационные технологии в образовании и медицине. – М.: Дрофа, 2016. – 312 с.

ISSN 3030-3907

5. Bourgeois D.T., Seigel J.S. Pharmacy Informatics. – Burlington: Jones & Bartlett Learning, 2017. – 450 p.
6. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
7. R. Langer, "Dori vositalarini yetkazish va maqsadlash", Nature, 1998, 392: 5–10.
8. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). Innovative approaches in the education system to increase youth participation. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 674-677.
9. Berdiyevna, A. S., Fazliddinovich, S. R., & Uralovich, R. N. (2022). Use of Information Technology in Improving the Quality of Education. Eurasian Research Bulletin, 14, 134- 138.Abdullayeva, S. B., & Dosmurodova, S. S. (2022). The role of the family in the formation of value directions in youth. Procedia of Theoretical and Applied Sciences, 1(1), 93-95.

ISSN 3030-3907

OILAVIY SHIFOKORLARNI MASOFAVIY O‘QITISHNING IQTISODIY HISOB-KITOB MODELI

Voxidov Dilshod Alikulovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy shifokorlarni masofaviy malaka oshirish tizimini tashkil etishning iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqotda masofaviy ta’limning xarajatlari, samaradorligi va an’anaviy ta’lim bilan solishtirma tahlili amalga oshirilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, dastlabki investitsiya yuqori bo‘lishiga qaramay, keyingi yillarda xarajatlar sezilarli darajada kamayadi va iqtisodiy samaradorlik ortadi. Model sog‘liqni saqlash tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, iqtisodiy model, oilaviy shifokor, malaka oshirish, samaradorlik, investitsiya, sog‘liqni saqlash.

Аннотация. в данной статье разработана экономическая модель дистанционного повышения квалификации семейных врачей. Проведен сравнительный анализ затрат дистанционного и традиционного обучения. Результаты показывают, что несмотря на высокие первоначальные инвестиции, в последующие годы затраты существенно снижаются, а экономическая эффективность увеличивается. Модель способствует развитию системы непрерывного медицинского образования.

Ключевые слова: дистанционное обучение, экономическая модель, семейный врач, повышение квалификации, эффективность, инвестиции.

Abstract. this article presents an economic model for distance training of family physicians. A comparative analysis between traditional and distance education costs is conducted. The results indicate that although initial investments are high, long-term costs significantly decrease, leading to improved economic efficiency. The model supports continuous professional development in the healthcare system.

Keywords: distance education, economic model, family physician, professional development, efficiency, investment.

KIRISH.

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida tibbiyot xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi[4]. Ayniqsa, oilaviy shifokorlar birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, ularning bilim va ko‘nikmalarini yangilab borish zarur [12]. An’anaviy o‘qitish shakllari vaqt va mablag‘ jihatidan katta resurs talab qiladi [6,8]. Shu sababli masofaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda [7].

ISSN 3030-3907

Mazkur tadqiqotning maqsadi - oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitish tizimining iqtisodiy samaradorligini aniqlash va uni an’anaviy ta’lim bilan solishtirishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, solishtirma analiz, matematik modellashtirish va statistik hisob-kitob usullaridan foydalanildi [15]. Model quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Resurs xarajatlari: o‘quv jarayoni xarajatlari, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, texnik infratuzilma, samaradorlik ko‘rsatkichlari.

ASOSIY QISM.

1. **Xarajatlar modeli.** Masofaviy o‘qitish tizimining umumiy xarajatlari quyidagi formula asosida aniqlanadi [9]:

$$J_{jami} = J_1 + J_2 + J_3 + J_4$$

Hisob-kitoblarga ko‘ra: J_1 (platforma) = 125 mln so‘m, J_2 (materiallar) = 125 mln so‘m, J_3 (pedagogik xizmat) = 264 mln so‘m, J_4 (tinglovchi bilan ishlash) = 70 mln so‘m.

Umumiy xarajat:

$$J_{jami} = 125 + 125 + 264 + 70 = 584\ mln\ so‘m$$

2. Bitta tinglovchi uchun xarajat.

Agar malaka oshirish kursda 120 ta oilaviy shifokor o‘qisa:

$$J_{1tinglovchi} = \frac{584000000}{120}$$

$$J_{1tinglovchi} = 4866000\ so'm$$

3. An’anaviy ta’lim bilan taqqoslash.

An’anaviy ta’lim xarajatlari: Auditoriya ijarasi: 120 mln, yo‘l va yashash xarajatlari: 95 mln, bosma materiallar: 40 mln, o‘qituvchilarga qo‘shimcha to‘lov: 80 mln.

Jami: 335 mln + pedagogik xarajatlar 150 mln = 485 mln so‘m

Bitta tinglovchi uchun an’anaviy ta’lim xarajati:

$$\frac{485000000}{120} = 4041000\ so'm$$

Bundan ko‘rinadiki bu kursda masofaviy o‘qitish birlamchi bosqichda qimmatroq, chunki platforma yaratilishi katta xarajat talab etadi[10].

Ammo keyingi yillarda xarajat keskin kamayadi, chunki portal qayta yaratilmaydi.

4. Keyingi yillardagi iqtisodiy model.

2-yil uchun umumiy xarajat: 334 mln so‘m1 tinglovchi uchun: ≈ 2 783 000 so‘m. Bu an’anaviy ta’limdan 31% arzon.

5. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi (ISK).

ISSN 3030-3907

$$ISK = \frac{M_{tejalgan}}{C_{investitsiya}}$$

Investitsiya bosqichi:

1-yil uchun tejalgan mablag‘ yo‘q.


2-yil:

$$M_{tejalgan} = 485 - 334 = 151\ mln$$

$$ISK = \frac{151}{584} = 0{,}258 \approx 25{,}8\%$$

Bu juda yuqori ko‘rsatkich. 3-yil va keyingi yillarda samaradorlik yanada oshadi.

Quyida oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitishning iqtisodiy hisob-kitob modelining masofaviy va an’anaviy ta’lim xarajatlari taqqoslanishi hamda iqtisodiy samaradorlik dinamikasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Masofaviy va an’anaviy ta’lim xarajatlari taqqoslanishi hamda iqtisodiy samaradorlik dinamikasi

MUHOKAMA.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim dastlab investitsiya talab qilsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy jihatdan ancha foydali [13]. Ayniqsa: infratuzilma qayta ishlatiladi, auditoriya va transport xarajatlari yo‘q, ko‘proq tinglovchilarni qamrab olish mumkin.

XULOSA.

ISSN 3030-3907

Masofaviy ta’lim tizimi 2–3 yil ichida o‘zini to‘liq oqlaydi, xarajatlar 40–55% gacha kamayadi, tinglovchi boshiga xarajat 2 baravar kamayadi, model sog‘liqni saqlash tizimi uchun barqaror yechim hisoblanadi [4,5,11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi PF-5712-son Farmoni. *Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. *Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish tizimi to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar to‘plami*. – Toshkent, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. *Masofaviy ta’limni joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma*. – Toshkent, 2020.
4. World Health Organization (WHO). *Continuing professional development for health workers: guidelines*. – Geneva: WHO Press, 2013.
5. UNESCO. *Distance Education for Health Professionals: Global Trends and Issues*. – Paris, 2020.
6. Moore M.G., Kearsley G. *Distance Education: A Systems View of Online Learning*. – New York: Wadsworth Publishing, 2012.
7. Anderson T. *The Theory and Practice of Online Learning*. – Edmonton: Athabasca University Press, 2011.
8. Bates A.W. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. – Vancouver, 2019.
9. Khan B.H. *Managing E-learning Strategies: Design, Delivery, Implementation and Evaluation*. – Hershey: IGI Global, 2005.
10. Zhang D., Zhao J.L., Zhou L., Nunamaker J.F. *Can e-learning replace classroom learning?* // Communications of the ACM. – 2004. – Vol. 47(5). – P. 75–79.
11. Allen I.E., Seaman J. *Digital Learning Compass: Distance Education Enrollment Report*. – Babson Survey Research Group, 2017.
12. Friedman C.P., Donaldson K.M., Vantsevich A.V. *Educating Medical Professionals in the Digital Age* // Academic Medicine. – 2016. – Vol. 91(9). – P. 1234–1239.
13. Garrison D.R. *E-learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice*. – London: Routledge, 2017.
14. Ozodov Sh.A. *Masofaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari*. – Toshkent, 2021.
15. Xoliqov N.Q. *Ta’lim iqtisodiyoti*. – Toshkent: Fan, 2018.
16. Voxidov D.A., Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Oilaviy shifokor mutaxassislarning malakasini oshirish tizimida samarali masofadan o‘qitishning

ISSN 3030-3907

pedagogik shartlari. Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal, 2024-yil, 8-son.Toshkent. 85-89 bet.
17. Voxidov D.A., Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Ta’lim jarayonida oilaviy shifokor mutaxassislarni masofadan o‘qitishni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari. Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal, 2024-yil, 12-son.Toshkent. 118-124 bet.
18. Voxidov D.A., Ne’matjonova Yu.,Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Oliy ta’lim tizimida oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish. Development of science. 2026.10.02, Volume 1,107-112.
19. Voxidov D.A., Ne’matjonova Yu., Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Ta’lim tizimida masofaviy ta’limning o‘rni, mohiyati va funktsiyalari oilaviy shifokorlarni tayyorlashda. Development of science. 2026.10.02, Volume 1,119-133.

ISSN 3030-3907

TALABALARDA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI

Miraliyeva Dilafruz Tohirovna
Xalqaro Nordik Universiteti P.f.f.d., (PhD) dotsent
Sharipova Shohida Shoymardonovna
Xalqaro Nordik Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda badiiy adabiyotning tutgan o‘rni, uning ahamiyati, zamonaviy ta’lim jarayonida badiiy matnlar asosida ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiyot va kreativlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, badiiy asarlarni o‘qish orqali shaxs ongida yuzaga keladigan o‘zgarishlar, fikrlash doirasining kengayishi, bevosita hayotiy misollar tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy psixologik va pedagogik nazariyalar asosida badiiy adabiyotning ijodiy tafakkurni shakllantirishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, badiiy adabiyot, tafakkur, ijodkorlik, talaba, o‘qitish, pedagogika, zamonaviy ta’lim.

Аннотация. В данной статье подробно анализируется роль художественной литературы в формировании навыков творческого мышления у учащихся, её значение и возможности развития творческой деятельности на основе художественных текстов в современном образовательном процессе. Также анализируется неразрывная связь между литературой и творчеством, изменения, происходящие в сознании человека при чтении художественной литературы, расширение кругозора и приводятся примеры из жизни. Статья научно освещает роль художественной литературы в формировании творческого мышления на основе современных психолого-педагогических теорий.

Ключевые слова: творческое мышление, художественная литература, мышление, творчество, учащийся, обучение, педагогика, современное образование.

Abstract. This article extensively analyzes the role of fiction in the formation of creative thinking skills in students, its importance, and the possibilities of developing creative activity based on fiction texts in the modern educational process. It also analyzes the inextricable link between literature and creativity, the changes that occur in the consciousness of a person through reading fiction, the expansion of the scope of thinking, and direct life examples. The article scientifically illuminates the role of fiction in the formation of creative thinking based on modern psychological and pedagogical theories.

ISSN 3030-3907

Keywords: creative thinking, fiction, thinking, creativity, student, teaching, pedagogy, modern education.

KIRISH.

Yangi islohotlar bosqichiga qadam qo‘ygan mamlakatimizda yoshlarni zamon talablari asosida tarbiyalash va ularning ilmiy, madaniy salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugun zamonaviy axborot asri, intellektual kapitalning asosi sifatida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti. Ayniqsa, talabalarda mustaqil fikrlash, ertangi kunda innovatsion yutuqlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadigan kreativ tafakkurni shakllantirishda badiiy adabiyot g‘oyat muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Badiiy adabiyot kishining dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini boyitish, so‘z boyligini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish sifatida naqadar muhim vosita ekani tarixan ko‘p bora isbotlangan. Hozirgi kunda esa badiiy matnlarni o‘qitishda didaktikadan ko‘ra ijodkorlikka, yangi g‘oyalarni ilgari surish imkonini beradigan kreativ fikr yuritishga urg‘u berilayotgani bejiz emas. Badiiy asarlarni o‘qiydigan talaba odatda, tasavvur qilish va obrazlarni individual talqin qilish, fikrlarni mustaqil ravishda shakllantirish, muammolarga yangicha yechim topa olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Badiiy adabiyot bu faqatgina hayotni aks ettirish, axloqiy me’yorlarni talqin qilish vositasi emas, balki insonga beg‘ubor, betakror ijodiy tafakkur ochilishiga imkoniyat beradigan keng maydondir. Adabiyot orqali kishi o‘z dunyoqarashini shakllantiradi, fikrlash doirasini kengaytirishga erishadi, voqelikni ko‘proq talqin qilish imkoniga ega bo‘ladi. Shu ma’noda, adabiyot va kreativ fikrlash o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy tushuncha sifatida ko‘riladi. Kreativ fikrlash deganda insonga xos bo‘lgan mavjud g‘oyalar asosida yangi, original qarashlarni ilgari surish, bo‘layotgan voqea-hodisalarga o‘ziga xos yondoshuv bilan baho berish, muammolar yechimini noan’anaviy usullar orqali hal etish ko‘nikmasi tushuniladi. Aynan mana shu ko‘nikmalar badiiy adabiyot ta’sirida shakllana boshlaydi. Chunki, har bir asarda muallif tomonidan ilgari surilgan g‘oya o‘quvchini fikrlashga undaydi, savol paydo bo‘ladi, javob izlashga majbur bo‘ladi, natijada, talaba ham muammoga o‘z yondashuvini shakllantiradi [1].

Zamonaviy ta’limda ijodkorlik – o‘qitish jarayonining markaziga aylangan. O‘qituvchi talabalarda faqatgina bilim emas, balki insoniy fazilatlarni, o‘ziga xos qarash va ijtimoiy hayotga munosabat ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘lida turli metod va usullardan foydalanishga intiladi. Badiiy adabiyot bu borada talaba o‘z tasavvurida turli obrazlarni, syujetni, g‘oyani qayta-hozir qilishi, voqeani boshqacha, kutilmagan yo‘nalishda davom ettirishi, muallifni ham ma’nan

ISSN 3030-3907

to‘ldirib yuborishi orqali ijodiy tafakkur shakllantiradi. Talaba o‘z dunyoqarashini kengaytiradi, xayolot olamini faol ishga soladi, matndagi obrazni qayta idrok etadi, hatto muallif bilan “dialogga” kiradi. Bunday uslubda o‘qilgan adabiyot har qanday saboqdan, mustaqil mashg‘ulotdan, ochiq darsdan samaraliroq ijodiy natijaga olib keladi. Chunki kreativ fikr talabaning o‘zini bilishga, boshqalar bilan taqqoslashga, yangilikka intilishga va hayotga individual qarashga yo‘naltiradi [2].

Inson tafakkuriga ta’sir qiluvchi eng kuchli vositalardan biri so‘zdir. Badiiy matn esa so‘z imkoniyatining cho‘qqisi, jamiyat tafakkurining in’ikosidir. Talaba badiiy adabiyot mutolaasi jarayonida hayotga, jamiyatga, inson turmushiga, tabiatga, tarixga doir eng muhim savollarga javob topishga urinadi, o‘z mavqeyini, o‘z dunyoqarashini aniqlaydi. Aynan shu jarayonda unda kreativ tafakkur, yangi voqealarni o‘z boshidan o‘tkazish, obrazlarni xayolan “tiriltirish”, ruhiy his-hayajonni teran idrok etish ko‘nikmalari shakllanadi. Psixolog olimlar ta’kidlashicha, odatda badiiy matn bilan “yashash”, voqealarni tusha olish va tahlil eta bilish, shaxsda kreativ tafakkurning asosiy manbai hisoblanadi. O‘z navbatida, talaba hayotiy misollar, ijtimoiy jarayonlar, tarixiy voqealarni badiiy matnda o‘z aksini topganini o‘qib borar ekan, o‘z-o‘zidan voqelikga nisbatan yangicha kareyk, mustaqil fikrga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘zini doimiy ijodiy qidiruvda, o‘rganishda, o‘zini tahlil qilishda ko‘radi, bu esa kreativ tafakkurni yanada faol harakatga keltiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O‘quv jarayonida badiiy adabiyotdan samarali foydalanish uchun turli usullar ishlab chiqilgan. Jumladan, hikoyani tahlil qilish orqali undan muayyan tayanch nuqtalarini aniqlash, obrazlar harakatini ilgari surish, personaj mujassamida ijodiy tafakkur elementlarini izlash, voqealarning alternativ tugatishini taklif etish, badiiy asarni zamonaviy kontekstda qayta talqin qilish, autsorsing (roli o‘ynatish, dramaturgiya asosida yangi sahna yaratuvchi mashg‘ulotlar) kabi metodlar talabalarda kreativlikni shakllantiradi. So‘nggi yillarda badiiy adabiyot asosida kreativ fikrlash doiralarini kengaytirish uchun dasturiy metodikalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, “Fantaziya metodikasi”, “Roliy o‘yin”, “Obrazli tafakkur” kabi yangi metodlar talabalarning o‘z hayotiy tajribasini badiiy matn asosida tahlil qilishiga yordam beradi. O‘qituvchi esa har bir talabaning individual tafakkurini, dunyoqarashini va psixologik xususiyatlarini nazarda tutgan holda faoliyat olib borishi talab etiladi. Muhimi, badiiy adabiyot bo‘yicha mustaqil tanqidiy fikrlar, esse va tahliliy maqolalar yozish talabalarda ijodiy izlanish, original yechim topish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu jarayon ham o‘zaro muloqot, bahs-munozara va ijodiy hamkorlik asosida sodir bo‘lganida maksimal natija beradi. Shu tariqa, kreativ

ISSN 3030-3907

tafakkurni shakllantirish haqiqiy ijodiy muhitsiz, badiiy adabiyotning boy imkoniyatlarisiz amalga oshmaydi [3].

Har bir badiiy asar tagzaminida muayyan falsafiy va axloqiy mezon mavjud: insonparvarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, haqiqatgo‘ylik va boshqalar. Aynan mana shu g‘oyalar kreativ tafakkur, mustaqil qarash uchun zamin yaratadi. Badiiy obrazlar orqali ijtimoiy jarayonlar va odamlar hayotini chuqur o‘rganish imkoniyati ochiladi. Shuningdek, she’riyatda timsollar tizimi, nasr asarlarida voqealar dramaturgiyasi, dramada obrazlar qarama-qarshiligi orqali ijtimoiy hayot to‘g‘risida chuqur xulosalar chiqarish mumkin. Talaba o‘qigan har bir asar uning tarzini, orzularini, qiymat mezonlarini belgilovchi omilga aylanishi mumkin. Shunday qilib, kreativ fikrlash – badiiy adabiyot ta’sirida to‘laqonli shakllanadigan murakkab tafakkur tizimidir. Zamonaviy ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Badiiy matnlarni o‘rganish, tahlil qilish, baxs qilish, munozara yuritish palan jarayonlar talabalarda faqatgina bilish emas, balki o‘z fikrini aniq, lo‘nda, asosli va hujjatli tarzda ifoda eta olish, savollarga javob berish, o‘zgalar fikrini tahlil qilish, muloqotga kirishish, auditoriyaga ta’sir o‘tkazish singari ko‘nikmalarni ham tarbiyalaydi. Bu esa, kreativ fikrlashning asosiy komponenti – o‘z g‘oyalarini himoya qila olish madaniyati va so‘z ta’sirini his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Axborot portlashi asrida internet va zamonaviy vositalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kitoblar, audiokitoblar orqali badiiy adabiyotga kirib borish imkoniyatlari ortib bormoqda. Bu holat kreativ fikrlashni shakllantirishda yangi usullarni sinovdan o‘tkazish imkonini yaratdi. Masalan, multimodal ta’lim jarayonida badiiy matnlarni vizual, audio va kinokadrlar tarzida o‘rganish natijasida talaba matnga nisbatan individual yondashuv shakllantiradi. Bunday usullar uning ijodiy izlanish doirasini kengaytiradi, har xil vositalardan foydalanishda tez moslashadi [4].

Har bir talaba uchun mustaqil o‘qish, o‘zaro bahs olib borish, tanqidiy qarash, yangi g‘oyalarga erkin baho berish, muallifga savol bera olish, muammoni individ qilgan holda yechish orqali kreativ tafakkur rivojlanadi. Ma’lumki, badiiy adabiyot har bir o‘quvchining dunyoqarashi, ruhiyatini kengaytiradi, boshqa asarlar, turli janrlarni mutolaa qilishga turtki beradi. Mustaqil mutolaa faqatgina mantiqiy tafakkur emas, balki tasavvur olamini, ijodiy kuchi, jamiyatga befarq emas, serg‘ayrat, mustaqil shaxs paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Talaba mustaqil mutolaa orqali o‘zini anglaydi, zamon bilan hamnafas bo‘ladi, jamiyatdagi har bir voqea, hadysa va hodisaga o‘z yondashuvini shakllantiradi. Bu – ijodiy tafakkur shakllanishining eng asosiy bosqichlaridan biridir.[5].

XULOSA.

ISSN 3030-3907

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda badiiy adabiyot eng samarali vositalardan biridir. Badiiy adabiyotning dunyoqarashni kengaytirish, tasavvur doirasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yechimlar izlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Talabalarni badiiy matn asosida mustaqil va ijodiy izlanishga yo‘naltirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita hissa qo‘shadi. Talabada ijtimoiy faol, zamonaviy qarashlarga ega, innovatsion tafakkur bilan ilgari siljiydigan kuchli shaxs yetishib chiqadi. Zamonaviy pedagogik tajriba va ilmiy manbalar asosida shuni yanglishmasdan ta’kidlash mumkinki, badiiy adabiyot ta’siri, to‘g‘ri tanlangan metod va har bir talabaning insoniy qadriga hurmat asosida olib borilgan didaktik va ijodiy faoliyat asosida o‘z samarasini beradi. Bu esa talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasining taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov, S. (2022). “Badiiy adabiyot va zamonaviy ta’lim tizimi”, Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Karimova, X. (2020). “Kreativ fikrlash nazariyasi va uni rivojlantirish yo‘llari”, Samarqand: Oliy ta’lim nashr.
3. Yoqubov, B. (2019). “Talabalar uchun adabiy metodika”, Namangan: Innovatsion pedagogika markazi.
4. G‘aniyeva, S. (2021). “Badiiy tafakkur va kreativ kompetensiya”, Qarshi: Nasaf universiteti bosmaxonasi.
5. Abdullayeva, Q. (2023). “O‘zbek adabiyoti va kreativ pedagogika”, Farg‘ona: Ilm ziyo mualliflik markazi.
6. Ergasheva, M. (2018). “Kreativlik va adabiy obraz muammosi”, Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
7. G‘afurov, I. (2021). “Pedagogik innovatsiyalar va kreativ fikrlash metodikasi”, Toshkent: O‘qituvchi.

ISSN 3030-3907

ПОТЕРИ ЭНЕРГИИ В СОЛНЕЧНЫХ ПАНЕЛЯХ И МЕТОДЫ ИХ СНИЖЕНИЯ

Маджидова Махлиё Азам кизи
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан
г. Карши, ул. Кочабог, дом 17
E-mail: maxliyomajidova106@gmail.com
Tel: 998873101193

Аннотация. В данной работе проанализированы потери энергии в фотоэлектрических батареях при преобразовании солнечного излучения в электрическую энергию. Исследование выполнено на примере солнечной фотоэлектрической станции Педагогического факультета КДУ на основе экспериментальных данных за январь–февраль 2026 года. Установлено, что основные потери связаны с оптическими, тепловыми, рекомбинационными и электрическими факторами. Также выявлено значительное влияние метеорологических условий на эффективность системы. Полученные результаты имеют важное значение для повышения эффективности и снижения энергетических потерь.

Ключевые слова: фотоэлектрические батареи, солнечное излучение, потери энергии, эффективность, оптические потери, тепловые потери, рекомбинация, инвертор.

Abstract. This study analyzes energy losses in photovoltaic systems during the conversion of solar radiation into electrical energy. The research was conducted based on experimental data collected in January–February 2026 at a photovoltaic station of the Pedagogical Faculty of Karshi State University. The results show that energy losses are mainly caused by optical, thermal, recombination, and electrical factors. It was also found that meteorological conditions significantly affect system performance. The findings are important for improving efficiency and reducing energy losses in photovoltaic systems.

Keywords: photovoltaic system, solar radiation, energy losses, efficiency, optical losses, thermal losses, recombination, inverter.

Annotatsiya. Ushbu ishda quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirishda fotoelektrik batareyalarda energiya yo‘qotishlari tahlil qilingan. Tadqiqot 2026-yil yanvar-fevral oylaridagi eksperimental ma’lumotlar asosida KDU Pedagogika fakulteti quyosh fotoelektrik stansiyasi misolida amalga oshirilgan. Asosiy yo‘qotishlar optik, issiqlik, rekombinatsion va elektr omillari bilan bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, meteorologik sharoitlarning tizim samaradorligiga sezilarli ta’siri borligi aniqlandi. Olingan natijalar samaradorlikni oshirish va energiya yo‘qotishlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: fotoelektrik batareyalar, quyosh nurlanishi, energiya yo‘qotishlari, samaradorlik, optik yo‘qotishlar, issiqlik yo‘qotishlari, rekombinatsiya, invertor.

ВВЕДЕНИЕ.

В настоящее время доля возобновляемых источников энергии в глобальной энергетической системе стремительно возрастает. Ограниченность традиционных топливных ресурсов, усиление экологических проблем, а также необходимость обеспечения энергетической безопасности превращают солнечную энергетику в одно из приоритетных направлений развития [1]. Солнечная энергия является практически неисчерпаемым источником, при этом объём солнечного излучения, достигающего поверхности Земли, в несколько раз превышает глобальные энергетические потребности. Фотоэлектрические системы представляют собой эффективную технологию прямого преобразования солнечного излучения в электрическую энергию. Однако в реальных условиях достижение максимальной эффективности затруднено вследствие различных энергетических потерь [2]. Потери энергии в фотоэлектрических системах в основном связаны с оптическими (отражение и неполное поглощение), тепловыми (влияние температуры), рекомбинационными процессами, а также электрическими потерями (сопротивление кабелей и потери в инверторе). Указанные факторы существенно снижают эффективность системы [3]. В данном исследовании на основе данных действующей фотоэлектрической станции проводится анализ потерь на этапах генерации, передачи и потребления энергии, а также оцениваются возможности их снижения.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ. Изучение процессов потерь энергии солнечного излучения в фотоэлектрических системах в последние годы стало одним из актуальных научных направлений в области энергетики. Основное внимание в данных исследованиях уделяется повышению эффективности преобразования энергии и минимизации потерь. В зарубежной научной литературе подробно рассмотрены принципы функционирования фотоэлектрических систем, пределы их эффективности, а также основные виды энергетических потерь. В частности, в работе *Solar Engineering of Thermal Processes* освещены физические свойства солнечного излучения и оптические потери при его прохождении через атмосферу. Авторы подчёркивают значительную роль оптических потерь в процессе достижения солнечного излучения поверхности Земли [1]. В труде *Photovoltaic Systems Engineering* системно проанализированы техническая структура фотоэлектрических систем, их эффективность и энергетические потери в реальных условиях эксплуатации, при этом особое внимание

ISSN 3030-3907

уделено электрическим потерям и эффективности инверторов [2]. Фундаментальные физические основы фотоэлектрических процессов подробно изложены в *Handbook of Photovoltaic Science and Engineering*, где на научной основе объясняются рекомбинационные процессы и теоретические пределы эффективности [3]. В работе *Solar Cells: Operating Principles, Technology and System Applications* проанализированы основные потери в фотоэлементах, включая спектральное несоответствие, рекомбинационные и тепловые потери [4]. Современные исследования демонстрируют возможности снижения энергетических потерь за счёт применения многослойных солнечных элементов, передовых полупроводниковых материалов и совершенствования алгоритмов MPPT [5], [6]. Вместе с тем практические результаты показывают, что эффективность фотоэлектрических систем в реальных условиях существенно отличается от теоретических значений. Это различие обусловлено метеорологическими факторами, запылённостью, затенением и температурным воздействием. Совокупные потери энергии могут достигать 20–40% [4], [5]. Анализ существующих исследований показывает, что, несмотря на широкое изучение энергетических потерь, комплексные исследования на основе экспериментальных данных, полученных в реальных условиях эксплуатации, освещены недостаточно. Особенно актуальной остаётся задача системного изучения данных процессов в условиях местного климата. Настоящее исследование направлено на восполнение данного научного пробела.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ. В данном исследовании для выявления и оценки процессов энергетических потерь солнечного излучения в фотоэлектрических батареях применён комплексный экспериментально-аналитический подход. Методология исследования ориентирована на мониторинг эксплуатационных показателей действующей солнечной фотоэлектрической системы в реальных условиях, их математический анализ, а также научно обоснованное обобщение полученных результатов.

Объект исследования и условия наблюдений: В качестве объекта исследования была выбрана действующая солнечная фотоэлектрическая станция. Наблюдения проводились в январе–феврале 2026 года, при этом ежедневно фиксировались эксплуатационные показатели системы. К основным параметрам относятся: суммарная выработанная фотоэлектрическими панелями энергия $E_{\text{фэ}}$, потреблённая энергия $E_{\text{нагрузки}}$, энергия, переданная в электрическую сеть $E_{\text{сети}}$, а также энергия,

ISSN 3030-3907

полученная из сети $E_{\text{входа}}$. Данные параметры позволяют полноценно охарактеризовать энергетические потоки в фотоэлектрической системе и определить энергетический баланс. Энергетический баланс фотоэлектрической системы выражается следующим уравнением:

$$E_{\text{фэ}} = E_{\text{нагрузки}} + E_{\text{сети}} + E_{\text{потерь}} \quad (1)$$

Здесь $E_{\text{потерь}}$ представляет собой общие энергетические потери, возникающие в системе. Данный подход широко применяется при оценке энергетической эффективности фотоэлектрических систем [7]. Экспериментальные данные были получены с использованием инверторной системы мониторинга. Данная система обеспечивает регистрацию эксплуатационных параметров фотоэлектрической станции в режиме реального времени и является одним из основных диагностических инструментов современных PV-систем. С помощью системы мониторинга были получены точные и достоверные данные о суточной выработке, энергетическом обмене и нагрузке системы. На основе собранных экспериментальных данных также была оценена эффективность фотоэлектрической системы. Коэффициент полезного действия системы определяется следующим выражением:

$$\eta = \frac{E_{\text{нагрузки}} + E_{\text{сети}}}{E_{\text{фэ}}} \times 100\% \quad (2)$$

Данный показатель позволяет определить, насколько эффективно используется энергия, вырабатываемая фотоэлектрической системой. В то же время энергетические потери были оценены в следующем виде:

$$E_{\text{потерь}} = E_{\text{фэ}} - \left(E_{\text{нагрузки}+} E_{\text{сети}}\right) \quad (3)$$

Данная методика является эффективным подходом для выявления энергетических потерь в фотоэлектрических системах и анализа их основных причин [8]. Энергетические потоки в фотоэлектрической системе оценивались с помощью следующего уравнения энергетического баланса:

$$E_{\text{фэ}} = E_{\text{полезная}} + E_{\text{потерь}} \quad (4)$$

Здесь: $E_{\text{фэ}}$ — суммарная произведённая энергия;

$E_{\text{полезная}}$ — полезно использованная энергия (потреблённая и переданная в сеть);

$E_{\text{потерь}}$— общие энергетические потери в системе.

Полезная энергия определяется следующим образом:

$$E_{\text{полезная}} = E_{\text{нагрузки}} + E_{\text{сети}} \quad (5)$$

Исходя из этого, энергетические потери были рассчитаны по следующей формуле:

$$E_{\text{потерь}} = E_{\text{фэ}} - (E_{\text{нагрузки}} + E_{\text{сети}}) \quad (6)$$

ISSN 3030-3907

Эффективность фотоэлектрической системы определяется следующим выражением:

$$\eta = \frac{E_{\text{полезная}}}{E_{\text{фэ}}} \times 100\% \quad (7)$$

Данный показатель позволяет оценить реальную эффективность работы системы.

В рамках исследования показатели выработанной, потреблённой и переданной в сеть энергии рассматривались во взаимосвязи, что позволило выполнить комплексную оценку общих энергетических потоков в системе. Такой подход обеспечивает более точное определение энергетических потерь.

Ещё одним важным преимуществом методологии является возможность оценки потерь фотоэлектрической системы в условиях реальной эксплуатации. Это позволяет выявить расхождения между теоретическими расчётами и практическими результатами, а также разработать конкретные рекомендации по повышению эффективности системы.

Таблица 1

Результаты и обсуждение. Солнечная фотоэлектрическая станция (экспериментальные результаты за 1 месяц)

Дата	Выработка PV (кВт·ч)	Потребление (кВт·ч)	Передано в сеть (кВт·ч)	Получено из сети (кВт·ч
2026-01-20	318.36	0.09	318.81	0.54
2026-01-21	94.66	0.82	94.22	0.38
2026-01-22	22.66	1.09	21.94	0.37
2026-01-23	407.31	0.00	408.03	0.63
2026-01-24	86.71	0.97	86.13	0.39
2026-01-25	301.25	0.03	301.53	0.31
2026-01-26	281.42	0.33	281.65	0.58
2026-01-28	108.76	0.57	108.35	0.16

ISSN 3030-3907

2026-01-29	438.44	0.00	439.08	0.33
2026-01-30	158.46	0.80	158.19	0.53
2026-01-31	248.61	0.51	248.65	0.55
2026-02-01	295.13	0.00	315.54	0.88
2026-02-02	103.61	20.89	82.87	0.15
2026-02-03	387.88	0.00	388.31	0.01
2026-02-04	95.49	0.00	—	—
2026-02-07	343.28	0.22	343.59	0.53
2026-02-08	262.09	0.06	262.35	0.32
2026-02-09	58.34	1.06	57.62	0.34
2026-02-10	291.09	0.18	291.44	0.31
2026-02-11	169.08	0.63	168.78	0.33
2026-02-12	67.05	0.95	66.44	0.34
2026-02-13	236.45	0.52	236.43	0.50
2026-02-14	311.71	0.18	311.85	0.32
2026-02-15	209.41	0.50	209.22	0.31
2026-02-17	114.93	0.93	114.47	0.47
2026-02-18	436.20	0.00	436.81	0.50
2026-02-19	326.69	0.41	326.78	0.50

ISSN 3030-3907

2026-02-20	401.71	0.00	402.13	0.34

В ходе исследования на основе полученных экспериментальных данных был проведён анализ месячных эксплуатационных показателей фотоэлектрической системы. Представленные в таблице 1 результаты отражают суточную динамику выработки энергии солнечной станции, показатели потребления, а также обмен энергией с сетью. Согласно результатам анализа, значения произведённой энергии значительно варьировались по дням. В частности, максимальная выработка составила 438,44 кВт·ч (29 января), тогда как минимальное значение — 22,66 кВт·ч (22 января). Такая существенная разница объясняется изменчивостью интенсивности солнечного излучения и метеорологических условий. При расчёте среднего значения выработки установлено, что система в целом демонстрирует относительно стабильную эффективность работы, однако резкое снижение выработки в отдельные дни указывает на наличие энергетических потерь.

На основе полученных результатов рассчитаем реальные энергетические потери.

$$E_потерь = E_идеал - E_реал \quad (8)$$

$$\text{потерь} = E_{\text{экспорта}} - E_{\text{фэ}} = 5793.52 - 5771.89 = 21.63 \text{ kWh}$$

Общие потери (%) : $\eta_{\text{потерь}} = \frac{21.63}{5771.89} \times 100\ \% \approx 0.37\%$

Анализ импортируемой энергии: $E_{\text{импорта}} = 10.05$ kWh

$E_{\text{импорта}}$ в основном это количество энергии, полученной из сети в ночное время и в периоды, когда выработка PV недостаточна. Зависимость от сети: $\text{сетезависимость системы} = \frac{10.05}{5771.89} \times 100 \approx 0.17\%$. Это очень низкий показатель — систему можно считать практически автономной. Итоговая энергетическая эффективность:

- Реальные потери фэ -системы: 0,37%
- Эффективность системы: 99,63%

ISSN 3030-3907



Рисунок 1. Результаты мониторинга за январь–февраль 2026 года.

В январе 2026 года фотоэлектрическая система произвела 6,52 МВт·ч электроэнергии. Практически весь объём этой энергии — 6,52 МВт·ч (≈99,97%) — был передан в сеть, что свидетельствует о крайне низком внутреннем потреблении системы, составившем всего 1,87 кВт·ч. При этом потребителями было использовано в общей сложности 16,11 кВт·ч энергии, из которых 2,88 кВт·ч обеспечивались фотоэлектрической системой, а оставшиеся 13,23 кВт·ч были получены из внешней сети. Это указывает на то, что в январе система работала преимущественно в экспортном режиме. В феврале объём произведённой энергии увеличился до 7,36 МВт·ч, что свидетельствует о заметном росте по сравнению с январём. Переданная в сеть энергия составила 7,27 МВт·ч (≈98,72%). Внутреннее потребление увеличилось до 29,75 кВт·ч, из которых 19,49 кВт·ч было покрыто непосредственно фотоэлектрической системой, а 10,26 кВт·ч — получено из сети. Это отражает повышение уровня самопотребления и улучшение эффективности использования энергии. Оценка общих энергетических потерь выполняется на основе разницы между произведённой и полезно использованной энергией. В январе из 6,52 МВт·ч произведённой энергии

ISSN 3030-3907

практически весь объём был передан в сеть, а 1,87 кВт·ч использовалось на собственные нужды. При этом технические потери (инверторные, кабельные и конверсионные) оцениваются примерно в 0,01–0,03 МВт·ч, что составляет около 0,2–0,5% от общей выработки. В феврале из 7,36 МВт·ч произведённой энергии 7,27 МВт·ч было передано в сеть, а 94,59 кВт·ч использовано для внутренних нужд системы. В этом случае общие потери составили:

$$\Delta E = 7.36 - (7.27 + 0.09459) \approx 0. -0.00459\ \text{MWh}$$

То есть на практике это составляет очень малую величину (≈0,1–0,3%). Это свидетельствует о высокой технической эффективности работы системы. В то же время, с теоретической и практической точки зрения, общие энергетические потери в фотоэлектрических системах формируются не только как разница энергетического баланса, но и за счёт следующих компонентов: оптические потери (5–10%), тепловые потери (10–15%), рекомбинационные потери (10–20%) и электрические потери (2–5%). В практических наблюдениях суммарная величина этих потерь может достигать 20–40%. В целом, в феврале эффективность системы ещё больше повысилась: увеличился объём выработки энергии, улучшился уровень самопотребления и снизилась зависимость от сети. Это ещё раз подтверждает, что сезонные и метеорологические факторы играют важную роль в работе фотоэлектрических систем.




Рисунок 2. Динамика выработки энергии и энергетических потерь в фотоэлектрической системе за 1 месяц

На рисунке 2 представлена динамика месячной выработки энергии фотоэлектрической системой. Как видно из графика, показатели выработки по дням имеют выраженный изменчивый характер. Максимальные значения соответствуют дням с высокой солнечной радиацией, тогда как минимальные значения объясняются облачностью и ухудшением атмосферных условий. Данная динамика подтверждает, что энергетические потери в фотоэлектрических системах напрямую зависят от факторов внешней среды.

ISSN 3030-3907

На рисунке 2 (b) приведены средние показатели выработки энергии фотоэлектрической системы за январь и февраль. Из графика видно, что в феврале объём произведённой энергии был выше, чем в январе. Это объясняется увеличением интенсивности солнечного излучения, увеличением продолжительности дня и улучшением метеорологических условий. В то же время различия в месячной выработке свидетельствуют о наличии сезонных энергетических потерь в фотоэлектрических системах.

На рисунке 2 (c) представлена динамика суточной выработки энергии и энергетических потерь. Из графика видно, что между выработкой и потерями наблюдается обратная зависимость: при высокой генерации потери минимальны, тогда как при низкой выработке они значительно возрастают. Данное явление в основном объясняется интенсивностью солнечного излучения, атмосферными условиями и факторами, влияющими на эффективность системы.

Экспериментальные данные позволили оценить энергетические потери по следующему выражению:

$$E_{\text{потерь}} = E_{\text{фэ}} - (E_{\text{нагрузки}} + E_{\text{сети}})$$

Результаты расчётов показывают, что в отдельные дни наблюдается существенная разница между произведённой и полезно использованной энергией. Это подтверждает наличие различных видов потерь в системе. На основе анализа установлено, что основными факторами энергетических потерь являются следующие:

1. **Оптические потери.** Снижение интенсивности солнечного излучения вследствие облачности, пыли и уменьшения прозрачности атмосферы. Например, 22 января и 9 февраля наблюдались резко низкие показатели выработки энергии.

2. **Тепловые потери.** Повышение температуры приводит к снижению эффективности солнечных модулей, что особенно заметно в дни высокой солнечной радиации.

3. **Рекомбинационные потери.** В результате повторного объединения электронов и дырок энергия рассеивается в виде тепла.

4. **Электрические потери.** Потери, связанные с эффективностью инвертора, сопротивлением кабелей и соединительных элементов [9].

Анализ обмена энергией с сетью. Полученные результаты показывают, что основная часть произведённой энергии передаётся в электрическую сеть. Это свидетельствует о высокой эффективности работы системы. В то же время объём энергии, получаемой из сети, является очень небольшим, что указывает на практически автономный режим работы

ISSN 3030-3907

системы. Особого внимания заслуживает ситуация от 02.02.2026, когда было зафиксировано резкое увеличение потребления (20,89 кВт·ч). Данное явление может быть связано с внешней нагрузкой или специальным режимом работы системы.

ОБСУЖДЕНИЕ. Полученные результаты показывают, что потери энергии в фотоэлектрических системах имеют комплексный характер. Показатели выработки энергии зависят не только от технических факторов, но и в значительной степени от условий внешней среды. Анализ показывает, что: в дни с высокой солнечной радиацией система работает с максимальной эффективностью; в облачные и пыльные дни энергетические потери резко возрастают; суммарные потери системы могут достигать 20–30%. Также установлено, что применение современных инверторов и систем мониторинга играет важную роль в снижении энергетических потерь.

ВЫВОД. В рамках данного исследования процесс преобразования солнечного излучения в электрическую энергию в фотоэлектрических системах и связанные с ним энергетические потери были детально проанализированы на основе реальных экспериментальных данных. Полученные результаты показали, что эффективность фотоэлектрических систем напрямую зависит не только от интенсивности солнечного излучения, но и от метеорологических условий, конфигурации системы и технических факторов. Анализ суточных графиков выработки энергии выявил её значительную изменчивость. Максимальные значения фиксировались в дни с высокой солнечной радиацией, тогда как минимальные значения соответствовали облачным и неблагоприятным атмосферным условиям. Это подтверждает, что основная часть энергетических потерь фотоэлектрических систем связана с внешними факторами окружающей среды.

В результате анализа установлено, что энергетические потери находятся в обратной зависимости от выработки энергии: при снижении генерации доля потерь возрастает. Данный факт ещё раз подтверждает необходимость обеспечения оптимального режима работы фотоэлектрических систем.

Научная новизна данного исследования заключается в следующем:
– оценка энергетических потерь фотоэлектрических систем на основе реальных экспериментальных данных;
– выявление зависимости между суточной выработкой энергии и потерями;
– анализ динамики энергетических потерь с использованием графических и статистических методов;

ISSN 3030-3907

– сопоставление теоретической максимальной выработки с практическими результатами и уточнение величины потерь.

Научная новизна исследования прежде всего обусловлена использованием экспериментальных данных, полученных в реальных условиях эксплуатации фотоэлектрической системы для оценки энергетических потерь. В целом, результаты данного исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для разработки научно обоснованных решений по снижению энергетических потерь и повышению общей эффективности фотоэлектрических систем.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Duffie J.A., Beckman W.A. *Solar Engineering of Thermal Processes*. – Wiley, 2013. – pp. 1–25.
2. Messenger R., Ventre J. *Photovoltaic Systems Engineering*. – CRC Press, 2010. – pp. 75–110.
3. Luque A., Hegedus S. *Handbook of Photovoltaic Science and Engineering*. – Wiley, 2011. – pp. 120–180.
4. Duffie J.A., Beckman W.A. *Solar Engineering of Thermal Processes*. – Wiley, 2013. – pp. 1–25.
5. Messenger R., Ventre J. *Photovoltaic Systems Engineering*. – CRC Press, 2010. – pp. 75–110.
6. Luque A., Hegedus S. *Handbook of Photovoltaic Science and Engineering*. – Wiley, 2011. – pp. 120–180.
7. Green M.A. *Solar Cells: Operating Principles, Technology and System Applications*. – Prentice-Hall, 1982. – pp. 55–95.
8. De Soto W., Klein S.A., Beckman W.A. Improvement and validation of a model for photovoltaic array performance. – *Solar Energy*, 2006. – P. 78–88.
9. Skoplaki E., Palyvos J.A. On the temperature dependence of photovoltaic module electrical performance. – *Solar Energy*, 2009. – P. 614–624.

ISSN 3030-3907

AVTOMOBILLAR ISHLANGAN GAZLARI TARKIBIDAGI ZARARLI MODDALARNI KAMAYTIRISH BO‘YICHA UMUMIY CHORA-TADBIRLAR

Karimov Maxmud Raxmatovich
Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti, t.f.f.d., dotsent
Norqobilov Elmurod Erkin o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnalogiyalar universiteti magistranti
E-mail. norqobilovelmurod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobillardan chiqayotgan ishlangan gazlar tarkibidagi zararli moddalar, ularning atrof-muhit va inson salomatligiga ta’siri hamda ularni kamaytirish bo‘yicha zamonaviy texnologik va tashkiliy chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik xavfsiz transport tizimini shakllantirishda muhim bo‘lgan yechimlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ishlangan gazlar, ekologik xavfsizlik, katalizator, CO, NOx, uglevodorodlar, transport, emissiya.

Annotation. This article analyzes the harmful substances contained in vehicle exhaust gases, their impact on the environment and human health, as well as modern technological and organizational measures to reduce them. It also reviews important solutions for the development of an environmentally safe transport system.

Keywords: exhaust gases, environmental safety, catalyst, CO, NOx, hydrocarbons, transport, emission.

Аннотация. В данной статье проанализированы вредные вещества, содержащиеся в выхлопных газах автомобилей, их влияние на окружающую среду и здоровье человека, а также современные технологические и организационные меры по их снижению. Также рассмотрены важные решения, направленные на формирование экологически безопасной транспортной системы.

Ключевые слова: выхлопные газы, экологическая безопасность, катализатор, CO, NOx, углеводороды, транспорт, эмиссия.

KIRISH.

Hozirgi kunda transport sektori jahon miqyosida iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, u sanoat, logistika va xizmat ko‘rsatish sohalarining uzluksiz faoliyatini ta’minlaydi. Biroq, avtomobil transportining keskin rivojlanishi bilan bir qatorda atrof-muhitga salbiy ta’sirlar ham ortib bormoqda. Ayniqsa, ichki yonuv dvigatellari (IYoD) bilan jihozlangan transport vositalaridan ajralib chiqadigan ishlangan gazlar atmosfera ifloslanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yirik shaharlarda atmosfera ifloslanishining 60–80 % gacha bo‘lgan qismi aynan transport vositalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa urbanizatsiya jarayonlari jadallashgan sharoitda ekologik muammolarning keskinlashuviga olib kelmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar inson salomatligiga, ayniqsa, nafas olish tizimi, yurak-qon tomir kasalliklari hamda onkologik kasalliklarning ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Ichki yonuv dvigatellarida yoqilg‘ining yonish jarayoni murakkab fizik-kimyoviy reaksiyalar asosida amalga oshadi. Ideal sharoitda yoqilg‘i to‘liq yonib, karbonat angidrid (CO_2) va suv bug‘iga aylanishi kerak. Biroq real sharoitda yonish jarayonining nomukammalligi sababli quyidagi zararli komponentlar hosil bo‘ladi: uglerod oksidi (CO) – kislorod yetishmasligi sharoitida hosil bo‘ladigan zaharli gaz; azot oksidlari (NO va NO_2 umumiy holda NOx) – yuqori haroratda azot va kislorod reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladi; yonmagan uglevodorodlar (HC) – yonish jarayonining to‘liq amalga oshmasligi natijasida; qattiq zarrachalar (PM) – asosan dizel dvigatellarga xos bo‘lib, mikro va nano o‘lchamdagi zarrachalardan iborat; oltingugurt birikmalari (SOx) – yoqilg‘i tarkibidagi oltingugurt hisobiga yuzaga keladi.

Mazkur zararli moddalar atmosfera tarkibida kimyoviy reaksiyalarga kirishib, ikkilamchi ifloslantiruvchi moddalarni hosil qiladi. Jumladan, azot oksidlari va uglevodorodlar quyosh nurlari ta’sirida fotokimyoviy smog hosil qiladi, bu esa yirik shaharlarda ekologik vaziyatni yanada yomonlashtiradi. Avtomobil ishlangan gazlari tarkibini shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga dvigatelning konstruktiv xususiyatlari, yonish kamerasi geometriyasi, yoqilg‘i purkash tizimi, havo-yoqilg‘i aralashmasining nisbati, dvigatelning yuklanish darajasi va ekspluatatsiya sharoitlari kiradi. Masalan, stexiometrik nisbatdan og‘ishish ($\lambda \neq 1$) yonish samaradorligini pasaytirib, zararli moddalar miqdorini oshiradi. Zamonaviy avtomobillarda ekologik ko‘rsatkichlarni yaxshilash maqsadida turli texnologik yechimlar joriy etilgan. Jumladan: elektron boshqaruv tizimlari (ECU) yordamida yonish jarayonini optimallashtirish; katalitik neytrallagichlar orqali chiqindi gazlarni tozalash; qayta aylanuvchi gaz tizimi (EGR – Exhaust Gas Recirculation) orqali NOx miqdorini kamaytirish; zarracha filtrlari (DPF) yordamida qattiq zarrachalarni ushlab qolish.

Shu bilan birga, global miqyosda ekologik standartlar (Euro-1 dan Euro-6 gacha) joriy etilishi avtomobil ishlab chiqaruvchilarni yanada samarali va ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqishga undamoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham avtomobillar sonining ortib borishi, yoqilg‘i sifati va texnik xizmat ko‘rsatish darajasining yetarli emasligi sababli ekologik muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bois avtomobil ishlangan gazlari tarkibidagi zararli moddalarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-

ISSN 3030-3907

tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi — avtomobil ishlangan gazlari tarkibini tahlil qilish, zararli komponentlarning hosil bo‘lish mexanizmlarini o‘rganish hamda ularni kamaytirishning samarali texnologik va tashkiliy usullarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI. Avtomobil transportining ekologik xavfsizligi va ishlangan gazlar tarkibidagi zararli moddalarni kamaytirish masalasi jahon ilm-fanida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ichki yonuv dvigatellarida yonish jarayonining fizik-kimyoviy asoslarini, zararli moddalar hosil bo‘lish mexanizmlarini hamda ularni kamaytirish usullarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

John B. Heywood tomonidan yozilgan *Internal Combustion Engine Fundamentals* asarida ichki yonuv dvigatellarida yonish jarayonining nazariy asoslari batafsil yoritilgan [1]. Muallifning ta’kidlashicha, zararli moddalar hosil bo‘lishi asosan yonish jarayonining notekisligi, aralashma tarkibining optimal bo‘lmasligi hamda issiqlik rejimining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ushbu manba dvigatel ichida CO, NOx va HC hosil bo‘lish mexanizmlarini tushuntirishda fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Timothy D. Gillespie tomonidan yozilgan *Fundamentals of Vehicle Dynamics* kitobida avtomobil harakati va yuklanish rejimlarining yoqilg‘i sarfi va chiqindi gazlar miqdoriga ta’siri o‘rganilgan [2]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, avtomobilning tez-tez tezlanishi va tormozlanishi yonish samaradorligini pasaytiradi hamda zararli emissiyalar miqdorini oshiradi.

So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ekologik me’yorlar ham ushbu sohadagi tadqiqotlar rivojiga katta turtki bo‘ldi. Xususan, European Commission tomonidan joriy etilgan Euro emissiya standartlari avtomobillardan chiqadigan zararli moddalar miqdorini keskin cheklashga qaratilgan [3]. Ushbu standartlarga ko‘ra, NOx, CO va qattiq zarrachalar miqdori bosqichma-bosqich kamaytirib borilgan.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishda International Energy Agency hisobotlari muhim ahamiyatga ega. Agentlik ma’lumotlariga ko‘ra, transport sektori global CO_2 emissiyasining qariyb 24 % ini tashkil etadi [4]. Shu sababli elektr va gibrid transport vositalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Zararli gazlarni kamaytirish bo‘yicha texnologik yechimlar ichida katalitik neytrallagichlar alohida o‘rin tutadi. United States Environmental Protection Agency (EPA) ma’lumotlariga ko‘ra, uch komponentli katalizatorlar CO emissiyasini 90 % gacha, uglevodorodlarni 85 % gacha va azot oksidlarini 80 % gacha kamaytirish imkonini beradi [5].

ISSN 3030-3907

Bundan tashqari, ilmiy maqolalarda chiqindi gazlarni qayta aylantirish tizimi — EGR (Exhaust Gas Recirculation) samaradorligi ham keng o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, EGR tizimi yonish haroratini pasaytirish orqali NOx hosil bo‘lishini sezilarli darajada kamaytiradi [6]. Shu bilan birga, dizel dvigatellar uchun zarracha filtrlari (DPF) qo‘llanilishi qattiq zarrachalar emissiyasini 95 % gacha kamaytirishi aniqlangan. Mahalliy olimlar tomonidan ham ushbu yo‘nalishda qator ilmiy ishlar olib borilgan. O‘zbekiston sharoitida avtomobillar parkining eskirganligi, yoqilg‘i sifatining o‘zgaruvchanligi va texnik xizmat ko‘rsatish darajasining yetarli emasligi sababli chiqindi gazlar tarkibidagi zararli moddalar miqdori yuqori darajada qolmoqda. Shu bois mahalliy tadqiqotlarda dvigatellarni modernizatsiya qilish, gaz ballonli tizimlardan foydalanish hamda ekologik nazoratni kuchaytirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

So‘nggi ilmiy izlanishlar sun’iy intellekt va aqlli boshqaruv tizimlari yordamida yonish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan. Bunda dvigatel parametrlarini real vaqt rejimida boshqarish orqali yoqilg‘i sarfini kamaytirish va zararli emissiyalarni minimal darajaga tushirish imkoniyati mavjudligi isbotlangan [4]. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, avtomobil ishlangan gazlari tarkibidagi zararli moddalarni kamaytirish kompleks yondashuvni talab etadi. Ya’ni, dvigatel konstruksiyasini takomillashtirish, zamonaviy tozalash texnologiyalarini qo‘llash, ekologik yoqilg‘ilarga o‘tish hamda tashkiliy choralarni uyg‘un holda amalga oshirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot ishida avtomobil ishlangan gazlari tarkibidagi zararli moddalarni kamaytirish muammosini o‘rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, eksperimental tadqiqotlar, matematik modellashtirish hamda natijalarni statistik qayta ishlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida ichki yonuv dvigatellarida yonish jarayonining fizik-kimyoviy asoslari o‘rganildi. Yonish jarayonida zararli moddalar hosil bo‘lish mexanizmlari, xususan, uglerod oksidi (CO), azot oksidlari (NOx) va yonmagan uglevodorodlar (HC) hosil bo‘lish sharoitlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, havo-yoqilg‘i aralashmasining stexiometrik nisbatidan og‘ishi (λ koeffitsiyenti) va yonish haroratining o‘zgarishi zararli emissiyalar miqdoriga qanday ta’sir ko‘rsatishi aniqlashtirildi. Eksperimental tadqiqotlar maxsus jihozlangan sinov stendida amalga oshirildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida benzin va dizel dvigatellari tanlab olindi. O‘lchov jarayonida quyidagi asbob-uskunalardan foydalanildi: gaz analizatori (CO, CO_2, NOx va HC miqdorini aniqlash uchun),tutun o‘lchagich (dizel dvigatellar uchun),yoqilg‘i sarfi

ISSN 3030-3907

o‘lchagichi,dvigatel aylanish tezligi va yuklanishini aniqlovchi sensorlar, eksperiment davomida dvigatel turli ish rejimlarida (bo‘sh yurish, o‘rta yuklama, maksimal yuklama) sinovdan o‘tkazildi va har bir holatda chiqindi gazlar tarkibi o‘lchandi.

Tadqiqotda yonish jarayonini matematik modellashtirish orqali zararli moddalar hosil bo‘lish qonuniyatlari aniqlashtirildi. Model quyidagi asosiy parametrlarni o‘z ichiga oldi: havo-yoqilg‘i aralashmasi nisbati (λ); yonish harorati (T); dvigatel aylanish tezligi (n); silindrdagi bosim (P)

